tafakkurni birlashtirib, o'ziga xos uslub yaratgan. Uning ayrim asarlari postmodernizm elementlarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Xurshid Davron she'riyatida madaniy intertekstualizm, ramziy qatlamlar, metaforik tafakkur mavjud. Shoir sifatida u ham avangard g'oyalarni targ'ib qilgan: tarix, mifologiya va modern zamon ruhini aralashtirgan. O'zbek adabiyotida avangard adabiyotning quyidagi xususiyatlari namoyon bo'ladi:

- she'r va nasrda g'ayrioddiy kompozitsiya, struktura qo'llanishi;
- abstrakt, ko'proq o'quvchini o'yantirishga majburlovchi ramziy va metaforik til;
- falsafa, shaxsiy iztirob, zamonaviy muammolar kabi mavzular yangiligi;
- an'anaviy janrlar va uslublardan voz kechish, shakl va mazmunda yangilik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Подробнее о Хаосе и Космосе как о наиболее универсальных моделях мира см.: Лейдерман Н.Л. Космос и Хаос как метамодели мира: К характеристике классического и модернистского типов художественного сознания // Русская литература XX века: Направления и течения. – Екатеринбург, 1996. – Вып. 3. С. 4-12; Ван Баак Й. Авангардистский образ мира и построение конфликта // Russian Literature. – Amsterdam, 1987. – Vol. XXI. - № 1. – P. 6. См. также: Хольтхузен Т. Модели мира в литературе русского авангарда // Вопросы литературы. – 1992. – Вып. 3. – С. 150 – 161.
2. Липовецкий М.Н. Русский постмодернизм (Очерки исторической поэтики): Монография / Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 1997. С. 36.
3. Бобринская Е. Русский авангард: истоки и метаморфозы. М.: «Пятая страна», 2003. С. 5.
4. Бобринская Е. Указ. соч. С. 20.
5. Беренштейн Е.П. Указ. соч. С. 131.
6. Улуғбек Ҳамдам. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007;
7. Намдамов У. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernism. – Т.: Akademnashr, 2020.

KOGNITIV METAFORALARDA MILLIY MADANIY DUNYOQARASHNING AKS ETISHI

Juraqobilova Xamida Xolmatovna – Turon universiteti xorijiy tillar kafedrasii professori Qarshi, Uzbekistan
E-mail: xamidajuraqobilova@gmail.com

Annotatsiya. *Metafora inson tafakkuri va tilning eng nozik uyg'unligini namoyon etuvchi universal ma'no yaratish vositasidir. Metafora zamonaviy tilshunoslik va kognitiv fanlar sohasidagi dolzarb mavzulardan bo'lib, til, tafakkur va madaniy kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Maqolada kognitiv metafora nazariyasi asosida milliy madaniy dunyoqarashning badiiy matnlarda ifodalanishi tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek adibi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari tanlab olingan. Muallif asaridagi metaforalar orqali inson tafakkuri va*

millat ruhiyatidagi qadriyatlar, milliy dunyoqarashning o'ziga xos jihatlari yoritib berildi. Shuningdek, kognitiv metaforalar til vositasi emas, balki konseptual tafakkur shakli ekani, ular orqali milliy madaniy tafakkur va ijtimoiy qadriyatlar namoyon bo'lishi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: kognitiv metafora, konseptual metafora, milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar.

THE REFLECTION OF NATIONAL CULTURAL WORLDVIEW IN COGNITIVE METAPHORS

Abstract. *Metaphor is a universal tool of meaning-making that reveals the most subtle harmony between human thought and language. It represents one of the most relevant topics in modern linguistics and cognitive sciences, reflecting the complex relationship between language, thought, and cultural context. The article examines the representation of national cultural worldview in literary texts on the basis of cognitive metaphor theory. As the object of the study, the Uzbek writer Abdulhamid Chulpon's novel "Night and Day" was selected. Through the metaphors in the author's works, the values of human thought and the spirit of the nation, as well as the distinctive features of the national worldview, are highlighted. It is also substantiated that cognitive metaphors are not merely linguistic devices, but forms of conceptual thinking through which national cultural cognition and social values are manifested.*

Key words: *cognitive metaphor, conceptual metaphor, national cultural worldview, cultural values.*

Kirish. So'nggi yillarda tilshunoslikda kognitiv yondashuvlarning ustuvorligi ortib, tilni inson tafakkuri va ong faoliyatining mahsuli sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kognitiv metafora tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda muhim tadqiqot obyekti sifatida ko'pgina soha mutaxassislari tomonidan tadqiq etilmoqda.

Kognitiv metafora – bu inson tafakkuri va bilishining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, nutqni bezashning ritorik vositasi emas, balki, eng avvalo, noma'lum narsalarni ma'lum narsa bilan solishtirish natijasida paydo bo'ladigan va tevarakatrofdagi narsa va hodisalarni turkumlashga xizmat qiladigan metaforadir. [4. Лаврова Н.А. Когнитивная метафора как способ представления знания в языке и как основополагающий принцип человеческого мышления // Преподаватель XXI век. - М.: Прометей, 2015. №2. –С.294-307] Jahon tilshunosligida metafora hodisasini o'rganish borasida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa uning tafakkur va inson omili bilan bog'liq xususiyatlari izlanishlar markaziga qo'yilmoqda. Bu esa til va tafakkur masalalari inson ongida bilish jarayonlari bilan bog'liq yangi g'oyalar shakllanishida ustuvor omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tilshunos olim Z. Xolmanova ta'kidlaganidek: "Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman

o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ong orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, obektiv borliqqa oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk davrlardan boshlab hech bir narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan vazifani, ya'ni inson tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish funksiyasini bajarib keladi". [10.Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – T.: Nodirabegim, 2020. – B. 44-45.]

Metafora bizning ijodiy “men”imizning intuitiv tahliliy faoliyatining natijasidir. [9.Тихонова И.В., Тихонов И.А. Метафора в когнитивных исследованиях. Вестник Череповецкого государственного университета 2015, №7. –С.64] Shu sababli, gumanitar fanlarning turli soha tadqiqotchilari psixologlar, madaniyatshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, faylasuflar, san'atshunoslar va boshqa soha kishilari bir necha asrlardan buyon ushbu lingvistik hodisani o'rganish bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, metafora uni tadqiqot obyektini sifatida qabul qilgan nutqlarni doimiy yangilanishiga olib keladigan kamdan-kam badiiy san'at vositalaridan biri hisoblanadi. [8.Philippe Gréa. La théorie de l'intégration conceptuelle appliquée à la métaphore et la métaphore filée. THESE Pour l'obtention du doctorat nouveau regime discipline: Sciences du langage. Université de Nanterre- Paris X, 2001. –P.7.] N.D.Arutyunova metaforaga bo'lgan nazariy qiziqishning ortishini uning turli xil matnlarda, she'riy nutq va publitsistikadan tortib, ilmiy bilimlarning turli soha tillarigacha bo'lgan ko'payishi bilan asoslaydi. [3.Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория и метафоры. –Москва, “Прогресс”, 1990. –С.6-9.] В. Mengliyev metaforani badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasi deb hisoblaydi va tilning go'zalligi va jozibadorligini ta'minlashda uning rolini e'tirof etadi. [7. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. –Toshkent, Tafakkur Bo'stoni, 2018. – B.155-157.]

Maqsad va vazifa. Kognitiv metafora, aslida, bir tushuncha yoki so'zning boshqa bir so'z yoki tushuncha bilan ifodalangan taqqoslash va izohlash jarayonidir. Bu jarayon til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi. Har bir metafora inson ongida mavjud bo'lgan tasavvurlarni va umumiy tushunchalarni aks ettiradi. Shu sababli, kognitiv metafora tadqiqi tilni nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki inson tafakkuri va dunyoqarashining shakllanishi va anglash jarayonining asosi sifatida o'rganishga imkon beradi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda metafora tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi. Inson metafora yordamida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki ularning estetik imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek, metafora bilan fikr yuritadi, ular yordamida o'zi yashab turgan olamni o'rganadi. Metaforalar bizga qabul qiluvchining ongida mavjud bo'lgan dunyoning lingvistik suratini o'zgartirishga, ma'lum bo'lgan hodisalarni yangicha toifalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunda metaforaning estetik salohiyati, borliqni emotsional baholash qobiliyati muhim ro'l o'ynaydi. Kognitiv metafora nazariyasining yangi modifikatsiyalarining tobora ortib borishi ushbu ilmiy yo'nalish tarixini, hozirgi holati va kelajakdagi rivojlantirish istiqbollari har tomonlama tushunishni talab qiladi. [2. Abduolimova M. Nurulloxon qizi. Kognitiv metafora nazariyasi: yangi yo'nalishlar.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022, VOLUME 2 | ISSUE 3. B.154.]

Kognitiv metaforalar insonning dunyo haqidagi tushunchalari, tajribasi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi konseptual tuzilmalar bo‘lib, ular nafaqat kundalik nutqda, balki badiiy adabiyotda ham keng qo‘llaniladi. Ma‘lumki, ushbu masalalar ayniqsa tillarning lingvokognitiv, lingvomadaniy aspektlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. V. Maslova ta‘kidlaganidek: “Til madaniyat bilan chambarchas bog‘liq: u unda unib chiqadi, rivojlanadi va uni ifodalaydi”. [6.Маслова В Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. –С. 9.]

Badiiy metafora barcha zamonlarda hamma xalqlarda ancha keng va ko‘p qo‘llanadigan lingvopoetik tasviriy vositasi sifatida badiiy matnning kitobxon tasavvurida gavalantirishga, millatga xos bo‘lgan shaxslarning obrazli tafakkurini nomoyon etishga xizmat qiladi. Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida qo‘llanilgan metaforalarni kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish bu metaforalarning mazmun-mohiyatini ochish, ular orqali milliy va madaniy dunyoqarashning ifoda imkoniyatlarini aniqlash hamda bu ifodalarning adabiy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida kognitiv metafora nazariyasining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish, ularning adabiy matn tahlilidagi ahamiyatini yoritish, “Kecha va kunduz” asaridagi metaforalarning ma‘no qatlamlarini tahlil qilish milliy ruhiyat, madaniy qadriyatlar hamda o‘tgan asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatining ma‘naviy-ma‘rifiy dunyoqarashini aks ettirish imkonini beradi.

Tadqiqot usullari. *Tadqiqotni amalga oshirishda kognitiv-tahlil, metaforalarning ma‘no qatlamlarini ochishda semantik va kontekstual tahlil usullari va ularni umumiy nazariy qonuniyatlar bilan solishtirishda qiyosiy-tahlil usullaridan foydalanildi.*

Natijalar va mulohaza: Har qanday badiiy asar tili tasviriy vositalarining nutqiy qimmatini nutqning jozibadorligini ta‘minlash, shuningdek, badiiy ta‘sirchanligini oshirishdagi imkoniyatlari til sohiblarining dunyoni o‘zgacha his etishi bilan belgilanadi. Metafora badiiy matnning markaziy elementi hisoblanib, boshqa badiiy tasvir vositalariga qaraganda ancha faol bo‘lib, uning ijodiy va emotsional ta‘sirini shakllantiradi hamda asarning jozibali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tadqiqotda o‘zbek tilidagi kognitiv metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari o‘zbek adibi Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidan olingan misollar orqali tahlilga tortildi. Asar tilining lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlari hamda tilning ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi kognitiv metaforalarni madaniy mentallikni ifodalash vositasi sifatida ko‘rib chiqishga harakat qildik. Asarda hodisalar, harakatlar, his-tuyg‘ularni obyekt sifatida talqin qilish, insonga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlarga ko‘chirish, moddiy obyektlarni inson sifatida talqin qilishga asoslangan ko‘plab metaforalarni uchratish mumkin. Bu esa konseptual metafora nazariyasi asoschilari J. Lakoff va M. Jonsonlar ta‘kidlaganidek, insonlarning jonsiz predmetlar bilan o‘zaro munosabati tajribasini inson motivlari, xususiyatlari va inson faoliyati nuqtai nazaridan konsepsiyalash imkonini beradi. [5.Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем. –М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 60.]

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida tabiat va hayot voqeliklari metafora orqali jonlantirilgan bo'lib, bu kognitiv metaforalar nazariyasiga asosan manba va maqsad sohasining o'zaro uyg'unligiga amal qiladi. Manba sohasi odatda inson tanasi, hissiyotlari yoki xulqi bo'lsa, maqsad sohasini tabiat, suv, shamol va o'simliklar tashkil qiladi.

Cho'lpon asaridagi tabiat hodisalarini ifodalovchi metaforalarning umumiy konseptual asosi bu – INSON – TABIAT. Yozuvchi tabiat hodisalarini inson tanasi, hissiyoti va harakatlari bilan uyg'unlashtirib, tabiatning ruhiy qiyofasini yaratgan. Bu nafaqat badiiy ta'sirni kuchaytiradi, balki inson va tabiatning uzviy bog'liqligini, ularning bir-birini to'ldiruvchi jihatlarini ham ko'rsatib beradi. Asardagi tabiat hodisalarini ifodalovchi kognitiv metaforalarni TABIAT – INSON; O'SIMLIK – INSON; SUV – INSON HISSIYOTI; SHAMOL – INSON SHO'XLIGI kabi antropomorfik modellar orqali tahlil qilish mumkin.

Cho'lpon asarni quyidagi jumlar bilan boshlagan: *Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi.*

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 2019:6)

"*Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi*" jumlasida "qitiqlash" insonga xos bo'lgan xatti-harakat "*bahor sevinchi*" mavhum tushunchasiga ko'chirilgan. Ya'ni, inson ruhiyatida paydo bo'ladigan hissiyot bevosita tana hissiyotlari bilan uyg'unlashtirilgan. Bu metaforada manba soha – inson harakati (qitiqlash), maqsad soha esa – qalbdagi quvonch, bahor sevinchi. Bu model orqali mavhum holat (*xursandchilik*) jismoniy tajribaga (*ko'ngil shodligi*) o'xshatilgan. Shu tariqa, kitobxon bahorning shodon kayfiyatini nafaqat aqlan, balki ruhan idrok etadi.

Chunki "qitiqlash" so'zi insonda kulgi, mayin taassurot uyg'otadi. Xuddi shunday, "bahor sevinchi" ham inson qalbiga xuddi shunday ta'sir qiladi, unda iliqlik uyg'otadi, tabassum qildiradi va zavq-shavq bag'ishlaydi. Bu yerda yozuvchi tabiatning faslga xos bo'lgan yangilanishini inson ruhiyati bilan bog'lagan.

Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi jumlasida, adib tabiatni inson tanasiga qiyoslagan. Bu metafora TABIAT – INSON TANASI konseptual modeliga asoslanadi. Tabiatning tanlariga qon yurishi orqali uning tirilishi, bahor nafasi bilan qayta jonlanishiga ishora qilingan.

Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, ozod bo'lgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar.

(Cho'lpon, "Kecha va kunduz", 2019:6)

Bu jumlada Cho'lpon suv oqimi va tabiat hodisalarini insonning jismoniy tajribalari bilan qiyoslab tasvirlagan. Bu **kognitiv metafora** orqali yozuvchi oddiy tabiat manzasiga chuqur ma'no yuklagan. "*Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi*" jumlasida suvga insoniy qiyofa berilgan. Suvning "g'amli yuzlari kuldi" deya yozuvchi tabiat orqali inson tuyg'ularini ifodalab, kitobxonni tabiatni inson sifatida tasavvur qilishga undagan.

Yana bir kuchli metaforani kitobxon “ozod bo‘lgan qul singari erkinlik nash‘asini kemira-kemira ilgari bosadilar” jumlasida ko‘rish mumkin. Muzdan chiqqan suv oqimi qullikdan ozod bo‘lgan insonning erkinlik tuyg‘usi bilan tenglashtiriladi. Bu metafora orqali suvning oqishi shunchaki tabiiy jarayon emas, balki ijtimoiy-ruhiy ramzni ifodalagan. Muzdan chiqish bu – ozodlikka erishish bo‘lsa, suvning oqishi erkinlik nashidasini tatib, oldinga intilish sifatida tasvirlangan.

Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi...
(Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 2019:6)

TABIAT – INSON

“O‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi” jumlasida chuqur metaforik ma‘noga ega. U TABIAT – INSON konseptual modeliga asoslanadi. Jumladagi o‘sma so‘zi oddiy o‘simlikni emas, balki hayotiy kuch va davomiylik timsoli sifatida tasvirlangan. Mazkur konseptual model asosida hosil bo‘lgan yana bir metaforaga e‘tibor qaratmiz:

Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og‘zidan chiqqan unlarini o‘z qanotlariga mindirib, allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar.
(Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 2019:27)

Yuqoridagi jumlada tabiat hodisalari va insoniy his-tuyg‘ular o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. “Dalalarning keng quchoqlari” metaforasida dala oddiy makon sifatida emas, balki mehribon, bag‘rikeng mavjudot sifatida tasvirlangan. Shabadalarning “uchib kelishi” esa ularga jonlilik, harakatchanlik xislatlarini beradi. Qizning “og‘zidan chiqqan unlar” ramziy ma‘noda qo‘shiq, so‘z yoki ovoz sifatida talqin qilingan. Shamol esa “qanot” timsolida tasvirlanib, bu unlarini o‘z bag‘riga olib uchirib ketadi. Bu orqali insonning so‘zlari va his-tuyg‘ulari tabiat yordamida makonga yoyilishi ifodalanadi.

Bu metafora orqali adib insonning ichki dunyosi va tabiat kuchlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni, inson hissiyotlarining cheksiz makonlarga yoyilish imkoniyatini majoziy shaklda ifodalaydi.

Tashqarida telba shamol quturardi... Mayli, qutursin, menga nima!

(Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 2019:104)

Bu jumladagi shamol shunchaki tabiiy hodisa sifatida emas, balki jonli mavjudot, inson sifatida gavalantirilgan. Adib unga “telba” va “quturardi” kabi sifatlarni berib, shamolning tartibsiz, to‘satdan yuzaga keladigan vahshiyona kuchini ifodalagan. Bu yerda qo‘llanilgan asosiy xaritalanish TABIAT – INSON modeli.

Ungacha qish nafasining sovuq va serjahl shamoli qo‘zg‘aldi, uning ignalari yuz va quloqlarga achitib-achitib sanchilardi. Qor uchqunlari kelib goh-goh yuzlarni chimchilardi.
(Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 2019:246)

Cho‘lpon yuqoridagi jumlada bir vaqtning o‘zida bir qancha kognitiv metaforalarni qo‘llagan. “Qish nafasining shamoli” metaforasida tabiat hodisasini insonga xos harakat “nafas olish” bilan qiyoslagan. Bu yerda FASL – INSON konseptual metaforasi namoyon bo‘ladi. Shu orqali qish go‘yoki tirik mavjudot sifatida tassavur qilinadi va u o‘zining “serjaxl nafasi” orqali odamlarga ta‘sir qiladi.

Ikkinchi kuchli ifoda “*uning ignalari yuz va quloqlarga sanchilardi*”. Bu yerda shamolning ta’siri guyoki *igna bilan teshishga* qiyos qilingan. Kognitiv jihatdan bu SOVUQ – O‘TKIR JISM metaforasining ifodasi hisoblanadi. Inson tanasi sovuqda haqiqatan ham “teshuvchi” va “achchiq” og‘riqni his qiladi, shu jismoniy tajriba orqali o‘quvchi voqeani yanada aniq va jonli his qiladi.

Jumladagi “*Qor uchqunlari yuzlarni chimchilardi*” metaforasida qorning vizual xususiyati (uchqun, mayda zarracha) insonning qo‘li bilan amalga oshiriladigan harakat *chimchilash* bilan qiyoslangan. Bu kognitiv metaforalar kitobxonda insonning tabiat qarshisidagi ojizligini kuchli badiiy obraz orqali namoyon etadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, adib metaforalar orqali nafaqat badiiy obraz yaratgan, balki milliy mentalitet, tarixiy-ma’naviy qadriyatlar hamda o‘z davr jamiyatining ruhiy kechinmalarini ifodalagan. Asardagi kognitiv metaforalar, avvalo, inson tanasi, hissiyotlari va xatti-harakatlari bilan tabiat hodisalari, ijtimoiy voqeliklar o‘rtasidagi uyg‘unlikka asoslanadi. TABIAT – INSON konseptual modeli orqali yozuvchi tabiat va hayot manzaralarini insonga xos xususiyatlar bilan boyitgan. Bu esa kitobxon ongida voqelikni yanada jonli va ta’sirchan qabul qilish imkonini beradi.

Cho‘lpon asarlarida metafora oddiy tasviriy vosita emas, balki konseptual tafakkurning ifodasi sifatida xizmat qiladi. U milliy madaniy tafakkurni, xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi va ruhiy olamini ochib berishda muhim vosita bo‘lib, badiiy nutqning estetik hamda ma’naviy qimmatini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv metaforalarni o‘rganish o‘zbek adabiyoti va madaniyatining chuqur qatlamlarini anglashda samarali ilmiy yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 288 b.
2. Abduolimova M. Nurulloxon qizi. Kognitiv metafora nazariyasi: yangi yo‘nalishlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022, VOLUME 2 | ISSUE 3. B.154.
3. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория и метафоры. – Москва, “Прогресс”, 1990. – С. 6-9.
4. Лаврова Н.А. Когнитивная метафора как способ представления знания в языке и как основополагающий принцип человеческого мышления // Преподаватель XXI век. М.: Прометей, 2015. № 2. – С. 294-307.
5. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С 60.
6. Маслова В. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С. 9.
7. Mengliyev V. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent, Tafakkur Bo‘stoni, 2018. – B.155-157.
8. Philippe Gréa. La théorie de l’intégration conceptuelle appliquée à la métaphore et la métaphore filée. THESE Pour l’obtention du doctorat nouveau regime discipline: Sciences du langage. Université de Nanterre - Paris X, 2001. – P. 7.

9. Тихонова И. В., Тихонов И. А. Метафора в когнитивных исследованиях. Вестник Череповецкого государственного университета 2015, №7. –С. 64.
10. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2020. – В. 44-45.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОЛИСЕМИИ И ОМОНИМИИ В РУССКОМ, УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Жураева Зулейха Агамуратовна – Университет Турон магистр 2-го курса
(Научный руководитель: DSc. Хамраева М.Г.)

E-mail: z.agamuratovna@gmail.com

Аннотация: Настоящая статья посвящена компаративному исследованию двух фундаментальных феноменов лексикологии: полисемии и омонимии, представленных в русском, узбекском и английском языках. Анализ выявил ключевые изоморфизмы и дифференциальные признаки данных явлений на материале трёх типологически разнородных языков. В исследовании рассмотрены дефиниции полисемии как многозначности одной лексической единицы с этимологически взаимосвязанными значениями и омонимии как абсолютного совпадения формы совершенно различных по семантике и генезису слов.

Особое внимание уделено контекстуальной функции как основному механизму демаркации значений полисемичных слов и омонимов. Также проанализированы различные пути возникновения этих явлений в каждом языке, включая случайные фонологические совпадения и процессы заимствования. Для верификации теоретических положений полисемии и омонимии приведены примеры из художественной литературы русского, узбекского и английского языков.

Ключевые слова: полисемия, омонимия, феномен, этимология, контекст, лексикология, компаративный анализ, изоморфизм, семантика, генезис.

Annotatsiya: Ushbu maqola leksikologiyaning ikki fundamental fenomeni: rus, o‘zbek va ingliz tillarida mavjud bo‘lgan polisemiya va omonimiyaning qiyosiy tadqiqotiga bag‘ishlangan. Tahlil uchta tipologik jihatdan xilma-xil til materiallari asosida ushbu hodisalarning asosiy izomorfizmlari va differensial xususiyatlarini aniqladi. Tadqiqotda polisemiya bir leksik birlikning etimologik jihatdan o‘zaro bog‘liq ma’nolari ko‘pligi, omonimiya esa ma’no va genezisiga ko‘ra mutlaqo turli xil so‘zlarning shakli bir xil bo‘lishi sifatida ta’riflangan.

Kontekstual funksiyaga polisemiya va omonimlarning ma’nolarini chegaralashning asosiy mexanizmi sifatida alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, har bir tilda bu hodisalarning paydo bo‘lishining turli yo‘llari, jumladan, tasodifiy fonologik mosliklar va o‘zlashish jarayonlari tahlil qilingan. Polisemiya va omonimiyaning nazariy qoidalarini isbotlash uchun rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy adabiyotlardan misollar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *polisemiya, omonimiya, fenomen, etimologiya, kontekst, leksikologiya, qiyosiy tahlil, izomorfizm, semantika, genezis.*

Abstract: This article is devoted to a comparative study of two fundamental phenomena of lexicology: polysemy and homonymy, as presented in the Russian, Uzbek, and English languages. The analysis has revealed key isomorphisms and differential features of these phenomena, based on material from three typologically diverse languages. Definitions of polysemy as the multiple meanings of a single lexical unit with etymologically interconnected meanings, and homonymy as the absolute coincidence of form for words that are completely different in semantics and genesis, have been considered in this work.

Special attention has been given to the contextual function as the primary mechanism for the demarcation of meanings for both polysemous words and homonyms. Additionally, various pathways for the emergence of these phenomena in each language have been analyzed, including accidental phonological coincidences and processes of borrowing. To verify the theoretical propositions of polysemy and homonymy, examples from Russian, Uzbek, and English fiction have been provided.

Keywords: *polysemy, homonymy, phenomenon, etymology, context, lexicology, comparative analysis, isomorphism, semantics, genesis.*

В современной лингвистике изучение лексической семантики занимает центральное место, поскольку именно словарный состав языка отражает особенности мировосприятия и когнитивные процессы носителей. Среди многообразия явлений, формирующих семантическую структуру лексики, особое внимание привлекают полисемия и омонимия. Эти феномены, представляющие собой различные типы совпадения языковых форм при дифференциации значений, являются неотъемлемой частью любого естественного языка и оказывают существенное влияние на процессы коммуникации и интерпретации смысла.

Проблемы полисемии и омонимии на протяжении десятилетий находятся в фокусе внимания ведущих лингвистов мира. Так, фундаментальные работы по лексической семантике, заложенные такими учеными, как В.Виноградов, Ж. Лайонз и Ч. Филлмор послужили основой для современного понимания многозначности слова. Разграничение между полисемией и омонимией, несмотря на кажущуюся очевидность, часто вызывает дискуссии в лингвистической науке [Апресян 1974; 45]. Это подчеркивается исследованиями Ю. Апресяна и А.А. Зализняк в русском языкознании, а также работами Ж. Сеймура и У. Чейфа в англоязычной традиции.

В узбекском языкознании значительный вклад в изучение лексической семантики и многозначности внесли Ш. Шоабдурахманов и А. Ходжиев, чьи труды помогают понять специфику этих явлений в тюркской языковой системе.

В лингвистике лексическая семантика исследует значение слов и их изменение. В рамках этой области особое место занимают явления полисемии и омонимии, которые, несмотря на внешнее сходство совпадение формы слова, имеют принципиально разную природу и механизмы возникновения. Понимание

их различий критически важно для точного анализа языковой системы и эффективной коммуникации.

Слово полисемия происходит от греческого *poly* много и *sema* знак, это значение наличие у одного слова нескольких связанных между собой значений [Ахманова 2004; 312]. Главная особенность полисемичного слова заключается в том, что все его значения, несмотря на кажущееся разнообразие, этимологически восходят к одному корню и сохраняют определенную семантическую связь с исходным, первичным значением.

В русском языке слово *корень*. Первичное значение “подземная часть растения”. Вторичные значения, развившиеся как “корень зуба” (по сходству формы и функции основания), “корень слова” (основа, откуда что-то произрастает), “корень зла” (источник, причина) [Ожегов 1990; 289].

В узбекском языке слово *bosh* (голова). Основное значение часть тела, *boshliq* (руководитель, начальник), “*bosh ko‘cha*” (главная улица), “*boshlamoq*” (начинать, быть во главе) [Узбекско-русский словарь 1988; 98].

В английском языке слово *head* (голова). Основное значение часть тела, *head of the company* (глава компании, по сходству роли руководства), *head of the river* (исток реки, по сходству начальной точки), *head of state* (глава государства) [Longman dictionary 2008; 720].

Таким образом, полисемия является результатом динамического развития языка, отражая способность слов адаптироваться к новым концепциям и реалиям через переосмысление существующих значений [Апресян 1995; 112].

Слово омонимия происходит от греческого *homos* одинаковый и *onoma* имя, это совпадение по звучанию и написанию двух или более слов, которые совершенно различны по своему лексическому значению и этимологически не связаны между собой [Реформатский 1967; 123]. В отличие от полисемии, где значения слова связаны, омонимы – это фактически разные слова, которые случайно совпали по форме в процессе исторического развития языка.

Разные по происхождению слова, которые в результате фонетических изменений в языке стали произноситься одинаково [Розенталь 1985; 45].

В русском языке слово *лук* (растение) и *лук* (оружие для стрельбы). Это два совершенно разных слова, совпавших по форме [Даль 1880; 345].

В узбекском языке слово *o‘t* (травя, огонь, желчь). Это три разных слова, совпавшие по звучанию [Узбекский толковый словарь 2006;210].

В английском языке слово *bat* (летучая мышь) и *bat* (бита для бейсбола). Эти слова имеют разное происхождение и не связаны по смыслу [Merriam-Webster Dictionary 2023;100].


Омонимы делятся на следующие типы полные, частичные, омофоны и гетеронимы.



Полные омонимы совпадают во всех грамматических формах.



Частичные омонимы совпадают не во всех грамматических формах.



Омофоны слова, которые звучат одинаково, но пишутся по-разному.



Гетеронимы слова, которые пишутся одинаково, но звучат по-разному.

Несмотря на принципиальные различия в своей природе, полисемия и омонимия обладают рядом общих черт, которые позволяют рассматривать их в рамках единого лингвистического исследования. Эти сходства проявляются на разных уровнях языковой системы и одинаково характерны для типологически разных языков, таких как русский, узбекский и английский.

Наиболее очевидным и фундаментальным сходством является формальное сходство лексических единиц. Как полисемичные слова, так и омонимы характеризуются одинаковой звуковой (фонетической) или графической (орфографической) формой [Реформатский 1967; 125]. Именно это совпадение создает потенциальную неоднозначность и требует дополнительного контекста для правильной интерпретации значения.

В русском языке полисемичное слово *звезда* (небесное тело, знаменитость, фигура) и омонимы *коса́* (инструмент) и *ко́са* (заплетенные волосы) демонстрируют идентичность звучания и написания.

В узбекском языке полисемичное слово *til* (язык как орган, язык как система общения) и омонимы *o't* (трава, огонь, желчь) имеют одну и ту же форму.

В английском языке полисемичное слово *bank* (финансовое учреждение, берег реки) и омонимы *bat* (летучая мышь, бита) совпадают по форме.

Это формальное совпадение является основой для обоих феноменов, делая их объектом изучения лексической омонимии в широком смысле [Апресян 1974; 55].

Контекстуальная разграниченность как для полисемичных слов, так и для омонимов играет решающую роль в устранении потенциальной неоднозначности и определении правильного значения [Лайонз 1977; 238].

Вне контекста различить значения многозначного слова или омонимов зачастую невозможно.

Рассмотрим русское слово *ключ* в художественной литературе, здесь указывается на “приспособление для открывания замка”. “Он вынул ключ и попробовал его, помазал салом; ключ вошел в замочную скважину, но замок не поддался...” (Ф.М. Достоевский “Преступление и наказание” 1866; Часть 2, глава 6, 204).

Во втором контексте мы можем увидеть, когда слово обозначает “источник воды” “Тут же, под горой, бил ключ; над ним, по обыкновению, была построена небольшая деревянная будка...” (И.С. Тургенев “Отцы и дети” 1862; Глава 14, 69), только контекст позволяет однозначно интерпретировать значение.

Аналогично, для русского слова *коса* из разных произведений в рассказе говорится как “инструмент для скашивания травы”, “Деревенский косарь, с высоко поднятой косой, шел по лугу...” (И.С.Тургенев “Бежин луг” 1852; 227).

А ещё, как “причёска”, “Наташа, с тоненькой косой, перекинутой через плечо, сидела у окна...” (Л. Н. Толстой “Война и мир” 1869; 239).

Для узбекского слова *уиз*, например, часто используется в значении “лицо” что видно в строке “*Eu yuzung gulbargiga oshuftau hayron sabo...*” в контексте описания “красоты”. (Alisher Navoiy “Sabai sayyor” XV)

В то же время, это слово используется для обозначения числа сто “*Otabekdan yuz so'm oldi*” (Abdulla Qodiriy “O'tgan kunlar” 1926), здесь также только контекст позволяет определить значение.

В английском языке, слово *bank* используется как “берег реки”, “*The Mole was adown the river bank, and he could not get out...*” (Kenneth Grahame “The Wind in the Willows” 1908; Chapter 1).

В то же время, это слово, которое означает “финансовое учреждение”, “*He had a position in a small local bank.*” (Theodore Dreiser “The Financier” 1912).

Для омонимов, как, например, слово *crane* “журавль”, “*The frog asked the crane to carry it across the river...*”, (Faire tale).

А в романе как “подъёмный кран”, “*The gigantic cranes were swinging their burdens...*” (George Orwell "1984" 1949).

Таким образом, способность языковой системы полагаться на окружающие слова и синтаксические структуры для устранения неоднозначности является общим свойством при работе как с полисемией, так и с омонимией [Кристал, 2008: 150].

В заключение можно сказать что, проведенный сравнительный анализ полисемии и омонимии в русском, узбекском и английском языках позволяет сделать ряд важных выводов относительно природы и функционирования этих фундаментальных явлений лексической семантики. Было установлено, что, несмотря на внешнее сходство в форме, полисемия и омонимия имеют принципиально разную этимологическую и семантическую основу.

Полисемия, как показало исследование, является результатом закономерного развития языка, отражая способность одного слова образовывать новые. Процесс демонстрирует гибкость и экономичность языковой системы, а омонимия, напротив, представляет собой случайное совпадение различных по происхождению и значению слов, возникающее в результате фонетических изменений, заимствований или словообразовательных процессов. Омонимы не имеют внутренней семантической связи, что требует от носителей языка и лингвистов четкого разграничения при анализе и использовании.

Литература

1. Апресян Ю. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. Москва: Наука -1974-сс 45-55.
2. Апресян Ю. Избранные труды. Том I. Интегральное описание языка и системная лексикография. Москва: Языки русской культуры -1995-С 11.2
3. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. Москва: Едиториал УРСС2004-С 312.
4. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. Том II. Москва: Типография М. О. Вольфа-1880-С 345.
5. Кристал Д. Кембриджская энциклопедия языка. Москва: Прогресс-2008-С 150.
6. Лайонз Ж. Введение в теоретическую лингвистику. Москва: Прогресс-197 – С 238.
7. Ожегов С. Словарь русского языка. Москва: Русский язык - 1990- С 289.
8. Реформатский А. Введение в языковедение. Москва: Просвещение -1967 – С 125.
9. Розенталь Д. Практическая стилистика русского языка. Москва: Высшая школа- 1985-С 45.
10. Узбекско-русский словарь. Ташкент: Главная редакция Узбекской советской энциклопедии -1988-С 98.
11. Узбекский толковый словарь. Ташкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти-2006-С 210.

12. Longman Dictionary of Contemporary English. Pearson Education Limited-2008-P 720. 13. Merriam-Webster's Collegiate Dictionary. Merriam-Webster Incorporated -2023-P 100.

SALOHIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Surayyo Shodiyeva Salohiddin qizi – Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Har bir ijodkor o‘z asaridagi muayyan g‘oyani qator obrazlarda, ularning xatti-harakati, intilishi, kishilarga, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlari orqali ifodalaydi. Boshqacha aytganda, asardagi har bir qahramonga alohida mas‘uliyat qo‘yilgan bo‘lib, muallif ular orqali muayyan maqsadni amalga oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, Salohiyning yusufnomanavislik an‘anasi ruhida yozilgan dostonida ham muallifning badiiy niyatiga mos tarzda bir qancha obrazlar qo‘llanilgan. Mazkur maqolada “Yusuf va Zulayxo” asarida ishtirok etgan obrazlar tahlili asl manbalar asosida tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Salohiy, “Yusuf va Zulayxo”, doston, obraz, badiiylik, poetika, an‘anaviylik, novatorlik.*

Annotation: *Every writer conveys a specific idea in their work through a series of characters, expressed via their actions, aspirations, and attitudes toward people, nature, and society. In other words, each character in a literary work carries a particular responsibility, and the author realizes certain objectives through them. From this perspective, the poem written by Salohiy in the traditional style of yusufnama authorship also features a range of characters that align with the author’s artistic intentions. This article presents an analysis of the characters featured in “Yusuf and Zulaykho” based on original sources.*

Keywords: *Salohiy, “Yusuf and Zulaykho”, epic, character, artistry, poetics, traditionalism, innovation*

Kirish. Salohiddin Salohiy ham 1753-yil “Yusuf va Zulayxo” nomli doston yozib yusufnomanavislik an‘anasini davom ettirgan shoirlardan biridir. Ijodkor ushbu dostonda ishtirok etgan qahramonlarning ma‘naviy qiyofasi va ichki kechinmalarini kuchli ruhiy tasvir asosida ifodalab, ularning individual xususiyatlariga ko‘proq diqqatini qaratadi. Bu esa Salohiyning obraz yaratishdagi o‘ziga xosligi va uslubini belgilaydi. Ijodkor ushbu asarida quyidagi obrazlarni qo‘llagan: Odam (a.s), Ya‘qub, Yusuf, Yusuf og‘a-inilari, Yusufning ammasi, Jabroil (a.s), Malik Taymus, kan‘onlik savdogar, Misr Azizi, Zulayxo, Misr xotinlari, ta‘birchi, Moliki Rayon, Rayon muqarrablari, kanizaklar, doya, tiftl (chaqaloq), zindon soqchilari, bo‘ri, mug‘anniy, novvoy.

Adabiyotlar tahlili. Salohiddin Salohiyning ikkinchi dostoni Sharq adabiyotida “Ahsan ul-qisas” deya ta‘riflangan mashhur qissalardan biri hisoblangan Yusuf alayhissalom to‘g‘risidagi “Yusuf va Zulayxo” asaridir. Dostonning uchta qo‘lyozma

nusxasi mavjud. Ularning 9691-I raqamli qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining asosiy fondida, 1922 hamda 2395-I raqamli qo‘lyozma nusxalari esa Tojikiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik bo‘limining qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada, asosan, tarixiylik, obyektivlik va ilmiylik tamoyillariga asoslanib, turli yondashuvlar va metodlar, jumladan, kuzatish, taqqoslash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, biografik, statistik, kontekstual va kompleks tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Dostonning bosh qahramonlaridan biri Ya‘qub obrazi asarning sujetini boshlab beruvchi protatip obrazdir. Ushbu obraz badiiy adabiyotda eng faol stilistik timsollardan biri bo‘lib, o‘z ijod mahsullarida undan ma‘lum badiiy g‘oyani ifodalashda foydalanmagan shoirlarni topish qiyin. Mana shunday ijodkorlar qatorida Salohiy ham Ya‘qub payg‘ambar va uning o‘g‘li Yusuf payg‘ambar hayotidan hikoya qiluvchi, ilohiy muhabbatni tarannum etuvchi o‘ziga xos dostonni yaratdi.

Payg‘ambarlar tarixiga nazar tashlasak, Ya‘qub payg‘ambar o‘g‘li Yusufning hajrida qiynalib yig‘layverganidan oxiri ko‘zlari ko‘r bo‘lib qoladi [3: 146-154]. Mumtoz adabiyotimizda Ya‘qub alayhissalomning ahvoli, qiyinchiliklari, ruhiy iztiroblari “Baytul hazan” (G‘am uyi) birikmasi orqali ifodalangan. Xuddi mana shu holni Salohiyning “Yusuf va Zulayxo” nomli dostonida ham uchratamiz. Ya‘qub alayhissalom asarda barcha axloqiy-ma‘naviy fazilatlari bilan ustun turuvchi, farzandlariga doimo to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi mehribon, adolatli ota qiyofasida tasvirlangan. Asarning asosiy sujeti ham ushbu obraz sifati bilan boshlangan: “Dar bayoni iftitohi in nusxai mutabarruk va osori nubuvvati hazrati Ya‘qub alayhissalom va paydo shudani hazrati Yusuf alayhissalom va tarjeh namudani padar hazrati Yusuf az barodaron” [5:32]. (Tarjimasi: Bu tabarruk nusxaning ochilishi va hazrati Ya‘qub alayhissalom osori nubuvvati va Yusuf alayhissalomning tug‘ilishi va hazrat Yusufning otasi aka-ukalaridan ustun qo‘yishi).

Dostonda Ya‘qub obrazi insonning fe‘l-atvorini uning gap-so‘zidan tezda anglab oluvchi tafakkuri keng, dono inson sifatida namoyon bo‘ladi. Buning birinchi isbotini biz uning o‘g‘illariga bo‘lgan munosabatidan bilishimiz mumkin. Ya‘qub payg‘ambar Yusufni boshqa farzandlaridan ayricha holda yaxshi ko‘radi va unga mehribonlik qiladi. O‘zini jannatdagi Tubo daraxtiga qiyoslab (yashil kiyim payg‘ambarlar, umuman, jannati insonlar kiyimi bo‘lgan. Shu bois ham muallif Ya‘qub payg‘ambarni yashil daraxt sifatida tavsiflaydi), shoxlari ko‘pligini (farzandlarini nazarda tutmoqda) va mana shu shoxlar ichida sarvqad bo‘lgan aziz farzandi – Yusuf nomini keltiradi. Unga Xudo komil bir farzand ato qilganini mamnuniyat bilan tilga oladi:

*Daraxte dosht Ya‘qubi dil ovar,
Chu Tube az saroyi o‘zada sar.
Libosi sabzi chun Xizrash ba bar dosht,
Chu shahdi zikri subhoni samar dosht.
Zi sofihoi osorash huvaydo,
Hazon ta‘m, dar kom tamanno,
Ba piri murshidi sohibkaromot,
Zi shox-u barg doda quti avqot.*

*Shudi on soliki dinro chu farzand,
Bad-o' shoxe ato kardi Xudovand.
Chu zad sarvi qadi Yusuf burun sar,
Baroyash dod shoxi tozavu tar [5:43].*

Ya'qub o'g'li, Yusufni, jon dildan yaxshi ko'rgani bir farzandini boshqa farzandlaridan ustun qo'yuvchi ayirmachilik emas, aksincha, ota bir ona boshqa farzandlarining Yusufga bo'lgan adovati, hasadini bilib, ular ukasiga bilib-bilmasdan, yoshliklariga borib, aziyat yetkazishidan qo'rqadi. Shuning uchun sofdil, beg'ubor Yusufga ularga qaraganda ko'proq g'amxo'rlik qiladi. Uning bunday mushohadasini Yusufning dastlabki tushini otasiga aytgan o'rinda kuzatishimiz mumkin. Unga ko'ra, Yusuf bir kuni tushida o'n bir yulduz, oy va quyosh unga sajda qilib turganini ko'radi va bu tushni otasiga aytib beradi. Otasi bu tush mohiyatidan uning iqboli porloqligini anglab, buni hech kimga aytmaslikni ta'kidlaydi. Chunki buni akalari eshitganda unga hasad qilib, yomonlik qilib qo'yishidan xavotirlanadi. Lekin mehribon ota baribir Yusufni bunday balolardan asrab qola olmaydi. Ushbu voqealarning bayoni quyidagi bobda keltirib o'tilgan: "Judo soxtani barodaron Yusuf alayhissallamro az piromuni iffati Ya'qub alayhissallam va pas az choh afkandani Yusuf alayhissalom" [5:100].

Ushbu bobda keltirilishicha, og'a-inilar otalarining Yusufga bo'lgan cheksiz muhabbatini ko'rib, hasad qiladilar va uni yo'q qilish choralarini izlay boshlashadi. Shu maqsadda otalarining oldiga kelib, undan Yusufni lola sayliga olib chiqishini so'raydilar. Ammo Ya'qub bunga rozi bo'lmaydi. Ular yalina-yalina oxiri otalarini ko'ndiradi va sahroga olib chiqib ketadilar. Akalari uni eski bir quduqqa tashlashib, shu yerda o'z ajali bilan o'ladi deb o'ylab uylariga ma'yus holda qaytishadi. Otalariga esa bo'ri yeb ketdi deb, nishona sifatida Yusufning qonga bo'yalgan ko'ylagini Ya'qubning qo'lga beradilar. Shu voqeadan so'ng Ya'qub va Yusufning hayotida og'ir kunlar boshlanadi. Asar voqealari shu voqeadan keyin avj olib ketadi.

Bunday adovatning, ya'ni aka-ular o'rtasidagi ziddiyatni hamda Ya'qub payg'ambarning o'g'illariga bo'lgan ikki xil munosabatini ba'zi olimlar quyidagicha izohlashadi: "Bunday keskin va ziddiyatli manzaralar tasviri orqali adib quyidagi axloqiy-ma'naviy saboqlarni ilgari suradi: ota-onalar o'z farzandlarini bir-biridan kamsitmagan holda birday sevmoqlari kerak. Farzandlar bir xil munosabatni sezgandagina bir-biriga mehr-u oqibatli, bir-birini hurmat qiladigan va suyardigan bo'lishadi. Shundagina otalar va bolalar muammosi ham, farzandlar o'rtasidagi hamjihatlik masalalari ham adolatli hal qilinadi" [10.121].

Ushbu fikrdan bilishimiz mumkinki, "Beayb – parvardigor" degandek, Ya'qub payg'ambar ham payg'ambarzodalardan bo'lishiga qaramasdan, farzandlariga bo'lgan munosabatida, balki, xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi ham mumkin. Bu esa o'zi va Yusufning hayotida ayanchli kunlarga sabab bo'lib qolganligi ehtimoldan xoli emas. Shoir ushbu qarama-qarshi holat orqali Ya'qubni bir tomondan, mehribon, dono, adolatli ota obrazi sifatida yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ba'zi ota-onalarga farzandlari tarbiyasida juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga chaqirayotgandek tuyuladi.

Dostondagi markaziy qahramon bu Yusuf bo'lib, u barcha voqealarni birlashtirib turuvchi obrazdir. Muallif ushbu obrazni xarakter darajasiga olib chiqqan. Bilamizki, asar

sujetida “katta yuk” tashuvchi shaxslargina xarakter darajasiga ko‘tariladi. Adabiyotshunos olim H.Umurov ta’kidlaganidek: “Agar obrazni yong‘oqqa qiyoslasak, xarakter (yunoncha karakter — xususiyat, belgi) shu yong‘oqning mag‘zidir. Chunki mag‘izda yong‘oqning mohiyati, tirikligi, zaruriyligi, joni jamuljamdir” [6:48]. Haqiqatan ham, Yusuf obrazi orqali shoir o‘zining maqsadi, orzusini ifodalashga harakat qilgan. Ushbu obraz ruhan tetik, ma’naviy pok, hayotga muhabbat ko‘zi bilan qarovchi, o‘z taqdirini o‘zi yaratuvchi komil insondir. Bir so‘z bilan aytdanda, Yusuf obrazi Salohiyning estetik ideali edi. Bu qay darajada amalga oshirilganligini Yusufning hayotiga bag‘ishlangan ushbu doston misolida ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Manbalarda keltirilishicha, Alloh taolo Yusuf alayhissalomga o‘n narsa karamot qilgan:

1. Husn berdi.
2. Chiroyli xulq.
3. Xatoni kechirish.
4. Tushga ta’bir berish.
5. Oqibat, andisha.
6. Payg‘ambarlik.
7. Podshohlik.
8. Shijoat.
9. Xushxo‘ylik.
10. Poklik [4:77].

Salohiy, avvalo, uning go‘zal chehrasi, ya’ni tashqi qiyofasini tasvirlaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Yusuf bashariyat tarixida eng go‘zal insondir. Uning bu go‘zalligi birgina husnida emas, balki ichki go‘zalligida ham mujassam bo‘lgan. Shoir Ya‘qubga Alloh ajoyib bir ne‘mat, Yusufni, ato etib (Tong vaslining fayzi unga (Ya‘qub)ga boqdi), uning hayotiga shodlik olib kelganini, uning mehri shu qadar kuchliki, hatto katta tosh (xarsang tosh) ham (qahrli yurak) pora-pora bo‘lib ketib, mehr chirog‘i hech o‘chmasligini, oy undan nur olib, butun dunyoga yorug‘lik tarqatishini betakror tashbeh orqali ifodalab o‘tadi. Shuningdek, shoir bayt oxirida u (Yusuf) noyob gavharning-da sadafi bo‘lib, mana shu qimmatbaho tosh uning (Ya‘qubning) boshiga sharaf tojligini quyidagi misralarda go‘zal tarzda bayon etadi:

*Ba har kas fayzi subhi vasl ro‘dod,
Guli umrash zi davlat rangu bo‘dod.
Nazar sozad agar bar sangi xora,
Shavad az tobi mehrash la‘l pora.
Zi mir‘oti yaqinash rangi azlol,
Baroyad hal shavad be sa‘y ashkol.
Charog‘i mehri o‘hargiz namirad,
Agar bar moh tobad nur girad.
Chu Yusuf gavhari neko‘ sadaf bud,
Sari Ya‘qubro toji sharaf bud [5:43].*

Tarjimasi:

Tong vaslining fayzi har kimga boqur,

*Davlatidan umr guli rang olur.
Nazar qilsa gar xarsang toshga,
Bo 'lur mehri taftidan la'l pora.
Jon ko 'zgusidan ziloldir rangi
Chiqib tayyor bo 'lur oson-u beshak.
Aning mehr chirog'i hech o'chmas,
Oyga yuzlansa, oy andin nur olgay.
Yusuf yaxshilig' sadafining gavharidir,
Ya'qub boshidagi sharaf tojidir.*

Ushbu baytlar orqali Ya'qub payg'ambar hayotida Yusufning o'rni qay darajada ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Shoir boshqa o'rinda esa Yusufni: “Barkamollik oyiday bir nur, halollik bo'stonining navniholi, millat gulzori debochasining guli”, — deb ta'riflaydi:

*Yake nure chu mohi barkamolash
Daromad az dari qasri xayolash...
Niholi navrasi bo'stoni xillat
Guli debochayi gulzori millat [5: 51-52].*

Dostonda Yusuf mehribon farzand, sadoqatli xizmatkor, muhabbatiga sodiq yor, ma'rifatli kishi, tush ta'birini biluvchi, adolatli shoh, sabr-qanoatli, dono, oqko'ngil, saxovatli, bir so'z bilan aytganda, komil inson sifatida tasvirlangan. Uning mehribon farzand ekanligi asarning barcha lavhasida, ayniqsa, so'nggi o'rinlarida yaqqol kuzatiladi. Yusuf otasidan ayrilganidan buyon qancha vaqt o'tgan bo'lmasin uni yodidan chiqarmaydi. Har bir aytgan gapini o'git sifatida qabul qiladi. Hattoki, ocharchilik davrida boshqa yurtdan yordam so'rab keluvchilar qatori Yusufning og'a-inilari kelganda ulardan otasining ahvolini bilib oladi. Ko'zlari ko'rmay qolganini eshitib, o'zining ko'ylagini berib yuboradi. Ya'qub ushbu ko'ylakni hididan kimga tegishli ekanligini bilib, uni ko'zlariga surtadi, natijada basir ko'zlari yana bu yorug' olamni ko'ra boshlaydi. Ushbu fikrimizning badiiy ifodasi quyidagi bobda keltirilgan: “Taslim kardani Maliki Misr toj-u taxti sarvariro ba hazrati Yusuf alayhissallam va xaloyiq az yumni qudumi o' az vartai g'am xalos yoftan va guli murod chindan” [5:196-198]. (Tarjimasi: Misr Maliki hukmronlik toj-u taxtini hazrati Yusuf alayhissalomga topshirgani va xaloyiq uning muborak qadamlari tufayli g'am-qayg'u girdobidan qutulgani va murod gulini terгани).

Uning sadoqatli xizmatkorligi esa shundan bilinadiki, Yusufni Misr Azizi sotib olgandan so'ng, unga xizmat qila boshlaydi. Zulayxo kundan kun avj olib borayotgan nafsoniy ishq tufayli unga birga hayot kechirishni taklif qilganda, Yusuf rozi bo'lmaydi. Negaki o'z xojasiga sotqinlik qilib, tavqi la'natga qolishni xohlamaydi. Bu orqali Yusufning o'z nafsiga qul bo'lmagan, ma'naviy pok insoniylik xususiyati namoyon bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, Yusuf payg'ambar tush ta'birini biluvchi ma'rifatli zot bo'lgan. Bu xususida professor Jabbor Eshonqulning “O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini” nomli monografiyasida shunday deyilgan: “Avvalo, shu narsani ta'kidlash lozimki, islomiy ta'birnomalarni Yusuf alayhissalomga nisbat berish an'anasi mavjud. Ya'ni barcha ta'birlar sharhini dastlab Yusuf payg'ambar ijod qilgan va shu asosda

ta'birilar sharhi tarqalgan deb qaraladi. Fikrimizning yorqin dalili sifatida o'tgan asr davomida toshbosma kitob holatida nashr qilingan "Ta'birnomayi Yusuf alayhissalom" deb nomlangan kitobni keltirish mumkin" [13.214].

Salohiyning "Yusuf va Zulayxo" dostonida ham Yusufni ta'birchi qiyofasida ko'rishimiz mumkin. Tush ko'rish epizodi asarning boshida, o'rtasida hamda oxirida namoyon bo'ladi. Dastavval, Yusuf bolalik chog'ida o'n bir yulduz, quyosh va oying unga sajda qilib turganini ko'radi. Bu tushning ro'yobini qirq yildan so'ng ko'radi. Ya'ni quyosh va oy ota-onasi, yulduzlar esa uning og'a-inilari bo'ladi. Haqiqatan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Yusuf podshoh bo'lganda akalari uning oldiga bosh egib, yordam so'rab borishadi. Ushbu tushni boshqacha talqin qilish ham mumkin. "Ta'birnomayi Yusuf alayhissalom" kitobida: "Har kim tushida oftobni ko'rsa, qiyomatda payg'ambarlar qatorida bo'lg'ay. Har kim tushida mohitobni ko'rsa, podshohlar qatorida bo'lg'ay" [11:7], – deyilgan. Bu tushning naqadar to'g'riligini vaqt ko'rsatdi: Yusuf payg'ambarlik va adolatli podshoh darajasiga yetishdi.

Dostonning o'rtasida ham tush epizodi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra Yusuf tuhmat bilan zindonga tushganda o'z sheriklarining tush ta'birini to'ppa-to'g'ri bayon qiladi. Ya'ni zamona iqlimi podshosining hukmiga ko'ra ikki mahram zindonga solingan edi:

Ba hukmi xusravi iqlimi davron

Du tan mahram ba jurme shud ba zindon [5:187].

Ular bir kuni tush ko'radi. Hazrati Yusuf alayhissalom ularning tush ta'birini aytib beradi. Buning evaziga esa ulardan qay biri ozod bo'lsa, uning nomini shoh huzuriga aytishini iltimos qiladi. Ammo shaytonning ishi-la ozod bo'lgan bir mahramning yodiga Yusuf umuman tushmaydi. Bu ham Yaratganning bir sinoati edi.

Yusufning yana bir tush ta'biri esa nafaqat o'z hayoti balki butun bir mamlakat taqdirini ham ijobiy tomonga o'zgartirib yuboradi. Unga ko'ra, kunlarning birida Misr mamlakatining shohi Malik Rayon tush ko'radi. Tushida har xil yetti semiz sigir va yetti yam-yashil boshoqni ko'radi. Ammo ming taassufki, yetti oriqliq sigir yetti semiz sigirni yiqitadi hamda qurigan yetti boshoq yetti yashil boshoqni chirmab, quritayotganini ko'radi. Shoh bu tushidan qo'rqib ketib "badaniga ruh qushi qayta kirdi", ya'ni uyg'onib ketdi:

Hayulo haft govi turfa farbeh,

Ba xubi har kadam az yak digar beh.

Pas az vay haft xo 'shayi toza-vu tar,

Kashid az kishtayi umedi o' sar.

Guzinaho noshuda mahsusi masrur,

Ba aksi in padid omad ba dastur.

Bixo 'rd on xushk xo 'sha, xo 'shayi tar,

Qavitanro zi po andoxt log'ar.

Ba andak lam 'ai mehri jahongard,

Zi qahti shud guli surx ruxash zard.

Zi bimi dahshati xobi garonash,

Daromad dar badan murg 'i ravonash [5:189].

Shoh ushbu tush ta'birini o'z ulamolaridan so'raydi, ammo birorta a'yoni mazkur tush bayonini bilmaydi. Shunda bir zamonlar Yusuf bilan birga zindonda yotgan a'yoning yodiga Yusuf tushadi. Shu vazir shohga Yusuf haqida bilganlarini aytib beradi. Allohning inoyati bilan Yusuf shohning tushini to'g'ri ta'bir qiladi va zindondan ozod bo'lib, barcha g'am-tashvishlar-u musibatlardan forig' bo'ladi.

Salohiyning ushbu dostonida Yusuf obrazi orqali komil insonning xususiyatlaridan biri hisoblangan adolatlik tamoyili ilgari surilgan. Shoir Yusuf timsolida adolatli shoh obrazini yaratdi. Ya'ni Yusuf Misr hukmdori Malik Rayonning tushini ta'bir qilgandan so'ng, shohning unga bo'lgan hurmati va e'tibori ortadi. Chunki u Malik Rayon xalqini o'z zehni va donoligi tufayli mushkul ahvoldan olib chiqib ketadi. U yetti yillik ocharchilik davrida mamlakatni adolat bilan boshqarib, xalqning barcha qiyinchiliklarini yengadi. Malik Rayon shu bois uni dastlab vazir, so'ng esa o'z xalqining hukmdori qilib tayinlaydi.

Salohiy Yusuf timsolidagi adolatli shoh obrazini o'z davri hukmdorlariga namuna sifatida ko'rsatmoqchi bo'ladi. Chunki o'sha davrda Buxoro xonligida toj-u taxt talashishlari oqibatida yurtning parokandalik botqog'iga botishi, shafqatsizlik, xalqlarni qirg'inbarot qilish, aholi boshiga turli soliqlarni solib, ularni chorasiz va ayanchli bir ahvolga keltirib qo'yish nihoyatda kuchaygan edi. Bizningcha, Salohiy ushbu dostoni orqali nafaqat o'z davri podshohlariga, qolaversa, xalqning boshiga turgan jamiki hukmdorlarga xuddi Yusufdek adolatni shior qilgan dono, oqil, sabr-qanoatli, mulohazali bir podshoh bo'lishi kerakligini uqturayotgandek. Zero, "Podshohlar Allohning yerdagi soyasidir". Shunday ekan hukmdori zukko, odil bo'lgan xalqning kelajagi farovon bo'lishi, shubhasiz.

Dostonning asosiy qahramonlaridan yana biri bu – Zulayxodir. Ma'lumki, sharq adabiyotida yaratilgan yusufnomalarning ilhom manbayi bo'lgan Qur'oni karimda Ya'qub va Yusuf payg'ambarlar haqida so'z boradi, lekin Unda Zulayxo nomi tilga olinmaydi. Ushbu obrazning yaratilishi haqida adabiyotshunos Usmon Qobilov shunday deydi: "Manba va adabiyotlarda bu obrazning paydo bo'lishi haqida turlicha qarashlar uchrasa-da, biroq ilk bora qaysi ijodkor yoki qaysi asar orqali kirib kelganligi aniq emas. Lekin bu obrazning qissachilikda paydo bo'lganligi "Yusufnoma"lar badiiyatining ulkan yutug'i deb qarash kerak, fikrimizcha. Bu holat qissa jozibadorligini ham, Yusuf obrazi maftunkorligini ham ta'min etgan kashfiyotlardan sanaladi va ayni obraz tufayli asar komil ishq dostoniga aylangan" [14:112].

Ayrim manbalarda esa Zulayxo Po'tifarning xotini bo'lgan degan fikrlar ham mavjud. Jumladan, matnshunos Dilnoza Jumayeva bu xususida shunday degan: "Ushbu obrazni Sharq adabiyoti namoyandalari o'z asarlariga kiritganlar. Xususan, ba'zi manbalarda Yusufga oshiq bo'lgan Po'tifarning xotini Zulayxo nomi bilan ushbu mavzudagi asarlarning markaziy qahramonlaridan biriga aylanishi buyuk fors-tojik shoiri Firdavsiy nomi bilan bog'liqdir deyiladi" [7:108].

Bizningcha ham, "Yusuf va Zulayxo" ruknidagi badiiy asarlarda Zulayxo obrazining to'qima obraz sifatida olib kirilishi ijodkorlarning muhim yaratilqlaridan biridir. Chunki ushbu obraz orqali bosh qahramon – Yusuf xarakterining turli qirralari ochib berilgan. Bu esa, albatta, asarning umumiy g'oyasini anglashda muhimdir. Yana

shuni qayd etib o'tish lozimki, ilohiy ishq tarannum etilgan bu kabi dostonlarda bir tomonlama ishq nojoizdir. Ya'ni "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun"da bo'lgani kabi ushbu dostonlarda ham ikkinchi tomonning bo'lishi asarning mukammalligini ta'minlab beradi. Ishq-muhabbat to'g'risidagi dostonlarning aksariyatida yigitning qizga ko'ngil qo'yishi kuzatiladi. Lekin Salohiyning "Yusuf va Zulayxo" dostoni yuqoridagi dostonlardan birmuncha farq qiladi. Negaki unda Yusuf komillik timsoli, Zulayxo esa unga talpinuvchi, unga yetishishga intiluvchi oshiq timsoli sifatida gavdalanadi. Adabiyotshunos Qobiljon Tohirovning bu boradagi qarashlari fikrimiz dalilidir: "Ushbu qissalarda ahvol bir muncha boshqacha. Bunda oshiqlik, ya'ni sevgida aktivlik xususiyati, asosan, Zulayxo obrazida ko'rinadi. Yusuf esa bu bobda passiv, u ta'bir joiz bo'lsa, ma'shuqa sifatida yoki sevgi obyekt sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, albatta, klassik adabiyotimizda shoirlarning deyarli hammalari o'z lirikalarida ma'shuqalarini Yusufga, o'zlarini Zulayxoga yoki Ya'qubga nisbat berganlar, mahbubaning go'zalligini chizar ekanlar, Yusuf obrazidan foydalanganlar" [12:174].

Go'zal Zulayxo mag'rib hukmdori Taymusning yakka-yu yagona qizi bo'lib, u dostonda o'zining go'zalligi, donoligi va tadbirkorligi bilan tanilgan malika sifatida tasvirlanadi.

*Zi fayzash jumla zarrinxoma gashtand,
Chu bargi gul munaqqash noma gashtand.
Ki har yak az kamoli nuktadoni,
Ki lafze vo namuda sad ma'oni.
Zamini shoiriro hasbu hole,
Nishonidand az har gul nihole [5: 72].*

Tarjimasi: *Uning fayzidan barcha zarrin qalam bo'ldilar. Gul bargi kabi naqshli noma bunyod bo'ldi. Nozik kalomidan har bir lafzida yuz ma'no namoyon bo'ldi. Shoirlar mahorati tufayli u (Zulayxo) har xil guldand nihol paydo bo'ldi. Ya'ni uning husni har xil gullardan bir chiroq olgan kabi ko'rkli edi.*

Zulayxo Yusufni, dastavval, tushida ko'rib, unga ko'ngil qo'yadi. Zulayxo Yusufni uch marotaba tushida ko'radi hamda uning nasl-nasabi va qayerdanligini so'raydi. Nihoyat uchinchi ko'rgan tushida Yusufning qayerdanligi ayon bo'ladi. "Dar xob didani Zulayxo jamoli Yusuf alayhissalamro daf' ai savum va tazarru' namudani Zulayxo va shafqat kardani Yusuf alayhissallam bar vay. Va nomi diyori xud guftan va humoi aqlki, oshyonai sar va makon soxtan va sababi huzuri dil va tasalli va jam'iyati xotiri o'gardidan" [5:66-69]. (Tarjimasi: Zulayxo Yusuf alayhissalomning jamolini uchinchi marotaba tushida ko'rganligi va Zulayxoning zorlanishi tufayli Yusuf alayhissallamning unga shafqat qilganligi hamda o'z diyori, joyini, aytgani hamda aql humosining boshga uy qurgani va yurak huzuri-yu tasalliysi hamda uning xotirjamligi sababi bo'lishi) deb nomlangan bobda yuqoridagi fikrimizning badiiy talqini aks ettirilgan. Xususan, quyidagi baytda Yusuf tilidan u haqidagi tafsilotlar bayon etilgan:

*Humoyi taxti izzat oshyonam,
Azizi Misram-u Misri makonam [5:68].*

Tarjimasi:

Baxtli izzat taxti oshyonim

Misr Aziziman-u, Misr makonim.

Zulayxo Yusuf haqida xabar topgan kundan boshlab, halovatini yo‘qotadi. Uning go‘zalligini eshitgan va ko‘rgan podshohlar sovchi qo‘yadi, lekin Zulayxoning ko‘ngli mudom Misr Azizida edi:

*Azizi Misr maqsudi dilat ast,
Tamannoyi umed hosilat ast [5:87].*

Shoh Taymus qizining holidan xabardor bo‘lib, Misr Aziziga maktub yo‘llaydi:

*Zulayxoro ba zaxmi mubtaloyi,
Kunad nosur bolini judoyi.
Namoyad az tajalliyot osor,
Azizi Misrro mushtoqi diydor [5:80].*

Shundan keyin Misr Azizidan Zulayxoga sovchilar kelishadi. Nihoyat, u sevganimga yetishdim deb xursand bo‘lib, Misr Azizi yurtiga ravona bo‘ladi:

*Zulayxo az Aziz omad baro ‘mand,
Ba Misri shodkomi raft xursand [5:88].*

Tarjimasi:

*Azizdan Zulayxoga omad keldi,
Misrga shod-u xursand jo ‘nadi.*

Ammo Zulayxo uni birinchi ko‘rganda orzusi sarob bo‘lganligini angelaydi va shu kundan boshlab Yusuf hajrida qiynala boshlaydi.

Salohiy Yusuf hamda Zulayxoning ishq i asosida ilohiy muhabbatni qalamga oladi. Ya’ni majoziy ishq orqali haqiqiy ishqni ko‘rsatib bergan. Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda:

*Bo ‘lub ma ‘shuqi asli chorasozing,
Haqiqatga badal bo ‘lg ‘ay majozing [1:250].*

Tasavvufda oshiq kishi o‘z maqsadiga yetishishda (haqiqiy ishqqa yetishishda) ko‘plab qiyinchiliklarga, sinovlarga duch keladi. Unga, avvalo, o‘zining nafsi to‘sqinlik qiladi. Shu tufayli hattoki Misr xotunlarining malomatiga ham sababchi bo‘ladi. Buning oqibatida Zulayxo o‘zining ahvolini barchaga tushuntirish uchun bir hiyla o‘ylab topadi. Unga ko‘ra, Zulayxo bir majlis tashkil etib, u yerga Misr ayollarini chaqiradi. Ularning qo‘liga apelsin berib, uni pichoq bilan artishlarini buyuradi. Shu payt Yusuf kirib keladi va barcha xotunlar Yusufning chiroyidan hayratda qolib, meva o‘rniga barmoqlarini kesib qo‘yadi:

*Chu diydand on zanoni fitna ohang,
Zi jo jastand hamchun otash az sang.
Ba har kaf bud hangomi nazzora,
Turunj k-az laki almos pora.
Chu on hayrat filhol joy bididand,
Nihoda nor angushton buridand.
Chu gashtand az sharobi husni o ‘ mast,
Kujo parvoyi eshon bud az dast [5:174].*

Bu voqeadan keyin ular Zulayxoning ahvolini tushunib, undan kechirim so‘raydilar va qilgan ishlaridan afsuslanishadi.

Zulayxo Yusufni bozorda ko'rganidan buyon uni o'ziga og'dirib olish rejasini tuzadi. Buning natijasida ko'p bema'ni ishlarni amalga oshiradi: Doyasining maslahati bilan hayosiz suratlar aks ettirilgan yetti xonali bino qurdirib, Yusufni u yerga olib kiradi. Ushbu bobda mana shu voqea tavsiflangan: "Bunyod nihodani on doyai besarmoyai on haft xonai dur, ki chun haft avrangi zamona ki ko'i ismati hazrati Yusuf alayhissallamro on xona sababi fasona dida, Zulayxo xijil gardida bud" [5:156-158]. (Tarjimasi: Doyaning ul yetti uylarni zamonning yetti avrangi [yetti taxti, yetti sayyorasi]ga o'xshash bino qilganikim, hazrat Yusuf alayhissallam poklik ko'chasi u uylarni afsonadek ko'rib, Zulayxoning xijil bo'lgani).

Niyati amalga oshmagandan so'ng, unga xayrixoh Misr xotinlari maslahati bilan Yusufga tuhmat qilib, zindonga soldiradi. Voqeaning shu joyigacha unga rahmon emas, shayton hamroh bo'ladi. Yusuf zindonga tushganidan so'ng esa Zulayxo uning jamolini ko'ra olmay, bundan-da ko'p g'amga botadi va qilgan ishidan pushaymon bo'ladi. Quyidagi bob bayoni orqali Zulayxoning ruhiy ahvolini bilib olishimiz mumkin: "G'alaba kardani ishqiy Yusuf Zulayxoro va pushaymon gardidan ba tariqi taassufi bar zindon raftan va az Yusuf alayhissalam uzr xostan" [5:184-186]. Tarjimasi: Yusufning ishqiy Zulayxoning ustidan g'alaba qilgani va uning zindonga tushishidan afsuslanib, pushaymon bo'lganligi va Yusuf alayhissalomdan uzr so'rganligi). Mana shu voqeadan boshlab Zulayxoning muhabbati ma'naviy kamolot bosqichiga ko'tarila boshlaydi. Buning birgina dalilini u sig'inadigan butlarni sindirib tashlab, islom diniga o'tishida ko'rishimiz mumkin. U Xudoga chin dildan iltijo qilib, haqiqiy ishqiga yetkazishni so'raydi. Bu yo'lda u ko'plab mashaqqatli kunlarni boshdan kechiradi. Oxiri g'am-alam uning alifdek qomatini dol qilib, kampir qiyofasiga solib qo'yadi. Yusuf Misr eliga podshoh bo'lgandan so'ng, o'z qavmi ahvolini bilish maqsadida ko'chalarni kezib yurgan paytda bir necha bor Zulayxo u bilan gaplashishga harakat qiladi. Shunday kunlarning birida u Yusufning oldiga chiqib, o'z ahvolini bayon etadi. Yusuf bu voqealarda o'zini ayblab, uning qanday tilagi bo'lsa, yordam berishini aytadi. Zulayxo undan o'z husnini qaytarib berishini so'raydi. Buni qarangi, Allohning inoyati ila unga o'n sakkiz yoshlik husni qaytariladi. Ushbu voqealarning barcha tafsiloti quyidagi bobda bayon qilingan: "Ba'd az ilhom yoftani Zulayxo az janobi Bori ta'olo va arza namudani ahvoli xud ba hazrati Yusuf alayhissalam ba sababi rastagori gashtan va qabul paziruftani hazrati Yusuf alayhissallam o'ro" [5:206-209]. (Tarjimasi: Zulayxoning Alloh taolo janobidan ilhomlanganidan so'ng najot topganligi sababli hazrat Yusuf alayhissalamga o'z ahvolini bayon qilgani va hazrat Yusuf alayhissallam uni qabul qilganligi).

Zulayxo o'z sevgisiga sadoqati bois, nihoyat, Yusufning qalbidan chuqur joy oladi, lekin Yusuf buni Zulayxoga birdan aytmaydi. Ruhil amin – Jabroilning: "Sizlarning nikohingiz samoda o'qildi, uni nikohingga qabul qil", degan so'zlari Zulayxo va Yusufning o'zaro munosabatlarida muhim burilish nuqtasini belgilaydi. Bu voqea ularning sevgisi va taqdirining bir-biriga bog'langanligini ko'rsatish bilan birga insoniy hissiyotlarning kuchini, taqdirning o'zgaruvchanligini ham bildiradi.

Zulayxoning majoziy ishqiy haqiqiy ishq darajasiga qanday yetganligini tadqiqotchi Dilnoza Jumayeva shunday ifodalaydi: "Tasavvuf ta'limotida insonning ma'naviy-ruhiy poklanishida ishq asosiy vosita hisoblanadi. Unda inson haqiqiy ishqqa erishgunicha bir

qancha bosqichlardan o‘tishi talab qilinadi. Zulayxo ham butun doston davomida ishqiy-ma’naviy kamolotning bosqichlaridan o‘tib boradi. Ushbu bosqichlar haqida Qobil Tohirov shunday deydi: “Birinchi bosqichda, u haqiqiy ma’naviy ishqdan uzoqda turgan, faqat hirsiy tuyg‘ular asiri bo‘lgan oshiq qiz sifatida gavdalanadi. Bu hol uning tuban ahvolga tushib qolishiga sabab bo‘ladi, u hammaning e’tiboridan qoladi, ta’na va malomat, masxara va kulgu obyektiga aylanadi.

Ikkinchi bosqichda, Zulayxo zohidga aylanadi, uning ishq reallik xususiyatlarini yo‘qotadi, o‘zi hayotdan chetlashadi.

Uchinchi bosqichda esa, u yana hayotga qaytadi, ikkinchi bora tug‘ilganday bo‘ladi. Endi uning ishq faqat hirsiy tuyg‘u yoki samoviy emas, balki hayotiy va yuksak ma’naviy tuyg‘uga aylanadi” [7:114].

Ma’lumki, Alisher Navoiy ham “Mahbub ul-qulub” asarida ishqning darajalarini ko‘rsatib avom ishq, xoslar ishq va pok muhabbat haqida ma’lumot beradi. Navoiy ishqning eng quyi darajasiga avom (oddiy odamlar) ishqini qo‘yadi. Navoiyshunos olim D.Salohiy ta’kidlagandek: “Ammo, ma’lumki, narvonning paski zinasiga oyoq qo‘ymay turib, eng yuqori zinasiga chiqib bo‘lmaydi. Dunyoviy ishq haqiqiy muhabbatga vosil bo‘lmoq uchun bir zinadir. Ammo, bu zinadan bir bor ko‘tarilgan oshiq yana qaytib uning pastki darajasiga tusha olmaydi” [9:15].

Shoir Yusufni komillik timsoli sifatida gavdalantirgan bo‘lsa, Zulayxo esa mana shu komillikka talpingan, haqiqiy ishqqa yetishganlar siymosida tasvirlangan.

Asarda yuqorida tilga olingan uch asosiy obrazdan tashqari bir nechta epizodik obrazlar ham mavjud bo‘lib, ular ham asarda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Abdug‘afur Rasulov ta’kidlagandek: “Har bir obraz o‘z shakl shamoyili, asardagi g‘oyaviy vazifasidan tashqari, xarakterning biror tomonini ochishga, yoritishga xizmat qiladi” [8:8]. Ushbu ikkinchi darajali obrazlar sabab bosh qahramonlarning qiyofasi, ruhiy olami yorqinroq aks etadi. Shunday obrazlardan biri Zulayxonning otasi shoh Taymusdir. Dastavval, u asarda Mag‘rib shohi ekanligi aytilib, qo‘shini Doro qo‘shiniga va savlati Iskandar savlatiga qiyoslangan. Davlatida hamisha baxt hukm surishi, qo‘lidagi adolat tig‘i zolimlarni jarohatlashi, olimlarni esa yuqoriga ko‘tarishi, martabasi Jamshid podshoh kabi balanddaligi hamda yuz g‘uncha ochilgan gulshani davlatida do‘stlar shod-u dushmanlar afgor holatda ekanligi aytib o‘tilgan:

*Ki dar Aqsoyi mag‘rib bud shohe,
Sikandar savlat-u Doro sipohe.
Chu Xurshedi falak Mag‘rib nizome,
Zi farri saltanat Mashriq maqome.
Varo nomash ba shohi bud Taymus,
Hamezad baxt-u davlat bar darash ko‘s.
Burida teg‘i dastash adli zolim,
Zi johil sarfarozi dosht olim.
Ba hashmat har kujo bar bast xirgoh,
Ba Jamshedi falak bar basta shud roh.
Ba daste teg‘i bodi gar guhar dosht,
Muhibbash shod-u a‘doyash hazar dosht.*

*Chu gulshan mardro sad g'uncha zar bud,
Vale naxli hayotash besamar bud [5:49].*

Salohiy, bejizga, Taymus shohni bunchalik ko'klarga ko'tarib maqtamagan. Bizningcha, "Qani endi barcha podshohlar Taymusdek bo'lsa", – degan maqsadda ushbu obrazni yaratgan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. U adolatli shoh bo'lishi bilan bir qatorda, farzandining baxtini o'ylovchi mehribon ota qiyofasida ham namoyon bo'ladi. Buning birgina namunasi Zulayxo ishq girdobiga tushib qolgandan so'ng, asl voqeaning tafsilotini bilib olgan shoh Misr Aziziga noma yo'llaydi. Noma qizi Zulayxonni nikohiga olish mazmunida bo'ladi (Ushbu baytni yuqorida keltirgan edik). Endi o'ylab ko'raylik, qaysi podshoh bir podshohga shu masalada iltimos qilib murojaat qiladi? Faqatgina qizining baxt-u saodatini o'ylovchi, mehribon otagina mana shunday ishga qodir.

Asarda yana bir odil shoh, adolatli hukmdor obrazi mavjud bo'lib, u Misr xalqining podshohi Malik Rayondir. U asarda, dastavval, Misr Azizi nomi bilan ataladi. Keyingi boblarda esa uning nomi Malik Rayon tarzida berilgan. Shu o'rinda kishida bir savol tug'iladi. Nega muallif uni ilk marotaba Misr Azizi deb atagan? Yusuf ham Zulayxonning tushiga kirgan paytda o'zini Misr Azizi deb tanishtirgan edi-ku. Muallif bu orqali hayotning "charxi dun"ligini ko'rsatmoqchi bo'ldimi? Yo'q, albatta, "Misr Azizi" tushunchasi "Misrning eng aziz kishisi" ma'nosini beradi. Malik Rayon o'sha davrda Misrni boshqarar edi va u Misr Azizi bo'lgan. Yusuf Zulayxonning tushiga kirib o'zini "Misr Azizi" deb tanishtirishi esa uning kelajagini ko'rsatgan. Haqiqatan, Malik Rayon o'limidan oldin Yusufning adolati, mehnatsevarligi, haqiqatgo'yiligi, saxovatpeshaligini ko'rib, uni yurtiga podshoh qilib tayinlaydi. Shu ondan boshlab u Misr Azizi maqomiga erishadi. Ushbu voqealar esa "Taslim kardani Maliki Misr toju taxti sarvariro ba hazrati Yusuf alayhissallam va xaloyiq az yumni qudumi o' az vartai g'am xalos yoftan va guli murod chindan" [5:196]. (Tarjimasi: Misr Maliki hukmronlik toj-u taxtini hazrati Yusuf alayhissalomga topshirgani va xaloyiq uning muborak qadamlari tufayli g'am-qayg'u girdobidan qutulgani va murod gulini terгани) deb nomlangan bobda keltirilgan.

Salohiy Yusufning Misr Azizi bo'lishida Malik Rayon obrazini bir vositachi sifatida tanlaydi va ushbu obrazga katta urg'u beradi. Qolaversa, Malik Rayon juda ham odil podshoh edi. Birinchidan, agar u adolatli bo'lmaganda bozorda sotilayotgan Yusufning og'irligiga teng qiymat bilan sotib olmas edi. O'zini mana shu yurtning hukmdori sifatida savdogar Molikdan tekinga yoki arzimasi narxda sotib olgan bo'lardi.

Dostonda yana bir badavlat inson obrazi keltirilganki, bu Molik (bu kishining ismini shoir bejizga "Molik" deb atamagan. "Molik" mulkli kishi degani, ya'ni molik va mulk so'zlarining o'zagi bir xil) ismli savdogardir. U asarning bor-yo'g'i ikki o'rnida ko'rinadi, xolos. Lekin shunday bo'lsa-da, u ham asarda muhim bir vazifani bajargan. Eng avvalo, shoir ushbu obrazni Yusufning quduqdan chiqib olishiga vositachi qilib tanlaydi. Qolaversa, Yusufning jamolini dunyo ahliga ko'rsatish uchun ijodkor uni aynan savdogar sifatida tanlaydi. Chunki u Yusufni bozorga olib borib sotadi. Yusufning husnini tomosha qilgan Misr ahli Allohning mo'jizasi oldida lol qoladi. Yusuf yuzining husnini bozor ahli tamoshosha qilib to'yishmaydi. U bozorda hammani o'ziga mahliyo qilib

qo'yadi. Barcha uni ko'rishga oshiqadi, lekin narxini so'rashga botina olmaydilar, chunki uning qiymatidan (sotib ololmasligidan) uyalib qolishdan qo'rqadilar:

*Chu Yusufro matoi husn ro' dod,
Guli bozori o' nash'u namo dod.
Zi diydorash aholi banda gashtand,
Zi qiymat dodanash sharmanda gashtand [5:115].*

Dostonda tiftl (chaqaloq) obrazi mavjud bo'lib, u ham asarda muhim vazifani bajaradi. Ya'ni Zulayxo ishratxonadan qochib chiqqan Yusufni quvgan paytda ular Misr Aziziga duch kelib qoladi. Shunda Zulayxo o'zini oqlash uchun Yusufni ayblab, unga bo'hton qilgan paytda qarindoshining bolasi bo'lgan chaqaloq yig'lab, uning gunohi yo'qligiga ishora qiladi. Buni qarangki, hali tilga kirmagan bola Allohning marhamati bilan gapirish qobiliyatiga ega bo'lib, Yusufning begunohligini bayon etadi:

*Zi shiri lutf-u hayyash yoft chun shahd,
Ishorat kard bo on tiftl dar mahd.
Azizash guft k-ey farzona oqil,
Mashav az bodayi taklif g'ofil...
Zi g'ayrat Yusufi mo'jiz tarona
Bad-on ko'dak ishorat kard chun mah.
Kushoda kard az lab qufli ovoz,
Daromad tiftl dar takmili, ey soz...
Zi lutfash gasht on Iso muallim,
Guvohi ismati Yusuf chu Maryam [5:169].*

Zulayxo Yusufning ortidan yugurib, kiyimini orqa tomonidan yirtib yuboradi. Tiftl esa aynan shunga ishora qilib, oldidan yirtilgan bo'lsa, Yusuf aybdorligini orqadan yirtilgan bo'lsa, Zulayxo aybdorligini aytadi. Bu esa Yusuf alayhissalomning begunoh ekanligini isbotlashda dalil bo'ladi. Ushbu epizod orqali muallif insonning boshiga turli bo'htonlar yog'ilgan paytda, kishi hech ham tushkunlikka tushmasligi, u to'g'ri bo'lsa, Alloh qay yo'l bilan bo'lmasin uning tomonida bo'lishini aytgandek go'yo.

Xulosa. Yuqorida tahlil qilingan obrazlar hamda ularning qirralarini yorituvchi ma'lum bir xususiyati majoziy ma'no kasb etadi. Ba'zi adabiyotlarda bular to'g'risida quyidagicha fikr bildirilgan: "Mualliflar Yusuf obrazini nafs-notiqa, ya'ni jilovlangan va orif odamlarning nafs timsoli sifatida ko'rsatishga erishadi. Dostondagi aksariyat talqinlar majoziy mohiyatga ega. Yusuf va Ya'qub payg'ambarning nafs – jonning moddiy tomonidir. Yusufning birodarlari sa'yi – harakatlari insondagi badaniy quvvatlar – ichki sezgilarning ramzidir. Xotin timsolida esa insonni istak va g'azabga tortadigan hislarning badiiy ifodasi berilgan. Zulayxonning Yusufga intilishi va unga sevgi – muhabbat izhor qilishi insonda istak – xohishning ma'naviy tomonidir. Yusufning xotindan o'zini olib qochishi va uning xohish – irodasiga ko'nmasligi aqlning o'z olamiga ustuvor turishi, hissiyot quli bo'lmasligining ramzidir. Yusufning vazirlik va taxtga o'tirishi, oliy kamolotga erishishi va o'sha kamolotga aql, sabr – toqat sabab bo'lganligini aniq tasvirlaydi" [2:40]. Dostondagi qolgan epizodik obrazlarning barchasi asar g'oyasini ochib berishda o'ziga xos vazifalarni bajargan. Ular orqali Salohiy o'z zamondoshlariga, qolaversa, butun insoniyatga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini bayon qilishga harakat qilgan.

Salohiyning ushbu dostonida sabr, muhabbat, adolat, ma'rifat, to'g'ri so'zlik yangicha yo'sinda bayon etilgan. Ya'ni shoir tomonidan keltirilgan asarning har bir bobidan keyingi munajatlar hamda sujet chizig'i poetik tasvirlarga boy qilib tasvirlanishi o'z dostonining yusufnoma ruknidagi asarlar orasida alohida ahamiyatga ega doston sifatida ajralib turishini ta'minlab bergan; Adabiyot ideali – komil inson ramzi Yusuf timsolida gavdalantirilgan ushbu asar umrboqiy asarlar qatoridan o'rin olib, necha ming yillar insonlarning ma'naviy dunyosini boyitish uchun xizmat qilishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Mansurova D. “Yusuf va Zulayxo” dostonida an'ana va o'ziga xoslik. – Samarqand: 2016. – 162 b.
1. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini. Tarjimon: Abdulaziz Mansur. www.ziyouz.com kutubxonasi. – 618 b.
3. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018. – 204 b.
4. Salohiy. Yusuf va Zulayxo. O'zRFA SHI Asosiy fond, qo'lyozma inv.9691. – B. 32.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
5. Жумаева Д. “Юсуф ва Зулайхо” туркумидаги дostonларнинг қиёсий-матний тадқиқи. Филол.фан.номз.дисс. – Т.: 2020. – 159 б.
6. Расулов А. Бадиийлик безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – 118 б.
7. Салохий Дилором. Мутафаккир ва мумтоз шеърят. II-китоб. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2018. – 212 б.
8. Сафарова Ҳ.А. Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф Сиддиқ алайҳис-салом” асари манбалари ва ғоявий-бадиий таҳлили. Фил. фан. номз дисс. – Самарқанд: 2001. – 153 б.
9. Таъбирномаи Юсуф алайҳиссалом / Ношир С.Ҳасанов. – Тошкент: Ўзбегим маскани, 1990. – 40 б.
10. Тоҳиров Қ. Туркман шоири Андалиб ва ўзбек адабиёти: лирикаси ва “Юсуф ва Зулайхо” дostonи // Филология фан. канд. дисс. – Самарқанд, 1964. – 182 б.
11. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Т.: Фан, 2011. – 304 б.
12. Қобилов У. “Юсуфнома” мавзуси ва унинг Алишер Навоий лирикасидаги бадиий талқинига доир // Алишер Навоий халқаро журнали. – Б. 112.

**XORIJIY SO‘ZLARNI MILLIYLASHTIRISHNING ME‘YORIY-
HUQUQIY ASOSLARI**

Xamrayev Fozilbek Yuldoshevich – Turon universiteti o‘qituvchisi, f.f.f.d
e-mail: Xamrayev-fozil@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining rivoji, milliyligi masalalariga e‘tibor berilib, turli davrlarda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan grafik, leksik muammolar hamda ularning yechimiga qaratilgan sa‘y-harakatlar yoritib berilgan. Shuningdek, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish borasidagi hukumat qarorlari va ularning ijrosini ta‘minlashga yo‘naltirilgan amaliy ishlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliylik, o‘z so‘zlar, o‘zlashma so‘zlar, tillar aralashuvi, yozuv, imlo, leksika, til islohoti, me‘yoriy hujjatlar*

**NORMATIVE DOCUMENTS ON ENHANCING THE INFLUENCE AND
NATIONALITY OF THE UZBEK LANGUAGE**

Annotation. *In this article, attention is paid to the development of the Uzbek language, issues of nationality, graphical and lexical problems that exist in the Uzbek language in different periods, and the efforts aimed at their solution are highlighted. Also, there was an opinion about the government's decisions on increasing the prestige of the Uzbek language as a state language and practical work aimed at ensuring their implementation.*

Key words: *nationality, own words, borrowed words, language mixing, writing, spelling, lexicon, language reform, normative documents.*

Bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir [1]. Tilshunos olim O.Shukurovning fikricha, til va milliy madaniyat uzviyligi, leksikada o‘zga til birliklari ulushini ehtiyoj darajasidan oshirmaslik, tilning sofligi kabi muammolar tilshunoslik vazifalarining umumiy mundarijasidan tushmasligi lozim. [2; 17]

O‘zbek tilining ravnaqi, uning milliyligini ta‘minlash borasidagi intilishlar o‘zining uzoq yillik tarixiga ega. Shunday harakatlarning tamal toshlari XI asr ijodkorlaridan M.Koshg‘ariy hamda XV asrda turkiy, xususan, o‘zbek millatini dunyoga tanitgan ulug‘ mutafakkir mir Alisher Navoiy kabi ulug‘ zotlarimiz asarlari orqali qo‘yilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy nafaqat o‘z davrida, balki o‘zidan keyin ham turkiy (o‘zbek) tilning nufuzini oshirish yo‘lida o‘zining ulkan salohiyatiga ega tilshunos olim sifatida qadrlanadi. U o‘zbek tilining o‘sha davrda maishiy til darajasida qolib ketayotganidan kuyinadi, chunki bu davrda forsiy til aksar turkiy tilli ijodkorlarni ham o‘ziga og‘dirib olgan edi. Bu haqda uning o‘zi shunday deydi: “...bu xalq orasidin paydo bo‘lg‘on ta‘b

ahli salohiyat va ta'blarin o'z tillari turg'och o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkala til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkala til bila teng aytsalar erdi". [3; 525]

Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning forsiy tildan ko'ra ko'proq imkoniyatga ega ekanini ishonchli ilmiy dalillar orqali isbotlay olgan bo'lsa, betakror g'azallari, dostonlari va nasriy asarlari bilan buni amalda ko'rsatib berdi.

Navoiydan keyin ham ko'plab shoir va yozuvchilar o'z ijod namunalari bilan o'zbek tilining boy imkoniyatlarini namoyon etib kelishgan bo'lsa-da, XX asr boshlarida yuz bergan kuchli siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar o'zbek tilini ko'p tomonlama isloh qilish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Bundan tashqari, rus bosqini natijasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek tiliga rus tilining ta'siri ham ortib borgan. Keng ko'lamdagi ruscha so'zlarning kirib kelishi ularni o'zlashtirish va tarjima qilish bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirgan. Masalan, o'sha davrlarda *samovar* so'zining ikki xil, *royal*, *bilet*, *uyezd* so'zlarining uch xil, *vagon* so'zining to'rt xil, *oblast* so'zining besh xil, *volost* so'zining olti xil shakli mavjud bo'lgan. [4; 128] Shuningdek, bir qancha ruscha so'zlarni ayrim tovush o'zgarishlari asosida o'zlashtirish bilan birga ularga milliy muqobil nom topishga ham harakat qilingan. Xususan, ruscha *poyezd* so'zi *payiz*, *payizd*, *poyizd* shakllarida o'zlashtirilgan, shu bilan birga, *o't araba*, *hukumat arabasi* kabi nomlar bilan ham yuritilgan. [5; 162, 165, 273]

Shu kabi imlo va leksikaga oid masalalarni hal etish maqsadi bilan 1919-yilda Toshkentda Fitrat boshchiligida "Chig'atoy gurungi" jamiyati tashkil etilgan. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan birinchi o'zbek tili va imlosi qurultoyi doirasida isloh qilingan o'zbek yozuvining qabul qilinishida ushbu jamiyatning hissasi katta bo'lgan. Chunki taqdim etilgan uch xil taklif orasidan aynan Fitrat va uning tarafdorlari ilgari surgan loyiha ko'pchilik ovozni qo'lga kiritgan va qabul qilingan. Fitratning taklifi shunday edi:

1. Imlomizni islohida harp [undosh] ila cho'zgi [unli] ayri-ayri yuritulsin.
2. Harplarimizning soni 23, cho'zgilar olti bo'lsin.
3. Yozuvlarimizning barchasi birgina shaklda (bosh harp bila yozilsunlar).
4. Tilimiz orasiga kirib qolg'on yot so'zlar o'z harplarimiz bilan yozilsunlar". [6;

18]

Ushbu islohot o'zbek tili imlo tizimining sezilarli darajada qulaylashuviga hissa qo'shgan bo'lsa-da, soha muammolariga to'la barham berolmadi. 1921-yillardayoq bo'y ko'rsata boshlagan lotin yozuvini qabul qilish haqidagi chaqiriqlar 1920-yillarning oxirlariga kelib o'zbek tilining yorqin kelajagini kafolatlovchi ustuvor maqsadga aylandi. Natijada 1929-yilning may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasi doirasida uchta asosiy masala – adabiy til, istiloh (termin) va imlo masalalari ko'rilib, 9 unli tizimiga ega bo'lgan (bunda singarmonizimli qishloq shevalarining xususiyati, shuningdek, o'zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan uyg'unligini ta'minlash zarurati hisobga olingan) lotin grafikasiga asoslangan imlo qoidalarining loyihasi tasdiqlanadi. [7; 54]

Bu paytda imlo sohasidan tashqari, o‘zbek adabiy tilining me‘zonlari, shuningdek, o‘zlashma so‘zlar (arabcha, forsha) va rus tili orqali faol kirib kelayotgan yangi olinmalarni milliylashtirish muammolari ma‘rifatparvarlarning diqqat markazida edi. Jumladan, Fitratning tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlari, Elbek (Mashriq Yunusov)ning o‘zlashma atamalarni milliylashtirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari ayni shu muammolarga qaratilgan edi.

Shuncha keng imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilining zamondan ortda qolayotgani, o‘zga tillar ta‘sirida o‘z nufuzini yo‘qotayotgani Fitratni qayg‘uga soladi. U chetdan umuman so‘z olmasdan o‘zbek tilini rivojlantirib bo‘lmashligini yaxshi tushunadi, shuning uchun yot so‘z va atamalarni imkon qadar o‘zbekchallashtirish kerakligini, faqat imkonsiz holatlardagina o‘zga til manbalaridan foydalanish kerakligini uqtiradi: “Turkchasi topilmagan so‘zlar va istilohlar bor esa, ularni chiqarib tashlab, o‘runlarini bo‘sh qo‘yayliq demayman. Turkchasi topilmagan so‘zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchani buyrug‘i ostinda kirib qolsun”. [8; 129]

Sho‘rolarning 70 yil davomida yuritgan rus tilini “yagona umumxalq tiliga” aylantirish siyosati bu imperiya tarkibidagi boshqa xalqlarning tillarini erkin rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Xususan, qadimiy yozuv madaniyatiga ega bo‘lgan o‘zbek tilining ilmiy, rasmiy uslublarining rivojiga to‘siq qo‘yildi. Fundamental tadqiqotlar rus tilida olib boriladigan, barcha turdagi boshqaruv va xo‘jalik idoralarning hujjatlari shu tilda yuritiladigan bo‘lib qoldi. Natijada o‘zbek tilining ilmiy va rasmiy uslubi nochor ahvolga tushdi. Ikki muhim uslubning “kasallanishi” butun bir milliy tilning bir maromda rivojlanishiga rahna soldi. [9; 37]

1989-yil 21-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili tog‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilining huquqiy manfaatlariga xizmat qiluvchi dadil qadamlardan biri bo‘ldi. Istiqoldan so‘ng 1995-yilda mazkur Qonun yangi tahrirda qabul qilindi va o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi imkoniyat va imtiyozlari yanada keng ko‘lam kasb etdi.

Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi uzoq yillar davomida rus tili orqali kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarga milliy muqobil topishga bo‘lgan intilishning kuchayishiga turtki bo‘ldi. 1989-yil 26-dekabrda o‘zbek tilining leksik tizimini tartibga solish, atamalar qo‘llanishini me‘yorga keltirish uchun “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirish Davlat dasturiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining farmoyishi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika atamashunoslik qo‘mitasi tuzildi. Shundan so‘ng, mustaqillik arafasi va mustaqillikdan keyingi bir necha yillar davomida ko‘plab xorijiy atamalar muvaffaqiyatli milliylashtirildi. Masalan, *xususiy lashtirish* (privatizatsiya), *tavsiyanoma* (xarakteristika), *buyurtma* (zayavka), *fuqaro* (grajdan), *jonlantirish* (reanimatsiya), *atama* (termin), *muallif* (avtor), *dastur* (programma), *so‘rovnoma* (anketa), *tirkama* (pritsep), *to‘von* (reparatsiya) va boshqalar.

Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tilining milliyligini ta‘minlash, shuningdek, dunyo miqyosidagi nufuzini oshirish yo‘lida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi, ularning ijrosini ta‘minlash maqsadida ko‘plab amaliy ishlar bajarildi.

Ayniqsa, 2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining e‘lon qilinishini til siyosatidagi katta voqealardan biri sifatida baholash mumkin. Mazkur farmon doirasida bir qator vazifalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamentini tashkil etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga ikki oy muddatda xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste‘molga kiritish bo‘yicha Atamalar komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida qaror qabul qilish; 2020-yil 1-iyunga qadar 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritish vazifalari belgilab berildi.

Shundan so‘ng mazkur farmonning ijrosini ta‘minlashga qaratilgan qator meyoriy hujjatlar qabul qilindi va amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi. Ularning asosiylari quyidagilar:

1) 2019-yil 12-dekabrda Vazirlar Mahkamasining “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilindi. Unda departamentning asosiy vazifalari ko‘rsatib berildi.

2) 2020-yil 29-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi tashkil etildi. Komissiyasi zimmasiga bir qancha vazifalar, jumladan, ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste‘molga kiritish; boshqa tillarning qoidalarini tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyor yetkazmagan holda tahrir qilish; o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo‘llashning huquqiy muammolarini o‘rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash; vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarga atamashunoslik masalalari bo‘yicha maslahatlar berish vazifalari yuklatildi. [10]

3) 2020-yil 11-martda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo‘shimcha 5 ta shtat birligidan iborat Sotsiolingvistika bo‘limini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullandi. Institutning sotsiolingvistika sohasidagi qo‘shimcha vazifalari, jumladan, o‘zbek tilining rivojlanishi bilan bog‘liq fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish va kengaytirish; o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish borasidagi ilmiy izlanishlarni kuchaytirish; o‘zbek tilining yozma matni meyor va qoidalarini ishlab chiqish vazifalari belgilab berildi. [11]

4) 2020-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon doirasida 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, davlat tilining

ustuvor yo‘nalishlar asosida rivojlantirilishi belgilab qo‘yildi: Unda, jumladan, ta‘lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish vazifalari ko‘zda tutildi. [12]

Mazkur qaror va farmonlarning ijrosini ta‘minlash yo‘lida keyingi yillarda tegishli tashkilotlar va tilshunos olimlar tomonidan qator yangi loyihalar amalga oshirilyapti. Xususan, o‘zbek tilshunoslari milliy til korpusini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishmoqda. Ilk bor lotin alifbosida 6 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nashr etildi, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “O‘zbek xalq so‘zlari”, “O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati”, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati”, “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek xalq paremalarining sinonimik izohli lug‘ati” kabi lug‘atlar chop etildi [13], shuningdek, tilshunos O.Shukurov o‘zining “Mustaqillik davri o‘zlashmalarining qisqacha izohli lug‘ati” [14]ni nashr ettirdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘tgan asrning boshlarida o‘zbek tilining milliyligi, sofligi uchun kurashgan ma‘rifatparvarlarning ko‘zlagan maqsadlari mustabid tuzum tazyiqi tufayli amalga oshmay qoldi va deyarli mustaqillikkacha o‘zbek tilining taqdiri o‘zga qo‘llar nazoratida bo‘ldi. Mustaqillikdan so‘ng hukumat tomonidan tilga doir ko‘plab qarorlar qabul qilindi. Ayniqsa, oxirgi 4-5 yil ichida davlat tiliga qaratilgan e‘tibor ko‘lami yanada kengaydi. Lekin bir narsa ayonki, til bilan bog‘liq muamolarni hal etishda faqat qonunning kuchi yetarli emas. Keyingi yillarda globallashtirish jarayonining natijasi o‘laroq o‘zga tillar (rus, ingliz)larning o‘zbek tiliga ta‘siri tobora oshib borayotgani, buning belgilari ommaviy axborot vositalari (internet platformalari) tilida, shuningdek, yoshlar nutqida yaqqol bo‘y ko‘rsatayotgani hech kimga sir emas. Bu esa o‘z ona tilining taqdiri, kelajagiga befarq bo‘lmagan insonlar, xususan, tilshunoslar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // www.lex.uz
2. Шукуров О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография. – Қарши: Интеллект, 2022. – Б. 17.
3. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Фафур Гулом, 2011. – Б. 525.
4. Ҳожиёв А. ва бошқалар. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: 1981. – Б. 128.

5. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 162, 165, 273.

6. 1921-йил январда бўлгон биринчи Ўлка ўзбек тили ва имло курултойининг чиқаргон қарорлари. – Тошкент: Туркистон Жумҳуриятининг давлат нашриёти, 1922. – Б. 18

7. Жамолхонов Ҳ., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Тошкент: 2007, – Б. 54.

8. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: 2006, – Б. 129.

9. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдли. III жилд. Тилшуносликнинг назарий ва амалий муаммолари бўйича танланган мақолалар. – Тошкент: Академнашр. 2012. – Б. 37.

10. Вазирлар Маҳкамасининг 2020-йил 29-январдаги 40-сон “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузурида Атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил этиш чора тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // www.lex.uz

11. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 11 мартдаги 139-сон “Ўзбек тили ва адабиёти бўйича фундаментал ва амалий тадқиқотлар самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // www.lex.uz

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. // www.lex.uz

13. <https://yuz.uz/uz/news/lugatlar--tilimiz-xazinasining-bebaho-gavharlaridir--->

14. Shukurov O. Mustaqillik davri o‘zlashmalarining qisqacha izohli lug‘ati. – Qarshi: Intellect, 2022.

MILLATLARARO BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich – Zarmed Universiteti (Samarqand kampusi),
“Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsenti falsafa fanlari doktori
(DSc).

xolikovyunus88@gmail.com **Tel: (+998 93) 997-64-42**

Annotasiya: *Maqolada millat vakillarining bir mamlakatda tinch-totuv yashashlari, umuminsoniy bag'rikenglik tamoyillarini rivojlantirishga intilishlari yangi asrga xos xususiyatlari falsafiy asoslangan. Biroq, madaniyatning notekis rivojlanish qonuniyatiga ko'ra ayrim jamiyatlarda madaniyat omili yetarlicha namoyon bo'lmayotganligi tufayli ularda mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi turli destruktiv harakatlar vujudga kelib, bu boshqa xalqlar va davlatlarning barqarorligi hamda taraqqiyotiga ham ta'sirlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *postmodern millatlararo totuvlik, tahdid, ma'naviy-axloqiy tarbiya, bag'rikenglik, ong, ijtimoiy-tarixiy, sivilizasiya, millatlar, xalqlar, ma'naviy meros, aql-zakovat, tafakkur, deklarasiya, din, axloqiy madaniyat, mehr-muhabbat, ta'lim, madaniyat, ilm-fan.*

Аннотация: *В статье мирное проживание представителей нации в одной стране, стремление выработать принципы всеобщей толерантности философски обосновываются особенностями нового века. Однако, по закону неравномерного развития культуры, в связи с тем, что в одних обществах культурный фактор проявляется недостаточно, в них возникали различные деструктивные действия против существующей политической власти, и их воздействие на устойчивость и развитие других нации и государства также были проанализированы.*

Ключевые слова: *постмодернистское межнациональное согласие, угроза, духовно-нравственное воспитание, толерантность, сознание, социально-историческое, цивилизация, нации, народы, духовное наследие, интеллект, мышление, декларация, религия, нравственная культура, привязанность, воспитание, культура, наука.*

Annotation: *In the article, the peaceful living of the representatives of the nation in one country, the striving to develop the principles of universal tolerance, are philosophically based on the characteristics of the new century. However, according to the law of uneven development of culture, due to the fact that the culture factor is not sufficiently manifested in some societies, various destructive actions against the existing political power arose in them, and their effects on the stability and development of other nations and states were also analyzed.*

Key words: *postmodern interethnic harmony, threat, spiritual and moral education, tolerance, consciousness, socio-historical, civilization, nations, peoples, spiritual heritage, intelligence, thinking, declaration, religion, moral culture, love, education, culture, science.*

KIRISH.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyati postmodern jamiyatning kirish nuqtasi va qo'shilish nuqtasini qanday to'g'ri tushunish kerak; Millatlararo bag'rikenglik ma'naviy sivilizatsiya qurilishiga xizmat qilish uchun millatlararo bag'rikenglikning ijobiy omillardan qanday to'liq foydalanish; ayniqsa, axloq sohasida, bag'rikenglikning axloqiy va mafkuraviy tizimdan faol foydalanish. Ijtimoiy sivilizatsiya taraqqiyoti uchun qulay bo'lgan me'yorlardagi tarkibiy qismlar hozirgi Yangi O'zbekiston jamiyatining axloqiy qurilishiga va hatto butun ma'naviy sivilizatsiya qurilishiga xizmat qiladi va yangi asrda millatlararo bag'rikenglik madaniyati integratsiya va tinchlikning asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Millatlararo madaniyat va bag'rikenglikni rivojlantirishning axloqiy va falsafiy ildizlarini mustaqillik yillarida respublikamiz olimlaridan G'.Mirzayev, I.Saifnazarov, N.B.Abdullayeva, E.Qodirov, A.Ochildiyev, R.H.Murtazayeva, O.P.Musayev, C.H.Yusupova, A.Hasanov, B.R.Karimov, S.Karimov I.Karimov, E.Karimova, T.Maxmudov, A.S.Ochildiyev, S.O.Otamuratov, V.Qo'chqorov, Z.R.Qodirova, U.Saidov, J.To'lanov, X.X.Xonazarov, Z.Xusniddinov, X.Yunusova, E.Yu.Yusupovalar o'rganishgan. Bu jarayonda millatlararo munosabatlarning teng huquqlilik, o'zaro hurmat, do'stlik va hamkorlikka asoslangan zamonaviy tendensiyalarning o'rnatilishi natijasida qo'yilgan maqsad sari intilish mumkin ekanligini ochgan. D.Lokk, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza. "Bag'rikenglik to'g'risida"gi risolasida amerikalik tadqiqotchi D.Truman yozganidek, jamiyatni tanazzuldan, saqlab qolish va barqarorlikni saqlab turish bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo'lib bag'rikenglik bilan bog'liqligini yoritib bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada Yangi O'zbekistonda millatlararo bag'rikenglik madaniyatini rivajlantirish yo'llari muhokama qilinadi. Yangi O'zbekistonda «millatlararo madaniyat», «bag'rikenglik madaniyati» kategoriyalariga oid falsafiy qarashlarini o'rganish, ularining falsafiy va axloqiy tafovutlari, o'xshashlik va farq mazmunini o'rganish hamda o'zaro bog'liqligi tahlili qilindi. Millatlararo madaniyatni yuksaltirishning dunyoviy va diniy ko'rinishlarini nazariy-falsafiy mohiyati o'rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Millatlararo bag'rikenglik madaniyatni o'rganish nafaqat muhim amaliy ahamiyatga ega, balki keng qamrovli tarixiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, tobora kengayib borayotgan ma'naviy inqirozga duchor bo'lgan dunyo odamlari uchun bu keng qamrovli jahon ahamiyatiga ega. Ushbu muhim mavzu ko'plab aql-idrok egalarining ishtirokini talab qiladi.

Mazkur tizim davrida ro'y bergan, amalga oshirilgan pozitiv o'zgarishlar esa xalqlarning, millatlarning, shu jumladan, O'zbekiston xalqi va o'zbek millatining ham

yaratib, innovasiyaga, integrasiyaga intilib yashashga bo'lgan sa'y-harakatlarning, intilishlarning qonuniy natijasidir" [3 – B. 86.].

Bugungi integratsiyalashgan bir davrda insoniyat jiddiy va favqulodda axloqiy inqirozga uchradi. Odamlar insoniy axloqiy mushkulliklardan xalos bo'lish va insoniy ma'naviy xastaliklarni davolashning samarali yo'llarini izlash uchun inson donoligining kristallanishi bo'lmish asosiy diniy madaniyatga asoslangan millatlararo bag'rikenglik madaniyatiga e'tibor qaratdilar.

Glaballashuvning tasiri natijasida insoniyat doimiy ravishda kengayib borayotgan ma'naviy inqirozga yuz tutmoqda. Odamlar o'rtasida, odamlar va tabiat o'rtasida, odamlar va jamiyat o'rtasida, mamlakatlar o'rtasida, millatlar o'rtasida va hatto dinlar o'rtasida, bo'shliqlar, begonalashish, qarama-qarshiliklar, to'qnashuvlar va hatto urushlar paydo bo'ldiki, ularni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi va ba'zi joylarda millatlar o'rtasida nizolar darajaga yetdi. Qashshoqlik, kasallik, ocharchilik, ofat, talon-taroj, urush va qon to'kishlar butun XX-asr davomida insoniyat jamiyatiga hamisha hamroh bo'lib kelgan va ular XXI asr bo'sag'asiga qadam qo'yish uchun insoniyat izidan yaqindan ergashmoqda. Yangi asr tongi insoniyat ma'naviy inqirozining quyuk qora bulutlarini tarqatib yuborgani yo'q, aksincha, terror xurujlari, millatlar o'rtasidagi nizolar avj olgan, urush soyasi... hali ham mavjud emas, balki kuchayib, kuchayib, zarba berib boryapti.

O'zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti I.A.Karimovning: "O'zbek xalqi ruhining tiklanganligi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xosligini yo'qotmagan holda, umuminsoniy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltiradi" [2 – B. 129.], - degan fikrlari O'zbekiston xalqlari hayotida o'z ifodasini topmoqda.

Dinlar o'rtasidagi qiyoslash va muloqot juda muhimdir. Muloqotsiz muloqot va tushunish bo'lishi mumkin emas, o'zaro tushunmovchilik va istisnolar paydo bo'ladi. Ammo bunday qiyoslash va muloqotlar, albatta, turli dinlarning afzalliklari va kamchiliklari haqida bahslashishdan maqsad emas, aksincha, biz dunyo fuqarolari cho'qqisida turishimiz va o'ta muhim bo'lgan turli dinlardagi barcha ijobiy omillarni o'zlashtirishimiz kerak. Ma'naviy sohamizni boyitish, takomillashtirish va yuksaltirish uchun butun insoniyat tomonidan yaratilgan sivilizatsiya yutuqlari. Ijtimoiy tarix, madaniy an'analar, siyosiy tizimlar, geografik muhitdagi farqlar tufayli turli etnik guruhlarning dinlari ham turli uslublarga ega bo'lishi kerak. Mana shu farqlar tufayli ular insoniyat ma'naviy madaniyatining boyligi va ulug'vorligini ko'rsatadi; Bu farqlar taqqoslash va dialogni zaruratga aylantiring. Biz insonlar birligi cho'qqisida, qadrlash, tushunish va hamkorlik qilish ongi bilan turishimiz, boshqalardan o'rganishimiz va ulardan foydalanishimiz uchun "dunyoning barcha mamlakatlarida ma'naviy qurilishning muvaffaqiyatli tajribasini faol o'rganishimiz kerak. Dunyodagi yirik sivilizatsiyalar, jumladan, asosiy dinlardan ham ko'p narsalarni o'rganishimiz mumkin. Madaniylashuv sivilizasiyaning yuqori darajasi bo'lib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan madaniyat yodgorliklarini ko'z qorachig'iday saqlash, din, diniy munosabatlarga hurmat-ehtirom, qadriyatlar, urf-odatlarini yanada boyitib borish kabilar vorislik asosida yoshlar

ongiga yetib boradi. Natijada sivilizasiyaning mazmun-mohiyati shu xalqning moddiy va ma'naviy boy jihatlarini ifodalab beradi. Qaysi mamlakatda sivilizasiya keng rivojlangan bo'lsa, u jahon miqyosida eng mukammal rivojlangan mamlakat hisoblanadi[4 – B. 57.].

Globalashuv davri va integratsiya davri kechyotgan bugungi kunda “madaniyat” va “an'ana” masalalari yana bir bor butun dunyo olimlarining e'tiborini tortdi. Umuman olganda, "madaniyat" deb ataladigan narsaning o'zi "an'ana" bilan bog'liq va XXI asrning madaniy strategiyasi tarixiy madaniy an'analarning ijodiy zamonaviy talqinini amalga oshirishi kerak, ya'ni har xil turli xil ajoyib an'anaviy an'analarni to'plash kerak. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, agar biror xalq jahon xalqlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishni istasa, o'z an'anaviy madaniyatini inkor eta olmaydi va yo'q qila olmaydi. Jahon tarixi odamlarga inson irodasiga bog'liq bo'lmagan madaniy harakat qonunini tobora ko'proq ochib bermoqda. Turli millatlarning bir-biriga zid bo'lgan sivilizatsiyalari faqat bir-biri bilan qo'shib ketishi mumkin. Yer yuzida vahshiy genotsiddan tashqari, ular shunchaki bir sivilizatsiya bilan almashtiriladi. An'anaviy madaniyatning o'zi ham organik tabiiy ekologik tizimdir. U millatlararo bag'rikenglik erkin tanlov, erkin muloqot va tabiiy evolyutsiya qonuniga amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida shunday deyiladi: “O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'alariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir” [1 – B. 54.]. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda millatlararo madaniyatni rivajlantirish asosida butun mamlakatda, qolayevrsa, butun dunyoda tinchlik va hamkorlikni o'rnatishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xalqning o'zining tug'ma an'anaviy madaniyatini uzib qo'yishi yoki undan voz kechishi bundan ham mumkin emas. Alohida shaxs hohlaydimi yoki yo'qmi, u o'z shaxsiy taqdirini millatning madaniy an'analari bilan bog'lashi kerak. Shu bilan birga, an'anaviy madaniyati zabt etilgan yoki kastratsiya qilingan xalq o'z poydevorini yo'qotish bilan barobar bo'ladi. XXI asrdagi jahon madaniy harakatining umumiy tendentsiyasi “turli-xillik bilan birga yashash va o'zaro integratsiya” bo'lib, uni hech qanday kuch to'xtatib bo'lmaydi.

Ijtimoiy dunyoqarash nuqtai nazaridan, Yangi O'zbekistonning asosiy g'oyasi millatlararo bag'rikenglik madaniyatini yoki diniy bag'rikenglik inson hayotini tartibga solivchi o'zini o'zi tashkil etuvchi va o'z-o'zini anglashni optimal avtomatlashtirish tizimini qurishdir. Bu o'z navbatida rahm-shafqat odamlarni mehribon bo'lishga undaydi va bu yangi integratsiyalashgan millatlararo muloqatga asoslangan jamiyatdir. Millatlararo bag'rikenglik madaniyati nuqtai nazaridan muloqat tabiiy jarayonga asoslangan ijtimoiy modelni yoqlaydi.

Markaziy Osiyo zaminidagi Zardushtiylilik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ilgari surilgan “ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikr” an'anaviy axloqiy konsepsiyalar tomonidan ham targ'ib qilinadi. Bu jumla orqali biz unda aks etgan yaxshilik,

bag'rikenglik, millatlararo totuvlik an'anaviy axloqiy tushunchalar va xulq-atvorda ekanligini ko'rishimiz mumkin. "Zardo'sht pokiza axloqi, amalda sobitqadim, hayotda faol, kurashchan, ijodiy mehnat sohibi dindorni – insonni sharaflaydi; uning faoliyati, tafakkur ne'matiga ishonadi, ilm va axloqni inson hayotidagi mayoq"[5 – B. 41.] deydi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida millatlararo madaniyat va bag'rikenglikning ma'naviy jihatlari e'tibor berish, ijtimoiy unumdorlikni yaxshilash demokratiyaning muhim belgisidir. Millatlararo madaniyat va axloq hayotiy saboqlarda doimo oldinda turadi va Markaziy Osiyoning qimmatli ma'naviy madaniy merosi sanaladi. Qadimdan diyorimizda odamlar axloq va o'z-o'zini tarbiyalashni targ'ib qilganlar, axloqni o'z xatti-harakatlarini o'lchash va tartibga solish uchun mezon sifatida ishlatganlar. Millatlararo madaniyat axloqiy tarbiya jarayonida oilada ota-onalar tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Millatlararo madaniyat an'anaviy o'zbek madaniyatining eng muhim qismidir. Bugungi jamiyatda biz qurayotgan millatlararo madaniyatning axloqiy muhitini an'anaviy axloq va axloqni targ'ib qilishdan ajratib bo'lmaydi, chunki uni uch ming yil davomida o'zbek xalqi sivilizasiyasidan ajratib bo'lmaydi. O'tmishdagi yagona, barqaror va yopiq muhitdan farqli o'laroq, bugungi jamiyatning ochiqligi bizni millatlararo madaniyatli muhitga olib keldi. Madaniyatning xilma-xilligi insoniyatning asl monistik qadriyati va madaniy gegemonligiga qarshi kurashadi va subyekt erkinligi va shaxslarning tanlovini hurmat qiladi, shuning uchun barqaror qadriyatlar tizimi va odamlarning xatti-harakatlari tobora xilma-xil, diskret va ziddiyatli bo'lib qoldi. Zamonaviy globallashtirish bilan axborotlashtirishning uzluksiz jadallashishi va jamiyatimizning zamonaviy o'zgarishlarining chuqurlashishi bilan an'anaviy jamiyatning qadriyatlar tizimi va shaxslarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida qadimdan o'ziga xos va shu hududga mos axloqiy konsepsiyalar shakllanib kelgan. Ulardan har bir davrda ajdodlarimiz o'zlarining ilmiy, madaniy, axloqiy qarashlari rivojida foylanishgan. Biz ularning ijobiy yutuqlaridan samarali foydalangan holda Yangi O'zbekistonning istiqboli yo'lida birlashib, aniq maqsadlar sari intilishimiz, yosh avlodning ongida milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: 3-jild, O'zbekiston, 2019. –B. 54.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.6-jild-T.: «O'zbekiston», 1998.-129-bet.
3. Musayev Odil Raxmatovich. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari. Falsafa fanlari bo'yicha doktorlik (DsC) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Toshkent-2017. – B. 86.
4. Maqsuda Xajiyeva O'zbekistonda tolerantlikning rivojlanish jarayonlari toshkent – 2008. B. 57
5. Homidiy H. Avestodan Shohnomagacha. –Toshkent: Sharq, 2007. -B. 41.

6. Ortiqovich X. Y. Globallashuv davrida barqaror taraqqiyotni ta'minlashda bag 'rikenglikning o 'rni //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – С. 724-726.

7. Kholikov Y. O. Педагогические науки //Вестник магистратуры. – 2022. – С. 102.

DEVELOPMENT OF NATIONAL CULTURE IN THE CONTEXT OF MODERNIZATION OF SOCIETY

Melikova Martaba Numonovna – Samarkand State Institute of Foreign Languages, Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor, Head of the Department of Humanities and Information Technology

E-mail: martabamelikova@gmail.com

Ulugova Aziza Erkinovna – Senior Lecturer, School of Finance National Research University Higher School of Economics Russia

Annotation. *The article examines the impact of modernization processes on the development of national culture. The key challenges and prospects for preserving cultural identity in the context of technological and social progress are analyzed. Special attention is paid to the strategy of adaptation of national traditions to modern conditions and the interaction of global and local cultural trends.*

Keywords: *national culture, modernization, traditions, globalization, cultural identity, social development.*

Annotatsiya. *Maqolada modernizatsiya jarayonlarining milliy madaniyat rivojiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Texnologik va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida madaniy o'ziga xoslikni saqlashning asosiy muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Milliy an'analarni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish, jahon va mahalliy madaniy yo'nalishlarning o'zaro ta'siri strategiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.*

Таянч сўзлар: *milliy madaniyat, modernizatsiya, an'analar, globallashuv, madaniy o'ziga xoslik, ijtimoiy taraqqiyot.*

In the context of globalization and rapid socio-economic changes, the problem of the development of national culture is of particular importance. National culture not only reflects the identity of the people, but is also an important factor in its cohesion, stability and identity in the modern world. In the era of modernization of society, when traditional values face new challenges, there is a need to comprehend the mechanisms of their preservation and transformation.

Modernization affects various spheres of life, including education, science, art and the spiritual sphere, which inevitably affects the cultural development of the nation. One of the key issues is finding a balance between the preservation of cultural traditions and the introduction of innovations. At the same time, it is important to take into account that modernization processes can both contribute to the development of national culture and pose a threat to its authenticity.

National culture in the process of modernization undergoes significant changes under the influence of digital technologies, global communications and changes in social values. The introduction of new technologies contributes to the spread of cultural products, but can also lead to the loss of unique national features [1]. In this context, a special role is played by the state cultural policy aimed at supporting national art, language and traditional values.

In addition, modernization inevitably raises questions of interaction between national culture and global culture. New cultural forms are emerging, based on the synthesis of traditions and modern trends. This process can be observed in architecture, music, literature and cinema, where national motifs are intertwined with elements of international styles

The purpose of this article is to analyze the impact of modernization on the development of national culture, to identify the main trends and challenges, as well as to consider the prospects for the preservation and strengthening of the national cultural heritage in the context of global changes. The study will be based on theoretical concepts of culture, as well as examples from various countries that have gone through modernization processes.

The topic under consideration is relevant not only from the point of view of cultural studies, but also in the context of sociology, philosophy and public policy, which makes it interdisciplinary and in demand in modern scientific discussions.

Modern processes of modernization have a significant impact on national culture, changing its forms and content. On the one hand, modernization promotes the development of new forms of cultural expression, expanding opportunities for communication and exchange between cultures. On the other hand, the threat of loss of national identity under the influence of global cultural standards is increasing. In this regard, the question of how national culture can adapt to new realities while maintaining its uniqueness becomes important.

The study of the issues of national culture and its transformation in the context of modernization is presented in the works of many researchers. Huntington (1996) in his work "The Clash of Civilizations" emphasizes the impact of global processes on cultural identities, arguing that modernization can lead to both the strengthening of national consciousness and its weakening. Bauman (2000) considers modernization as a challenge to traditional values, noting the need to adapt national culture to new realities. Inglehart (2003) analyzes cultural change in societies under the influence of globalization, focusing on the changing value priorities of the population. Robertson (2003) studies the process of globalization in the context of social theories, highlighting the mechanisms of interaction between global and local cultures. Hofstede (2001) conducts a study of the

influence of national values on cultural processes, offering dimensions of culture that allow us to assess the level of its resistance to change. These works create a solid theoretical basis for understanding the relationship between modernization and national culture.

The modernization of society is accompanied by a number of significant transformations that affect the cultural sphere:

- Technological change – the introduction of digital technologies is changing the way culture is created, distributed and consumed.
- social change – the growth of urbanization and migration leads to the formation of new cultural identities.
- globalization – the active interaction of national cultures with world trends leads to a mixture of traditions and new forms of self-expression.

In these conditions, national culture is forced to adapt, finding a balance between tradition and innovation. One example of such adaptation is the development of national cinema, music and art, which, using modern technologies, preserve traditional motifs and meanings [2].

For the successful preservation and development of national culture in the context of modernization, it is necessary to take into account the following aspects:

1. Education and enlightenment is the formation of respect for national traditions and history among young people.
2. State support is the development and implementation of cultural policy aimed at protecting and promoting national heritage.
3. Integration of traditions into modern culture – the use of national motifs in fashion, cinema, music, architecture and other areas of art.
4. The development of digital platforms is the creation of online archives, educational programs and virtual museums that contribute to the popularization of cultural heritage.

An important component of the successful development of national culture in the context of modernization is the preservation of linguistic heritage. The national language plays a key role in the formation of the identity of society, serves as a means of transmitting traditions, historical experience and cultural values. In recent decades, there has been a trend towards a decrease in the number of speakers of some languages, which threatens cultural diversity.

On the other hand, in a number of countries, active steps are being taken to preserve and popularize national languages. Educational programs are being developed aimed at teaching young people their native language, digital libraries and online courses are being created to preserve knowledge for future generations [4]. Such initiatives demonstrate that national culture can not only adapt to global changes, but also develop in new conditions.

It is also important to take into account the economic aspect of cultural development. The industry of creative industries, such as cinema, design, fashion and music, can become an engine for the preservation and dissemination of national culture.

Modern technologies make it possible to expand the audience, making national cultural products available to the whole world.

The modernization of society creates both challenges and opportunities for national culture. It is important to find a balance between the preservation of traditional values and their adaptation to modern conditions. Only in this way can we ensure the sustainable development of culture, its relevance and significance in a globalizing world.

References

1. Huntington S. Clash of Civilizations and the Transformation of the World Order. Moscow, AST Publ., 1996.
2. Bauman Z. Globalization. Consequences for the individual and society. Moscow, Ves mir Publ., 2000.
3. Inglehart R. Cultural Change in Modern Societies. Moscow, Novoe izdatelstvo Publ., 2003.
4. Robertson R. Globalization: Social Theories and Global Culture. Moscow, Aspect Press Publ., 2003.
5. Hofstede G. Dimension of Cultures: International Studies of Values and Behavior. Moscow, Vysshaya shkola ekonomiki Publ., 2001.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA’LIMI TARAQQIYOTIGA INNOVATSION YONDOSHUV

Hakimov Nazar Hakimovich – Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrası professori, Fasafa fanlari doktori,
Turon fanlar akademiyasi a’zosi, akademik

Email: hakimovnazar@rambler.ru

Телефон: +998933784551

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida mamlakatimizda maktab ta’limi sohasida o‘tkazilayotgan islohatlarning yangi bosqichi jarayoni tahlil qilingan. Maktab ta’limi yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim ustivor vazifalari qatoriga kirishi munosobati bilan uning institutsional asoslari takomillashtirilmoqda, maktablarda o‘quvchilarga ta’lim berishning innovatsion metodlari joriy qilinmoqda. O‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish uchun ilmiy, metodik, iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishni kengaytirish, ta’limning mamlakat kelajagini ta’minlaydigan mexanizmlardan biri ekanligidir. Muallif maktab ta’limi taraqqiyoti jarayonida davlat tashkilotlari va nodavlat sektor hamkorligining zarurligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ta’lim, maktab, islohat, taraqqiyot, uslubiy, o‘quvchi davlat, yangi O‘zbekiston.*

Абстракт. В статье анализируется процесс реформ в сфере школьного образования на новом этапе развития общества. В связи с включением школьного образования в число важных приоритетов новой стратегии развития Узбекистана совершенствуются его институциональные основы, внедряются инновационные методы обучения учащихся в школах. Расширение эффективного использования научных, методических и экономических возможностей для повышения интеллектуального потенциала обучающихся является одним из механизмов, обеспечивающих будущее страны. Автор подчеркивает необходимость взаимодействия государственных организаций и негосударственного сектора в процессе развития школьного образования.

Ключевые слова: общество, образование, школа, реформа, развитие, методический, студенческое государство, новый Узбекистан.

Abstract. The article analyzes the process of reforms in the sphere of school education at a new stage of development of society. In connection with the inclusion of school education among the important priorities of the new development strategy of Uzbekistan, its institutional foundations are being improved, innovative methods of teaching students in schools are being introduced. Expanding the effective use of scientific, methodological and economic opportunities to improve the intellectual potential of students is one of the mechanisms that ensure the future of the country. The author emphasizes the need for interaction between government organizations and the non-governmental sector in the process of developing school education.

Key words: society, education, school, reform, development, methodological, student, state, new Uzbekistan.

Kirish. Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida maktab ta'limi rivoji ustivor vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatda olib borilayotgan izchil demokratik islohatlarda inson tarbiyasi, o'quvchilarning dunyoviy bilim olishlari uchun shakillantirilgan huquqiy asos, institutsional imkoniyatlar va innovatsion mexanizmlar majmuasini yaratilishi amaliy ahamiyatga egadir. Natijada "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu tamoyilga asoslangan Yangi O'zbekiston g'oyasi amalga qudratli harakatga aylandi" [1,1]. Ta'kidlash lozimki, o'quvchi yoshlar kelajakda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat taraqqiyotining asosiy intellektual va yaratuvchilik kuchi hisoblanadi. Bugungi o'quvchi yoshlar yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning maqsadi, mohiyati va amalga oshirish mexanizmlari haqidagi to'liq ma'lumotni maktab ta'limi orqali egallaydi. Inson taraqqiyoti tizimidagi bunday ustivor vazifani bajarish uchun, maktablarning malakali o'qituvchilar bilan ta'minlanishi, moddiy texnika bazasining mustahkamlanishi va modernizatsiyalashuvi va metodik jihatdan qo'llab quvatlanishi lozim. Mamlakat taraqqiyotining modernizatsiyalashuvi, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishining tobora globallashtirish jarayoniga bog'liqligi ham o'quvchilar tarbiyasiga, ularning fundamental va ijtimoiy fanlardan chuqur bilimga ega bo'lishi lozimligi vazifasini ilgari suradi. Shuningdek, maktab ta'limi o'quvchilarga hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohatlarning bosh maqsadini, provard natijada inson manfaatlari yechimiga, o'quvchilarda bozor

iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'nikmalarni shakillantirishga qaratilganligini tushintirishi, ularda vatanparvarlik, yurtparvarlik madaniyatini shakillantirishi qaratilgan jarayondir. Bugungi ta'lim jarayonining muhim belgisi bozor iqtisodiyoti munosobatlari chuqurlashayotgan, tadbirkorlik rivojiga barcha imkoniyatlar yaratilgan sharoitda, maktab ta'limi orqali o'quvchilarga axloqiy barkomollik, mehnatsevarlik, milliy va umiminsoniy qadriyatlarga sodiqlik madaniyatini yuksaltirishimiz lozim. Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichiga kirishi va axborotlashuv jarayonining, sun'iy intellekt, kibernetika, raqamli iqtisodiyot tushunchalarining ijtimoiy iqtisodiy hayotga, o'quvchilar shuuriga bevosita ta'sirining kuchayishi ham maktab ta'limi mazmunini takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu jarayon o'z navbatida maktablarda ishlayotgan o'qituvchilarning malakasini oshirish, axborotlashgan jamiyatda ta'limdagi transformatsion o'zgarishlarni anglashi, maktab ta'limi uchun mo'ljallangan darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini tayyorlash ishida faol ishtirok etish zaruriyatini ham vujudga keltirdi. Hozirgi davrda kibirjinoyatlarning o'quvchilar uchun halokatli ekanligini, virtual olamdagi axborotlardan, internet tizimidagi salbiy mazmundagi saytlardan foydalanish madaniyatini shakillantirish uchun darslardan unimli foydalanish zarur. Bunday vazifa maktablarda yuqori malakali o'qituvchilar jamoasi mavjud bo'lishini talab qiladi. Ushbu jarayonda har bir ta'lim muassasasining moddiy texnik ta'minoti, kompyuter texnikasi bilan jihozlanganligi, internet tizimiga ulanganligi, axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan mutaxassis o'qituvchilarning faoliyati muhim rol o'ynaydi. Maktab ta'limida o'quvchilar bilimini oshirish jarayonida, har bir darsda kompyuter texnikasidan samarali foydalanish imkoniyatlarini qidirish, izlab topish kerak. Chunki, o'quvchini fanning so'ngi yutuqlari haqidagi axborotlar qiziqirmoqda va bu jarayon maktab ta'limi mutassadilari muntazam suratda o'z tajribasini, metodik, pedagogik salohiyatini oshirish ustida tizimli ishlashini talab qiladi. Shuning uchun ham maktab ta'limini takomillashtirish muommasining yechimiga kompleks yondoshish zarur. Shuningdek, maktabdagi axborot resurs markazi faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida tashkil qilish, uni muntazam suratda hamma fanlarga doir darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash imkoniyatlarini, jumladan nodavlat tashkilotlar, xususiy mulkdorlar imkoniyatlaridan foydalanish talab qilinadi. Bunday jarayon o'z navbatida maktablar rahbarlaridan, fan o'qituvchilaridan Respublikamizda tashkil qilingan Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, xususiy maktablarda darslarni tashkil qilish, axborot resurs markazidagi adabiyotlar majmuasini shakillantirish tajribasidan foydalanishi kutilgan natijani beradi. Maktab ta'limidagi muhim jarayonlardan biri bu o'quvchilarni dasdan keyin mustaqil ta'lim olish jarayonini chuqurlashtirish, o'quvchining darsdan bo'sh vaqtdan samarali foydalanish usuli orqali uning bilimni oshirishdan iboratdir. Bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi hamda axborot resurs markazi imkoniyatlari uyg'unligi, tizimli ijodiy hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sunig uchun ham, «Sifatli ta'lim-tarbiya, aholi salomatligi kelgusi taraqqiyotimizni hal qiladigan eng muhim masala ekani ta'kidlandi. So'nggi sakkiz yilda xususiy sektor bilan birga bog'chalardagi o'rinlar ikki yarim millionga, qamrov 78 foizga yetkazildi. Yangi maktablar qurilgani, borlari kengaytirilgani hisobiga qo'shimcha 1 millionta o'quvchi

o‘rni yaratildi. Zamonaviy darsliklar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida maktab ta‘limiga yangi mazmun, yangi sifat kirib kelmoqda” [1,2].

METODOLOGIYA VA ADABIYTLAR TAHLILI

Ushbu ilmiy tadqiqotning metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta‘kidlangan, ya‘ni “ fuqoralar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishga haqli. Oliy ta‘lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega”ligi tashkil qiladi,[2,32] shuningdek, inson taraqqiyoti uchun “Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni”da ham oliy педагогик ta‘lim olish zaruriyati ta‘kidlanadi [3,1]. Ushbu Qonunning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, unda nodalat ta‘lim muassasalari faoliyat yuritilishiga, tashkil qilinishiga huquqiy ruxsat berilgan. Maqolada bildirilgan innovatsion fikrlarni ilmiy jig‘atdan asoslashga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida, Farmonlari va nutqlarida maktab ta‘limi va oliy pedagogik ta‘limni yanada rivojlantirish, universitetlarda o‘quv metodik jarayonlarni takomillashtirishga, malakali o‘qituvchi kadrlar, jumladan raqabotbardosh bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni yangi taraqqiyot bosqichi talablariga olib chiqish to‘g‘risidagi konseptual fikrlari asos qilib olingan [4,2]. Maqolani nashrga tayyorlash jarayonida maktab talimiga oid innovatsion fikrlar bayon qilingan monografiyalar, jurnallarda e‘lon qilingan maqolalar, ilmiy konferensiyalar materiallari tahlil qilindi. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi davrida nashr qilingan ilmiy ishlarda magistrarning ilmiy tadqiqot ishlarini , ularning o‘quv jarayonidagi ishtirokini yanada optimallashtirish, magistrlar uchun fanlardan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib borishga yuqori malakali professor o‘qituvchilarni jalb qilish zaruriyati mavjudligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Jumladan bunday tadqiqotlar qatoriga, akademik Q.X. Abdurahmonovning tahliliy maqolasini, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri Q.A.Sharipovning “Oliy ta‘lim: yangi o‘zgarishlar davri” maqolasini, Umarov A.V. va Hakimov N.H, qalamiga mansub “Talabalar mustaqil ta‘limi” monografiyasini kiritish mumkin. [5,4] Maktab ta‘limining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan maqolalar xorijiy jurnallarda va xalqaro konferensiyalar materiallarida ham nashr qilingan. Ularga Sattarov S.A[6,32]. Tilyaxodjaeva F.M[7,7]. Axmedova E.R[8,9]. Abduraxmanova S.M[9,9] tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Asosiy qism.

Yangi O‘zbekistonda maktab ta’limining mamlakat strategik taraqqiyoti bilan xamohangligi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida quyidagicha belgilab qo‘yilgan, “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzliksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim tarbiyani rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratadi” [10,32]. Asosiy qomusimizda belgilangan huquqiy normaning ahamiyati shundaki, hozirgi davrda mamlakatimiz aholisining 55 % ini yoshlar tashkil qiladi [11,1]. Shuning uchun ham strategik ahamiyatdagi vazifalar qatoriga yosh avlodga sifatli ta’lim beradigan maktablarni rekonstruksiya qilish va yangi maktablarni qurish ham kiradi. Shu maqsadda davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. [12,1], Ushbu qarorda xalqaro tashkilotlar, moliyaviy donorlar imkoniyatidan ta’lim muasasalarini rivojlantirishda foydalanish mexanizmlari ko‘rsatilgan. Jumladan, Islom taraqqiyot banki, Rivojlanish uchun islom birdamlik jamg‘armasi va Ta’lim bo‘yicha global hamkorlik tashkilotidan 250 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larni jalb qilish orqali O‘zbekistonda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsad qilingan. 2025-2029 yillarda zamonaviy standartlar asosida kamida 58 ta maktab qurish va 72 mingtadan ziyod qo‘shimcha o‘quv o‘rinlarini yaratish orqali sohadagi navbatlilik koeffitsientini kamaytirish rejalashtirilmoqda. Kamida 500 nafar nogironligi bor o‘quvchilar uchun inklyuziv ta’lim sharoitlarini yaratish ko‘zda tutilgan. Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim tamoyillarini joriy etish, laboratoriya mashg‘ulotlarini STEM standartlariga muvofiq tashkil qilish ham belgilanmoqda. Xalqaro talablar va yondashuvlar asosida 36 ming nafar pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi ta’minlanib, malaka oshirishning “aralash o‘qitish” modeli joriy qilinadi. Ta,lim sifatini oshirishga oshirosh maqsadida, Islom taraqqiyot banki O‘zbekiston ta’lim tizimiga 40 million dollar grant ajratdi. Mablag‘lar 58 ta yangi inklyuziv maktab qurilishi va boshqa yo‘nalishlarga sarflanadi [13,1]. O‘zbekiston Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasida grant ajratilishi haqida shartnomasi imzolandi. Vazirlik vakillari Saudiya Arabistonining Ar-Riyoz shahrida Human Capability Initiative 2025 xalqaro forumida ishtirok etgan va forumning ilk kunida O‘zbekiston Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasida grant ajratish bo‘yicha shartnoma imzolangan. Loyihaning asosiy yo‘nalishlari esa quyidagicha: respublikamizda yangi inklyuziv maktablar qurilishi, maktablarni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash, o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish, inklyuziv maktab ta’limini rivojlantirish, fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish mo‘ljallangan.

Mamlakatimizda maktab ta’limi rivojida internet tarmog‘iga ulanganlik, chekkka qishloqlarda ham uyali telefon aloqasi mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi shu maqsadda O‘zbekistonda “O‘ztelekom” kompaniyasi hamkorligida “Manzil” dasturi ishga tushirilgan. “Manzil” jamoasi O‘zbekistonning eng chekka va olis hududlariga uyali telefon va internet aloqasining etib borishiga ma’sul hisoblanadi. Tahlillar shuni

tasdiqlaydiki bu borada samarali ishlar amalga oshirilishi natijasida maktablar kabelli internetga ulangan. Jumladan Navoiy viloyati Xatirchi tumani, Andijon qishlog‘i, Qashqadaryo viloyati Maydanak qishlog‘i, Surxondaryo viloyati O‘shor qishlog‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qoraqalpoq posyolkasi va Qibla Ustyurt ovuli misolida ko‘rish mumkin[14,2]. Shu bilan birgalikda bolalarni internetda tarqatilayotgan turli salbiy axborotlardan saqlash, yoki ularda internetda foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari 2025 yil 15-mayda o‘tkazilgan yig‘ilishda ta’kidladilarki, “«To‘g‘ri, bugungi kunda yoshlar ma’naviyati bilan hamma shug‘ullanayapti. Lekin, zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularni targ‘iboti, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha professional tashkilot yo‘q»”[15,2] Shuning uchun bolalarni zararli axborotlardan asrash ta’lim tarbiya jarayonidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu masala yechimi bilan maxsus shug‘ullanuvchi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. Ushbu tashkilot zararli axborotlarga qarshi tura oladigan milliy kontent yaratish, ularni targ‘iboti, mavzuga oid mazmunli, milliy qadriyatlarimiz va jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichi maqsadini ifodalaydigan kontentlar yaratadigan ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanadi[16,1]. Markaz bolalar tarbiyasi va sog‘lig‘iga salbiy ta’sir qiladigan axborot makonidagi kontentni tahlil qiladi. Mahalliy ijodkorlarga milliy kontent yaratish bo‘yicha buyurtma beradi, sohada kadr tayyorlashni tashkil qiladi. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika ilmiy tadqiqotlar instituti markazga ilmiy jihatdan yordam ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonda maktabda ishlaydigan o‘qituvchilar tayyorlash tizimi muntazam takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 21 aprel kuni maktab ta’limi sifatini oshirish hamda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Mamlakatimizda 15 ta davlat va 61 ta nodavlat oliygohda pedagogika yo‘nalishi bor. Lekin ulardagi ilmiy salohiyat atigi 40 foiz atrofida. Talabalar qabulining katta qismini ijtimoiy yo‘nalishlar tashkil etadi. Aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha pedagoglar tayyorlash juda kam. Talabalarning 40 foizi sirtqi ta’limda o‘qiyapti[17,1]. Davlatimiz rahbari ta’kidlaydi, “O‘tgan yili 341 ming nafar o‘qituvchi yangi, raqamli va yuqori shaffof tizim bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazildi. Ulardan 102 ming nafari imtihondan o‘ta olmadi. Bu deyarli har uchinchi odam. Bu shunchaki statistika emas, balki tizimli muammoning signalidir: minglab o‘qituvchilar yangi talablarga tayyor emaslar, zamonaviy usullarga ega emaslar va o‘z talabalariga bilimlarni samarali ravishda uzata olmaydilar. Ammo xavotirli ma’lumotlar shu bilan tugamaydi. Maktabga ishga qabul qilinganda o‘qituvchi lavozimiga da’vogarlik qilgan 13 ming nafar yangi nomzoddan 6 ming nafari malakasiz deb topildi. Ya’ni, deyarli har ikkinchi odam asosiy kasbiy kompetentsiyalarni sinovdan o‘tkaza olmadi” [18,2]. Ta’kidlash lozimki, nodavlat universitetlarning aksariyatida bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlanmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida xususiy sektorga berilgan imkoniyatlar tufayli 71 ta xususiy oliygoh va 51 ta xususiy texnikum tashkil etilib, ularda 500 ming nafarga yaqin talaba va o‘quvchilar ta’lim olmoqda. Buning

natijasida mamlakatda oliy ta'lim bilan qamrov 9 foizdan 42 foizga oshdi[19,1]. O'qituvchi kadrlar tayyorlashda amalga oshirilgan ishlar ko'plab yoshlarning pedagogika sohasida oliy ma'lumot olishiga imkon yaratdi. Ammo, nodavlat ta'lim tashkilotlarining barchasida ham ta'lim sifati birdek ta'minlanmagan. Nodavlat universitetlarda talabalar qabuli parametrlari, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonlari hamda kafedralar professor o'qituvchilari ilmiy salohiyatini sifat jihatidan yaxshilash, ularni zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish asosiy masalalardan biridir. Shu bois davlatimiz rahbarining taklifiga muvofiq, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni tartibga solish, litsenziyalash tizimini takomillashtirish hamda davlat akretatsiyasidan o'tkazish bo'yicha yangi tizimni joriy etilmoqda. Bu borada ilg'or xorijiy tajribalar asosida ikki bosqichli litsenziyalash tizimiga o'tish, ta'lim dasturlarini maxsus akreditatsiyadan o'tkazish hamda har besh yilda kompleks davlat akreditatsiyasini tashkil etish bo'yicha ko'rib chiqilmoqda. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning tajribasini e'tiborga olib, ta'lim sifatini tashqi baholash bilan shug'ullanuvchi alohida mustaqil tuzilma tashkil etish hamda sifat nazoratining shaffof, xolis va adolatli tizimini joriy qilish tashabbusi ham ilgari surildi. Ta'lim sifatini ta'minlash va tashqi baholashning yangi tizimi joriy etilishi kasbiy va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish samaradorligi va ilmiy salohiyatni oshirib, ularning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi. Respublikada birinchi navbatda pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga e'tibor kuchaytirildi. Bu yo'nalishda Abdulla Avloniy nomidagi Milliy ilmiy-tadqiqot instituti va uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etildi. Nizomiy nomidagi universitet Milliy pedagogika universitetiga aylantirildi va uning rektori bir vaqtning o'zida Kadrlar tayyorlash bo'yicha vazir o'rinbosari bo'ldi. Universitet barcha hududlardagi pedagogika institutlari uchun tayanch oliygoh bo'ladi. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil etildi. Endi ana shu imkoniyatlardan kelib chiqib, barcha pedagogika oliy o'quv yurtlari faoliyati tubdan o'zgartiriladi. Masalan, Termiz pedagogika institutida mavjud fakultetlar o'rniga aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 6 ta oliy maktab tashkil etiladi. Fanlar soni 20 tadan 15 tagacha, o'quv yo'nalishlari soni 31 tadan 17 tagacha optimallashtiriladi, o'quv yuklamasi 20 foizga qisqartiriladi. Yaqin atrofdagi maktablar institutning amaliy bazasiga aylanadi. Institutning 20 nafar xorijiy tillar bo'yicha sertifikatiga ega o'qituvchilari joriy yilda Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapurga amaliyot o'tashga yuboriladi. Barcha o'qituvchilar uch yil davomida chet elda malaka oshirishadi. Dunyoning 100 ta eng yetakchi universitetlarida malaka oshirish va ta'lim xizmatlari to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Hududiy malaka oshirish markazlari faoliyati ham kengaytiriladi. O'qituvchilar AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur va Germaniyaning ilg'or dasturlari asosida qayta tayyorlanadi. Shuningdek, o'rta ta'limning 17 ta predmetining har biri bo'yicha ta'lim maktablari belgilanadi. Bayroqdor maktab o'qituvchisi xalqaro dasturlar asosidagi malaka oshirish markazida o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqurlashtirilgan tayyorgarlikdan o'tadi va trener maqomiga ega bo'ladi. Keyinchalik bu trenerlar o'z mintaqasidagi 25 nafar yetakchi pedagoglarni tayyorlaydi. Yetakchi o'qituvchilar esa o'z maktabidagi boshqa o'qituvchilarning malakasini oshiradilar[20,3]. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari, markazlar va maktablarning

o'qituvchilari malakasini oshirish uchun xorijga yuboriladi. Xususiyl oliyl o'quv yurtlari keng imkoniyatlar yaratishi ta'kidlandi. Vaholanki, u yerda pedagogika yo'nalishidagi talabalarning 70 foizi maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va filologiya yo'nalishlarida tahsil oladi. Hech bir universitetda kimyo, biologiya va fizika fanlari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlanmaydi, maktablarda esa aniq va tabiiy fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmaydi. Shunday ekan, bundan buyon xususiyl oliyl o'quv yurtlarida pedagogik yo'nalishlar davlat muassasalari yo'nalishlariga mos kelish lozim. O'qituvchi va talabalar bilimi tashqi diagnostika orqali baholanadi. Shu tariqa nodavlat oliyl o'quv yurtlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifati ustidan nazorat o'rnatiladi. Davlatimiz rahbari iqtidorli bolalarni xorijiy nufuzli oliyl o'quv yurtlarida o'qitishga alohida e'tibor qaratdi. Iste'dodli yoshlarni to'g'ri yo'naltirish va maqsadli tayyorlash muhimligi ta'kidlandi. Shu maqsadda "Prezidenning Iqtidorli yoshlari" milliy dasturi yo'lga qo'yildi, Al-Beruniy xalqaro maktabi tashkil etiladi. 8-sinf bitiruvchilari orasidan 60 kishi tanlab olinadi va yuqori reytingga ega oliyl o'quv yurtlariga kirish uchun maxsus tayyorlanadi. Shuningdek, umumta'lim maktablariga Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablardan 208 nafar maslahatchi birlashtiriladi. Bu maslahatchilar har yili 3000 nafar eng istiqbolli talabalarni tanlab oladi va ularni AQSh universitetlariga – Garvard, Yel, Kolumbiya, Kornel va boshqa universitetlarga o'qishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalari ishi takomillashtirilmoqda. Qayd etish lozimki, Respublikada 7 ming davlat va 31 mingdan ortiq xususiyl bolalar bog'chalari mavjud. Ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, maktab va boshlang'ich ta'limga tayyorlash dasturlari hamohanglashtirilmoqda. Shu maqsadda maktabgacha yoshdagi bolalarni matematika, tabiiy fanlar va texnologiya yo'nalishlari bo'yicha tanqidiyl va ijodiy fikrlashga o'rgatish dasturlari ishlab chiqildi. Pedagoglarning malakasi, malakasi va psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida kasbiyl attestatsiya tizimi ham joriyl etiladi.

Mamlakatimizda o'quvchi va talaba yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish uchun bugungi kunda tumanlarda "Barkamol avlod" maktablari, 14 ta hududda "Yoshlik" sport jamiyati va Respublika o'quvchi yoshlar markazi bor. Lekin 219 ta "Barkamol avlod" maktabi 350 ming bolani qamrab olgan. Bu markazlar to'liq ta'mirdan chiqarilib, zamonaviyl, kreativ yo'nalishlar asosida jihozlanadi. Ularda xorijiy tillarni o'qitish, sun'iy intellekt, dasturlash va animatsiya kabi yangi to'garaklar ochiladi. Qoraqalpog'iston, Xorazm, Samarqand, Buxoro va Toshkentdagi "Barkamol avlod" markazlarida kamida 100 o'rinli "Bolalar sayyohlik bazasi" tashkil qilinadi va har yili 1 million o'quvchini O'zbekiston bo'ylab sayohatga jalb qilish rejalashtirilgan[21,2]. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish uchun 900 ga yaqin teatr, madaniyl markazlari va konsert zallari, hududlarda 1,5 mingga yaqin sport maydonchalari, 200 ta oromgoh, 2 mingdan ortiq turizm ob'yektlari imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmoqda. Poytaxtdagi Yangi O'zbekiston bog'i va parklarda har kuni ochiq osmon ostida konsertlar, sport musobaqalari uyushtiriladi. Yozgi oromgohlarda yoshlar "Ibrat farzandlari", "Qizlar akademiyasi", "Mutolaa" loyihalari bilan qamrab olinadi. 100 ming o'quvchi uchun maktablarda "kunduzgi oromgoh" faoliylati yo'lga qo'yiladi. Maktablarda "Zakovat" intellektual o'yinining maktab ligasi tashkil etiladi. "Raqamli avlod" loyihasi doirasida

kamida 50 ming yosh o‘qitilib, hududlarda IT va kibersport turnirlari o‘tkaziladi. Bunda “Raqamli avlod qizlari” loyihasi bo‘yicha tuman va viloyat tanlovlari o‘tkaziladi. “Mening mahallam – mening faxrim” loyihasi doirasida ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha 100 ming yosh volontyorlikka jalb qilinadi. 150 dan ortiq sun‘iy, shuningdek, barcha tabiiy suv havzalaridan samarali foydalanish loyihalari tasdiqlandi. “Yoshlar turizmi oyligi” o‘tkazilib, 1 million yoshlar uchun muzey va tarixiy obidalarga ekskursiyalar tashkil qilinadi. [22,1]. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha bilimni sinashda, maktab bitiruvchilarining oliy ta‘lim muassasalariga kirish jarayonida, test sinovlarida ko‘rsatgan natijalari muhim ko‘rsatkich rolini bajrayapti. Jumladan, “2025 yilda 614 ming 768 nafar abituriyent testga kirgan bo‘lib, ularning 253 ming 844 nafari (41,29 foiz) 56,7 ballni (maksimal ballning 30 foizi) ham to‘play olmagan. 2023 yilda 8 ta, 2024 yilda esa 4 ta hududda abituriyentlarning 50 foizdan ko‘prog‘i 56,7 balldan past ball olgan. Joriy yilda bironta hududda bunday salbiy ko‘rsatkich qayd etilmagan”. [23,1]. Ta‘lim sohasidagi bunday tahlil, matab o‘qituvchilar va ta‘lim muassasalari tashkilotchilarining ish faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

XULOSA.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida O‘zbekistonda maktablardagi dars jarayonining turli tillarda amalga oshirilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Maktablar o‘z joylashgan hududlarining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘sha hududda istiqomat qiladigan turli millatga mansub aholi talabigi muvofiq ravishda mashg‘ulotlar o‘sha tilda olib boriladi.

Mamlakatimizda bolalarning barkamol inson sifatida rivojlanishida muhim o‘rin egallaydigan maktab ta‘limi taraqqiyoti uchun metodik, moddiy texnik sharoit yaratilgan, yuqori malakali o‘qituvchi kadrlar bu ishga jalb qilingan. Malakali o‘qituvchilarning boshqa hududlarga borib ishlashi uchun moddiy tomondan qo‘llab quvatlanmoqda. Maktab ta‘limining xalqaro dasturlarga kiritilishi va o‘qituvchilarning rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ta‘lim muassasalarida malaka oshirishlariga e‘tibor kuchaytirildi. Shuningdek, maktab o‘qituvchilarning malakasini oshirishga mo‘ljallangan, respublika va viloyatlarda maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirish institutlari faoliyati, demokratik islohatlar, ijtimoiy va dunyoviy davlat talablari asosida takomillashtirildi. Maktablar orasida ijodiy musoboqa, ya‘ni bolalarning fanlardan o‘zlashtirilishi, bitiruvchilarni oliy o‘quv yurtlariga kirishi masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtidorli o‘quvchilarning ta‘lim olishlari uchun Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi yaratildi. O‘zbekistonda xususiy maktablar soni oshib bormoqda. Shuning uchun ham maktablarda bolalarning san‘atga, sportga, fanlar bo‘yicha tashkil qilingan to‘garaklarda, turli darajadagi, jumladan respublika va xalqaro olimpiada va musoboqalarda ishtirokiga e‘tibor kuchaytirilgan. Ta‘kidlash lozimki iqtidorli o‘quvchilarni fan olimpiadalaridagi ishtirokini ta‘minlaydigan o‘qituvchilar moddiy va ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirilmoqda. Iqtidorli o‘quvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli loyiha va almashinuv dasturlari tashkil qilinadi. Bolalarni birinchi sinfdan o‘qish uchun maktabga jalb qilish mobaynida, ijtimoiy kam ta‘minlangan aholi farzandlari, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘lim olishi uchun ham zarur imkoniyatlar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон халқини мустақилликнинг 34 йиллиги билан табриклади. <https://www.uzdaily.uz/uzc/>.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, Ўзбекистон., 2023. 51 модда.
3. Ўзбекистон Республикаси “Та’лим тўғрисидаги Қонуни”. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 03/24/963/0735-сон)
4. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон. 2021.
5. Шавкат Мирзиёев. Бир бўлсак халқмиз, бирлашсак ватанмиз. Тошкент, Ўзбекистон, 2024.
6. Шарипов Қ.А. “Олий та’лим: янги ўзгаришлар даври”, “Ўзбекистон овози” №12, 2024 йил 21 июн.
7. Абдураҳмонов Қ.Х. “30 лет лидерства в образовании и науке”, Народное слово 29 апрель 2025 года.
8. Абдусалом Умаров, Назар Хакимов. Талабалар мустақил та’лими. Монография. Тошкент, “Фирдавс Шох нашриёти” 2024, 250 ,бет
9. Саттаров С.А. Первые шаги интеграции высшей школы Узбекистана в Евразийское образовательное пространство В сборнике: Евразийское образовательное пространство XXI века: характеристики, модели интеграции, перспективы. Материалы международной электронной научно-практической конференции. Ташкент, 2018. С. 137-140.
10. Тилуходжаева Ф.М. Обучение средних и в начальных классах общеобразовательных школ Узбекистана Интер наука. 2017. № 11-1 (15). С. 94-96.
11. Ахмедова Э.Р. Значение советской художественной школы для живописи Узбекистана. Искусство Евразии. 2022. № 4 (27). С. 214-225.
12. Абдурахманова С.М. Современные подходы к преподаванию естествознания в школах Узбекистана. В сборнике: Актуальные проблемы школьного образования. Сборник статей по материалам Международной научно-практической конференции. Благовещенск, 2024. С. 368-370.
13. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент, Ўзбекистон, 2023. 50-модда.
14. Искусственный интеллект, цифровое образование: Узбекистан и ООН реализуют новые проекты. <https://news.майл.ру//66153701/>
15. Ўзбекистонда 2025–2029 йиллар давомида замонавий стандартлар асосида камида 58 та мактаб қурилади. <https://кун.уз/кп/newc/2025/05/01/>
16. Ислом-тараққиёт-банки-Ўзбекистон-талими-тизимига-40-миллион-доллар-грант-ажратади. <https://кун.уз/newc/2025/04/14/>
17. Турсунов Т. “Телефонда гаплашиш учун шу чўққига чиқардик” — қишлоқларда алоқа, интернет қандай? <https://кун.уз//newc/2025/05/07/>

18. Шавкат Мирзиёев. 2025 йил 15 майда мактаб та'лими бўйича ўтказилган йиғилишдаги нутқи. <https://kun.uz/news/2025/05/15/>

19. Болалар контентини ривожлантириш маркази ташкил қилинди. <https://kun.uz/kr/news/2025/05/07/>.

20. Таълим сифатини ошириш бўйича таклифлар тақдимот қилинди. <https://kun.uz/news/>.

21. Система школьного образования в Узбекистане выходит на новый этап развития - что изменится. <https://news.маил.ру/политисс/66150893/>

22. Har yili 1 million o'quvchi O'zbekiston bo'ylab sayohatga jalb qilinadi. <https://kun.uz/news/2025/05/15/>

23. Абитуриентларнинг 41 фоизи минимал баллни ҳам тўплай олмади. <https://kun.uz/kr/29529424>

INTELLEKT TURLARI VA UNING TA'LIMIY AHAMIYATI

Soatov Asadulloh Jabborovich – Turon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD).

Annotatsiya. *Maqolada intellekt turlarining ta'limiy ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilingan. Intellektning muhim turlari: aqliy, emotsional va ijodiy intellektning mnemonik usullarni qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishdagi roli yoritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *intellekt, aqliy intellekt, emotsional intellekt, ijodiy intellekt, moslashuvchanlik, ijodkorlik, xotira, mnemonika, mantiqiy fikrlash.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning bilim olish sifatini oshirish, ularning xotira salohiyatini kuchaytirish va fikrlash darajasini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda intellektual resurslardan oqilona foydalanish, xususan, xotira va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va uni o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, xotirani faollashtirishda ijodiy fikrlash, intellektual qobiliyat va mnemonik usullarning birgalikdagi ta'sirini o'rganish hozirgi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Intellektual faoliyat (masalan, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish) uchun oldin o'zlashtirilgan bilimlar zarur. Bu bilimlar esa xotirada saqlangan bo'ladi. Demak, xotira – intellektual faoliyatning axborot bazasi, intellekt esa – bu bazani qayta ishlovchi "protssessoridir". Ayniqsa operativ xotira intellekt sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Operativ xotira - bu hozirgi daqiqada bajarilayotgan intellektual vazifani yengib o'tish uchun zarur bo'lgan ma'lumotni vaqtincha saqlaydigan tizimdir. Masalan, talaba matematik masalani yechayotganda, formulani xotirada ushlab turib, unga amal qiladi. Bu holatda jarayon quyidagi formula asosida sodir bo'ladi. Operativ xotira + mantiqiy fikrlash = intellektual faoliyat[1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimiz olimlaridan kognitiv qobiliyatlarni o'rganishga doir fundamental tadqiqotlar B.Qodirov, V.A.Tokareva, YE.N.Sattorov, M.G.Davletshin, M.Dadajonov, M.SH.Rasuleva, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, S.X.Jalilova, F.I.Haydarov, E.G'.G'oziyevlar tomonidan, psixik jarayonlarni tadqiq qilishga oid tadqiqotlar Z.T.Nishonova, SH.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov, Z.Qurbonova, SH.Asomuddinova, S.Abdiyev, Sh.Rahmonov O.Ikromovlar tomonidan, pedagogik va psixologik jihatlarni o'rganish M.Vohidov, P.I.Ivanov, SH.Baratov, G'.B.Shoumarov, L.Urinova va boshqa olimlarning ishlarida o'z aksini topgan[2].

Ta'lim jarayonida mnemonik usullardan samarali foydalanish xotira orqali intellektual rivojlanish ko'rsatgichini bir necha baravarga oshiradi. Talabalar mnemonik usullarni qo'llash orqali ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qoladi, keyinchalik bu ma'lumotlarni tahlil qiladi, taqqoslaydi, qo'llaydi. Bu – xotira va intellektning o'zaro kuchaytiruvchi aloqasidir[3]. Talabalarning mnemonik usullardan foydalanish orqali

xotira qobiliyatini oshirish – ularning intellektual salohiyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Yaxshi ishlaydigan xotira esa – intellektual jarayonlar (tahlil, umumlashtirish, ijodiy fikrlash)ni kuchaytiradi. Bu jarayon quyidagi formula asosida ro’y beradi.

Mnemonik usullar + Xotiraning kuchayishi + Intellektual funksiyalar faollashuvi = Muammolarni hal qilishda yaxshilanish.

Demak talabalarning mnemonik usullar asosida xotira strategiyalari rivojlantirilsa, bu ularning intellektual faoliyati samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Intellekt tushunchasiga kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan R. Sternberg quyidagicha ta’rif beradi. Intellekt – bu axborotni qayta ishlash, saqlash, ishlatish va unga mos qarorlar qabul qilishga oid kognitiv jarayonlar majmuasidir. Bu jarayonga diqqat, xotira, idrok, tafakkur va til bilan ishlash xususiyatlari kiradi[6].

Ilmiy jihatdan intellektning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni sanab o’tish mumkin:

- Moslashuvchanlik – o’zgaruvchan muhitga tezda moslashish qobiliyati;
- Muammo yechish – yangi holatlarga yechim topish;
- O’rganish qobiliyati – tajriba orqali o’zini rivojlantirish;
- Mantiqiy fikrlash – sabablilikni tushunish, xulosalash;
- Ijodkorlik – yangi fikr, g’oya, yondashuv yaratish.

Zamonaviy psixologiyada intellektni faqat raqam bilan o’lchash yetarli emas degan qarash keng tarqalgan. Shuning uchun hozirda emosional intellekt (EQ), ijodiy intellekt va ijtimoiy intellekt kabi yo’nalishlar ham o’rganilmoqda. Tadqiqotlar emosional intellekt (EQ), ijodiy intellekt va ijtimoiy intellekt kabi boshqa muhim intellekt shakllarining ham inson muvaffaqiyatidagi o’rni muhimligini ko’rsatmoqda. Quyida sanab o’tilgan itellekt turlari va ularning mnemonik usullarni qo’llash ko’nikmasini shakllantirishdagi roliga to’xtalib o’tamiz.

Aqliy intellekt – bu insonning bilish qobiliyati, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi ma’lumotlarni o’zlashtirish salohiyatini o’lchovchi tushunchadir. Aqliy intellekt ko’pincha “an’anaviy” intellekt deb ataladi va u faqat kognitiv qobiliyatlarni o’lchaydi.

Tahlil va natijalar.

Aqliy intellektning mnemonik usullarni o’rganishdagi roli alohida ahamiyat kasb etadi. Aqliy intellektning asosiy vazifasi – ma’lumotlarni mantiqiy tahlil qilish va ularni strukturaviy tizimga joylashtirishdir. Mnemonik usullar esa ko’pincha murakkab ma’lumotlarni soddalashtirish va tartibga solishga asoslanadi, masalan, abbriviaturalar, raqamlar va so’zlarni o’zaro bog’lash. Yuqori kognitiv qobiliyatlar talabalar uchun mnemonik strategiyalarni yaratishda va qo’llashda samarali yordam beradi. Quyidagi 1-jadvalda aqliy intellektning mnemonik usullarni o’rganish jarayonidagi roli keltirilgan.

Aqliy intellektning mnemonik usullarni o'rganish jarayoniga ta'sirini

Aqliy intellektning roli	Mnemonik usullarni o'rganishdagi ta'siri
Ma'lumotni tahlil qilish va strukturaviylashtirish	Murakkab ma'lumotlarni soddalashtirish va tartiblash
Muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv	Yangi eslab qolish strategiyalarini yaratish
Diqqatni jamlash va xotirani boshqarish	Konsentratsiyani oshirish va ma'lumotni tez o'zlashtirish
Til va semantik tahlil	Ma'noli bog'lanishlar yaratish va so'z o'yinlari

Bugungi kunda aqliy intellekt singari emotsional intellekt ham mnemonik ko'nikmalarga ega bo'lishda muhim rol o'ynaydi. Emosional intellekt (EI) tushunchasiga Salovey va Mayer quyidagicha ta'rif beradi. Emosional intellekt – bu shaxsning o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini aniqlash, tushunish, boshqarish va samarali foydalanish qobiliyatidir [4].

Salovey va Mayer modeli bo'yicha emosional intellekt quyidagi to'rtta asosiy qobiliyatdan iborat:

1. Emotsiyalarni tan olish – o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va aniqlash, yuz ifodalari, ovoz ohangi, tana tili orqali sezish.
2. Emotsiyalarni anglash va tushunish – his-tuyg'ular sabablari, ularning o'zaro bog'liqligi va rivojlanishini tushunish.
3. Emotsiyalarni boshqarish – o'z hissiyotlarini nazorat qilish, uyg'unlashtirish, noqulay holatlarda o'zini tutishni tartibga solish.
4. Emotsiyalardan foydalanish – his – tuyg'ularni qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish jarayonida samarali qo'llash[4].

Emosional intellektning ilmiy ahamiyati shundaki, yuqori EQ ishda stressni boshqarishda, jamoada samarali ishlashda va yetakchilikda muvaffaqiyat keltiradi. Psixologik jihatdan emotsiyalarni boshqarish depressiya, xavotir va boshqa ruhiy muammolarni kamaytirishga yordam beradi.

Mnemonik usullarni o'rganish jarayonida emotsional intellektning roli alohida o'rin tutadi. Mnemonik usullar va emotsional intellekt o'rtasidagi bog'liqlik talabalarda motivatsiya va ijobiy emotsiyalar uyg'un rivojlangan jarayonda ko'zga tashlanadi. Mnemonik usullar samarali o'zlashtirilishi uchun talabaning motivatsiyasi va o'rganishga bo'lgan ijobiy hissiyotlari zarur. Yuqori emosional intellektga ega shaxslar o'z his-tuyg'ularini boshqarib, stress yoki bezovtalikni kamaytiradi, bu esa o'rganish jarayonida samaradorlikni oshiradi. Masalan, mnemonik strategiyalarni qo'llash paytida yuzaga

keladigan qiyinchiliklarni yengishda hissiy barqarorlik talab qilinadi. Emotsional intellektning mnemonik usullarni o'rganish jarayoniga ta'sirini quyidagi 2 - jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval.

Emotsional intellektning mnemonik usullarni o'rganish jarayoniga ta'siri

Emosional intellektning roli	Mnemonik usullarning o'rganish jarayonidagi ta'siri
Stress va bezovtalikni boshqarish	O'rganishni barqaror, uzluksiz davom ettirish
Diqqatni boshqarish	Ma'lumotni samarali qabul qilish va eslab qolish
Ijtimoiy ko'nikmalar (empatiya)	Guruhda o'zaro yordam va rag'batlantirish
Hissiy xotira (hissiyot bilan bog'lash)	Ma'lumotni yanada mustahkam va uzoq muddat eslab qolish

Aqliy va emotsional entellekt qatori ijodiy intellekt ham inson kamolotida muhim o'rin tutadi. Ijodiy intellekt – bu insonning yangilik kiritish, muammolarga innovatsion yechim topish va kutilmagan vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatidir. U har qanday sohada muvaffaqiyat va rivojlanish uchun juda muhim hisoblanadi.

Ijodiy intellekt – bu shaxsning yangi va original g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarga noodatiy yondashish, yangilik yaratish va o'ziga xos echim topish qobiliyatidir [5].

Ijodiy intellektning asosiy jihatlari yangi fikrlarni ishlab chiqish, moslashuvchanlik, originalilik, muammolarni noodatiy hal qilishda o'z aksini topadi. Yangi fikrlarni ishlab chiqish mavjud bilimlardan tashqariga chiqib, yangi kontseptsiyalar, mahsulotlar yoki usullar yaratishdir. Moslashuvchanlik muammolarni turli nuqtai nazardan ko'ra bilish va yechim topishda turli yondashuvlarni qo'llashdir. Originallik o'ziga xos, noyob fikrlar va echimlar topa olishdir. Muammolarni noodatiy hal qilish standart yo'llar ishlamaganida yangi strategiyalar ishlab chiqishdir.

Mnemonik usullarni qo'llash jarayonida ijodiy intellektning roli yangi mnemonik strategiyalar yaratishda ko'zga tashlanadi. Mnemonik usullar ko'pincha ma'lumotni eslab qolishni osonlashtirish uchun yangi, original bog'lanishlar, tasvirlar, hikoyalar yoki qisqartmalar yaratishni talab qiladi. Ijodiy intellekt bu jarayonda talabalar uchun yangi yondashuvlar va shaxsiy uslublarni ishlab chiqishda yordam beradi. Ijodiy intellektning mnemonik usullarni o'rganish jarayoniga ta'sirini quyidagi 3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

3-jadval.

Ijodiy intellektning mnemonik usullarni o'rganish jarayoniga ta'siri

Ijodiy intellektning roli	Mnemonik usullarni o'rganishdagi ta'siri
Yangi va original mnemonik usullar yaratish	Ma'lumotni eslab qolishni osonlashtiruvchi yangi yondashuvlar
Moslashuvchan fikrlash	Turli ma'lumotlarga moslab strategiyalarni o'zgartirish
Tasviriy va metaforik fikrlash	Vizual va hissiy bog'lanishlar yordamida mustahkamlash
Motivatsiyani oshirish	O'rganish jarayonini qiziqarli va rag'batlantiruvchi qilish
Murakkab ma'lumotni soddalashtirish	Qiyin ma'lumotlarni eslab qolish uchun qulay shakl yaratish

Xulosa va tavsiyalar.

Xulosa qilib aytganda ta'lim jarayonida mnemonik usullardan samarali foydalanish xotira orqali intellektual rivojlanish ko'rsatgichini bir necha baravarga oshiradi. Talabalar mnemonik usullarni qo'llash orqali ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qoladi, keyinchalik bu ma'lumotlarni tahlil qiladi, taqqoslaydi, qo'llaydi. Bu – xotira va intellektning o'zaro kuchaytiruvchi aloqasidir. Talabalarning mnemonik usullardan foydalanish orqali xotira qobiliyatini oshirish – ularning intellektual salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi ishlaydigan xotira esa – intellektual jarayonlar (tahlil, umumlashtirish, ijodiy fikrlash)ni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Fan va ta'lim. 2022. - 106 b.

2. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 13.00.02. – Q.: QDU, 2022. – 58 b.

3. Soatov A.J. Ma'lumotlarni eslab qolishda assotsiativ usullardan foydalanishning mnemonik ahamiyati. Ta'limda istiqbolli izlanishlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 5.2024. 157 b.

4. Mayer J. D., How Mood Influences Cognition, in Advances in Cognitive Science, Volume 1, Sharkey N. E. (ed.), Ellis Horwood, Chichester, pp. 290–314, 1986.

5. Sternberg, Robert J. "The Theory of Successful Intelligence" Review of General Psychology, vol. 3, no. 4, 1999, 292-316.

6. Sternberg R. J., Smith C. A., Social Intelligence and Decoding Skills in Nonverbal Communication, *Social Cognition*, 3, pp. 168–192, 1985.

UDK.617.51-0.01. BBK 54.581.

BOSH MIYA SHIKASTLANISHLARINI ERTA TASHXISLASH VA KOMPLEKS PROFILAKTIKASI

Amonov Sh.B. – Turon universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bosh miya shikastlanishlarining erta tashxislash va oldini olish chora tadbirlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Bosh miya shikastlanishlari, erta tashxislash, kompleks profilaktikasi, perkutan transpedunkulyar, vertebroplastika, VASH shkalasi.

Аннотация. В этой статье представлена информация о мерах по ранней диагностике и профилактике черепно-мозговых травм.

Ключевые слова. Повреждения черепа, ранняя диагностика, комплексная профилактика, чрескожная транспедикулярная пластика, вертебропластика, шкала Ваш.

Annotation. This article provides information on measures for the early diagnosis and prevention of traumatic brain injuries.

Keywords. Skull injuries, early diagnosis, comprehensive prevention, percutaneous transpedicular plastic surgery, vertebroplasty, Vash scale.

Og'riq sindromining intensivligi (VASH shkalasi) bo'yicha bemorlar quyidagicha taqsimlangan: 10 (14,3%) mayda og'riqdan (3-4 ball), 38 (54,3%) o'rtacha og'riqdan (5-7 ball) va 22 (31,4%) bemor qattiq og'riqdan (8 yoki undan ko'p ball) (1-jadval)da o'z ifodasini topgan.

Bosh miya shikastlanishlari bilan kasallangan og'riq sindromining intensivligi (vash shkalasi) bo'yicha bemorlar taqsimoti

1- jadval.

VASH shkalasi bo'yicha	Asosiy guruh		Nazorat guruhi		%
	erkak	ayol	erkak	ayol	
Bemorlarning jinsi					
Mayda og'riq (3-4 ball)	2	4	2	3	18,3 %
O'rtacha og'riq (5-7 ball)	9	16	4	9	63,3 %
Kuchli og'riq (8 va undan yuqori ball)	3	4	2	2	20 %
Jami	14	24	8	14	100 %

Shunday qilib, 40 (63,3%) bemorda yetakchi og'riq sindromi mavjud edi. Lomber mintaqadagi og'riq turli xil intensivlikda yengil noqulaylikdan tortib chidab bo'lmas og'riqgacha va harakatlar bilan kuchayi kuzatiladi.

Og'riq sindromi asosan asab shakllanishining siqilishidan kelib chiqqan va bel umurtqasidagi mahalliy og'riq va tegishli dermatomalarda radikulyar og'riq belgilari bilan namoyon bo'lgan sug'orish mexanizmlari bilan bog'liq edi.

Og'riq sindromi bo'yicha anamnestic ma'lumotlarni baholashda biz har bir ildiz uchun og'riq nurlanishining xarakterli zonasini alohida aniqlash maqsadiga erishdik. Th12 ildizi achishganda qorinning pastki qismiga tarqalgan og'riq, ba'zan shingillash xarakteriga ega bo'lgan; L1 ildizi uchun chot sohasiga tarqalgan og'riq xarakterli bo'lgan; L2, L3 ildizlari achishganda sonlarning medial yuzasi bo'ylab og'riq qayd etilgan; L4 ildizi qiziqqanida, og'riq sonlarning old yuzasi bo'ylab tarqalib, son va tizza sohasining pastki uchdan bir qismini yetaklab, pastki oyoqning old yuzasiga o'tdi; L5 ildizi uchun bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, gluteal og'riqning xarakterli nurlanishi mavjud edi mintaqa, son va pastki oyoqning lateral yuzasi bo'ylab. Biroq, bizning materialimizdagi ildizchali og'riq bunday segmentatsiyasi har doim ham zararlanish darajasiga mos kelmadi, shikastlanish darajasi va lokalizatsiya darajasiga qarab 2-3 yoki undan ortiq ildiz ko'pincha klinik alomatlariga jalb qilingan [2.4.6.8.10]. Shu bilan birga 8 bemorda og'riq sabab harakati cheklangan. Nogironlik darajasini baholash uchun biz 10 bo'limdan iborat Osvestri bo'yicha so'rovnoma o'tkazdik. 7 - jadvaldan ko'rinib turibdiki. ikki bemor (2,86%) jarrohlik oldin 30-40 ball, bemorlarning eng ko'p 38 (54,28%) bemor 40-60 ball, 30 (42,86%) bemor 60-80 ball kiritdi. Operatsiyadan oldin bitta bemor 80 dan 100 ballgacha to'plamadi.

2-jadval.

Bosh miya falaji bilan kasallangan bemorlarda osvestri so'rovnomasini tahliliy ko'rsatkichlari

Osvestri so'rovnomasi	Asosiy guruh		Nazorat guruhi		%
	erkak	ayol	erkak	ayol	
Bemorlarning jinsi					
30-40 ball	1	0	0	1	2,86 %
40-60 ball	8	15	6	9	54,28 %
60-80 ball	5	9	6	10	42,86 %
80-100 ball	0				
jami	14	24	12	20	100 %

Bemorlarning umumiy holatida birgalikda kasalliklar, oqibatlar, shuningdek beqarorlik patogenezidan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlar aniqlandi.

Nevrologik asoratlarning og'irligi Osvestri va VASH shkalalari asosida baholandi. Umurtqa stabilizatsiyasi usuliga qarab rivojlangan asoratlar barcha bemorlarda o'tkazilgan nazorat rentgenografiyalarida, shuningdek, bir nechta bemorlarda o'tkazilgan MSKT va

MRT tadqiqotlarida davolashning dastlabki natijalari bemorni klinik jixatdan Osvestri shkalasidagi nevrologik holatga va og'riq intensivligiga (VASH shkalasi) qarab chiqarilishidan oldin baholandi.

Bemorlarning umumiy holatini o'rganish uchun Amerika anesteziologlar jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan AAJ operatsion xavf shkalasi (1963) ishlatilgan, AAJ (ASA) bemorlarni beshta guruhdan birida aniqlandi.

3-jadval.

ASA operatsion xavf shkalasi

Guruhlar	Bemorning umumiy ahvoli
I	Yondosh kasalliklarsiz yaxshi aqliy va jismoniy holat
II	Funksional buzilishlarsiz tizimlarning qisman kasalligi
III	Jiddiy tizimli kasalliklar, faoliyatga ta'sir qiladigan, ammo nogironlikka olib kelmaydigan funksional buzilishlar
IV	Nogironlik va hayotga tahdid soladigan jiddiy tizimli kasalliklar
V	Umri 24 soatdan oshmagan o'layotgan bemor (operatsiya qilinadimi yoki yo'qligidan qat'iy nazar)

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

I. Eksperimental tadqiqot natijalari

Suyak sementlarining fizik xususiyatlarini o'rganish:

("Stryker "(AQSH) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan "SurgicalSimplex" va "Spinelex" (AQSH); "Sinimed" (Fransiya) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan "CementoFixx" ning "DePuyCMW-3"(Angliya) firmasi tomonidan ishlab chiqilgan "Johnson&Johnson" PVP texnologiyalaridan foydalangan holda punksiyon vertebroplastikaning jismoniy zo'riqishga nisbatan ta'sirini o'rganish.

Turli xil brendlarning suyak sementlarining o'ziga xos kuchining qiymatlari orasida farqlar bor va ularning ta'siri ostida fiziologik yuklarga (qarshilik, zarba) nisbatan umurtqa tanasining chidamliligi ortdi. Bu ko'rsatkich umurtqa tanasining normadagi chidamlilik darajasidan 20 barobar yuqori edi. Tadqiqot natijalari suyak mineral zichligi darajasi va umurtqa tanasining kuchi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan, biz ushbu ikki parametr o'rtasida to'g'ridan to'g'ri proporsional munosabatni ko'rsatdik. Umurtqa tanasidagi g'ovaksimon to'qimaning mineral zichligi o'ziga xos kuchi ko'proq ekanligi aniqlandi. Buni umurtqa kortikal qismiga nisbatan g'ovaksimon tana qismida mineral kamligi bilan tushuntiriladi. Kichik hajmdagi suyak sementini manipulyatsiya qilish (umurtqa tanasining 10% -15% hajmi) klinik foydalanish uchun tavsiya etiladi (Bat t.J.D.etal.,1991,Belkoff S.etal., 2000). Biz amaliyotimiz davrida PVP da qo'llaniladigan polimetilmetakrilat miqdorining ko'payishi va umurtqa tanasining kuchi ko'payishi nomutanosibligini aniqladik. Bizning tadqiqotlarimiz asosida quyidagilar aniqlandi.

Bulardan kompozitsion materiallardan foydalanishning minimal hajmi sezilarli darajada siqilib singan umurtqa tanasining qarshiligini (mustahkamligini) orttirdi. Maxsus suyak sementi (polimetilmetakrilat) suyak trabekulyar bo'shliqlar hajmining 40% dan ortig'i bilan to'ldirilganda (20% yoki undan ko'p umurtqa tanasining umumiy hajmi) umurtqa tanasini kuchi sezilarli darajada oshdi [11.13.14]. Intertrabekulyar bo'shliqlarni to'ldirish pastki yopish plitalari uchun umurtqa tanasining normal qiymatidagi kuchiga nisbatan yuqori sezilarli darajada o'zgardi. Umurtqa tanasining hajmlarini eksperimental aniqlash natijasida uch xil texnikadan foydalanib, hisoblashlarda parallelepiped hajmi formulasidan foydalanish ma'lum bir umurtqa tanasiga quyish uchun zarur bo'lgan suyak sementining maqbul miqdorini qisqa vaqt ichida aniqlashga imkon berganligi aniqlandi. Kompyuter tomografiyasi yordamida umurtqa tanalarining hajmi va matematik usul yordamida umurtqa tanasi hajmiga mos ravishda suyak sementini miqdorini aniqlash kabi hisoblashlar olib borildi.

Jarrohlik muolajasidan o'tgan barcha bemorlar shifoxonadan sog'aygan yoki ish faoliyati to'liq (80-95%) tiklanishi bilan chiqarildi. Operatsiyadan keyingi katamnez kuzatildi. Bemorlarning ahvoli operatsiyadan 1 oy, 6 oy va 12 oy o'tgach baholandi. Shunday qilib, 1 yildan so'ng asosiy guruhdagi bemorlarning 95% va nazorat guruhidagi bemorlarning 78% bemorlarni davolash natijalarini "yaxshi" va "a'lo" deb baholadilar. Operatsiyadan 1 yil o'tgach qoniqarsiz natijalar asosiy guruhda kuzatilmadi va nazorat guruhida 1 bemorda (4,5%) kuzatildi, bu dastlabki aniq nevrologik defitsit, shuningdek ko'krak va bel sohasida yetarlicha aniq og'riq sindromining saqlanishi bilan bog'liq yedi. Asosiy guruhda operatsiyadan keyingi asoratlar bo'lmagan, nazorat guruhida 1 bemorda uzoq muddatli asoratlar bo'lgan. Bu holatda, bemorda konservativ davolash (nyaqdv va simptomatikoterapiya) qo'llanildi. Umurtqa tanasi kuch xususiyatlarini eksperimental o'rganish ma'lumotlari asosida amalga oshirildi va travmatik tabiat va osteoporotik deformatsiyalarning siqilish yoriqlari uchun vertebroplastikani bajarishda qo'llanilishi mumkin. KT yordamida amalga oshirilgan o'lchovlar asosida ko'krak va belning umurtqa anatomik parametrlarining o'rtacha qiymatlari aniqlandi, ular amaliy shifokor uchun qulay sxema shaklida taqdim etildi. Sxema jarrohga punktsion ignalarini tanlashni soddalashtirishga, to'g'ri o'lchamdagi ignalarni umurtqa tanasidan umurtqa yoylariga qarab ketgan burchak qiymatlariga qat'iy muvofiq ravishda o'tishini rejalashtirishga va suyak sementining maqbul hajmini joriy etishga katta ahamiyatga ega.

PVP uchun ishlatiladigan punktsion ignalarini o'rganishda ularning ma'lum o'lchamlari o'rnatildi va tavsiya etildi. Shunday qilib, servikal umurtqa vertebroplastikasi uchun diametri G13 va uzunligi 10 sm bo'lgan punktsion ignalaridan foydalanish maqbul deb topildi. Ko'krak va bel umurtqasidagi PVP bilan ignalarning diametri umurtqalarning yoy va ildizlari kattaligiga bog'liq bo'lib, G11-13 ishlatiladi va uzunligi 10-15cm ga to'g'ri keldi. Jarroh uchun PVP amaliyoti o'tkazilayotgan umurtqa tanasiga muvofiq igna olish muhim hisoblanadi va turlicha shakldagi distal qismga ega umurtqa tanasiga ignani ko'llash jarroh tajribasiga bog'liq.

Igna bo'shlig'idagi suyak sementining hajmi aniqlandi, bu 0,2 dan 1,0 ml gacha (ignaning diametri va uzunligiga qarab). Vertebroplastikani amalga oshirishda amaliy jarrohlikning yana bir muhim tomoni "Markitanovski" usulidan foydalanishdir.

Umurtqa pog'onasi ko'krak va bel umurtqa tanalarining murakkab bo'lmagan siqilib sinishlari bilan og'rikan ikki guruh bemorlarni (60 kishi) davolash natijalari o'rganildi. Bemorlar guruhlari o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi (I guruh – PVP amliiyoti bajarilgan bemorlar, II guruh - an'anaviy konservativ terapiya). Davolash natijalarini baholash quyidagilarga asoslangan ikkala guruh bemorlaridagi hayot sifatining buzilishining dinamikasini qiyosiy tahlil qilish edi. Kasalxonaga qabul qilingandan so'ng, ikkala guruhda og'riq sindromi ustunligi, harakat faoliyatining buzilishi ($p=0.47$ va $p=0.79$) bo'yicha sezilarli farqlar yo'q edi. Bemorlarning ikkala guruhi ham qabul qilingan analgetik dorilar hajmi jihatidan taqqoslangan ($p=0,75$).

Ikkala guruhdagi bemorlarining asosiy guruhdagi 38 (82,1%) va nazorat guruhidagi 22 (80,0%) bemorlarning shikoyatlari umurtqa disfunktsiyasi, og'riq va harakat cheklanishi kabi jismoniy faollikni cheklovchi shikoyatlar bo'ldi. Ikki taqqoslangan guruh o'rtasida hayot sifatini buzilishi darajasida sezilarli farqlar bo'lmagan ($p=0,79$).

Davolash boshlangandan so'ng, guruhlardagi bemorlarning hayot sifatidagi o'zgarishlar dinamikasi sezilarli farqlarga ega edi. Konservativ terapevtik taktika bemorlarning harakat faolligini sezilarli darajada cheklashga asoslangan edi, kelajakda yotoqda dam olishdan foydalanish, 35,2 + 7,3 kunlik korset bilan 83,2 + 14,5 kunlik tashqi immobilizatsiyadan so'ng, kamida 30 + 5,7 kun davom yetadigan rehabilitatsiya davolash.

PVP operatsiya sifatida qabul qilindi, natijada siqilgan umurtqani qo'llab-quvvatlash qobiliyati tiklandi. Shunday qilib, operativ davolanishdan bir necha soat o'tgach, barcha 38 (100%) bemorlar umumiy kasalxonada yotishdi. Klinikadan bo'shatish 2-5 kun davomida amalga oshirildi.

Og'riq sindromi 38 (100%) bemorlarda operatsiyadan so'ng darhol kamaydi, ammo jarrohlik amaliyoti bajarilgan sohasida namoyon bo'lgan noqulaylik hissi 35 (92.1%) bemorlarda keyingi kun uchun davom etdi [12.14]. PVP amaliyoti operatsiyasidan keyin bemorlarda hech qanday og'riqlarga shikoyat qolmadi. Aksincha, biz konservativ terapiyadan o'tgan bemorlarning 22 (100%) da hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilamadik. II nazorat guruhini tashkil etgan bemorlar dori terapiyasini (analgetiklar, NYAQDV va boshqalar) oldilar.), qattiq yotoqda dam olish kuzatildi, harakat faoliyatiga cheklovlar bir xil darajada qoldi. Bemorlarning hayot sifatidagi o'zgarishlar haqidagi so'rovidan olingan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash kerakki, PVP samaradorligi konservativ terapiyaning boshqa usullari bilan taqqoslaganda hech qanday shubha tug'dirmadi. Statistik tahlil davomida, konservativ davolash qabul qilgan bemorlardan farqli o'laroq, PVP amaliyotidan keyin bemorlar og'riq sindromi ($p=0001$) ozod etildi, deb topildi, ularning motor faoliyati normal ($p<0.0001$) bo'lib, kasalxonada qolish rejimi cheklovlar bekor qilindi.

Analgetik terapiya ishlatilmadi yoki minimallashtirildi ($p < 0.0001$).

Hayot sifati holatini retrospektiv miqyosda baholash bilan PVP va konservativ davodan keyingi bemorlar 6 oydan keyin qayta tekshirildi, 35 nafar bemorda vertebroplastikadan keyin olingan yaxshi natijalar saqlanib qolgan. Barcha bemorlar 12+5 kundan keyin normal faoliyatga qaytishdi, nogironlik cheklovlari kuzatilmagan. Konservativ terapiya natijalari qoniqarli deb hisoblanishi mumkin. Jabrlanganlarda faqat minimal siqilish deformatsiyalari mavjudligiga va statsionar sharoitda konservativ terapiya kursining davom etishiga qaramay, bemorlarning aksariyati oʻrtacha mahalliy ogʻriq sindromini malum muddatgacha saqlab qolishdi.

Statsionar davolanish muddati 2-7 kunni tashkil etdi, soʻngra reabilitatsiya davolash - 10 + 1,7 kun.3 (7,9%) bemor 4 kundan ortiq korset kiyishga majbur boʻldi, II guruh bemorlarida korset bilan tashqi immobilizatsiyaning oʻrtacha vaqti 20-40 kunni tashkil etdi.

Olti oylik kuzatuv natijasida 36 (94,7%) dan 38 (100%) guruh bemorlarining hayot tarzida cheklovlar yoʻqligi aniqlandi, jismoniy aktiv holatga qaytdi. Ikkinchi guruh 6(27,3%)bemorlarda oʻrtacha umurtqa disfunktsiya bor edi, ularning hayot sifati asl holiga qaytdi, ular reabilitatsiya muolajasini davom ettirishga majbur boʻldilar.

II guruh bemorlarning 14 (63,6%) jismoniy aktiv hayot tarziga oʻtishdi(yengil darajadagi disfunktsiya bilan). Taqqoslash guruhlaridagi farqlar juda ishonchli deb topildi ($r=0.001$).

Travmatik xarakterdagi umurtqa pogʻonasi asoratlanmagan siqilib sinishi boʻlgan bemorlarni jarroxlilik va konservativ terapiya paytida bemorlarning hayot sifatidagi oʻzgarishlarni baholashda PVP amaliyoti ishonchli tarzda samaradorligini koʻrsatdi. Ikkala guruhdagi bemorlarda davolanishdan oldin va keyingi davrlarda ogʻriq sindromi dinamikasi va Osvestri indeksi ham oʻrganildi. VASH va Osvestri indeksi boʻyicha ogʻriq koʻrsatkichlari dinamikasini oʻrganishda quyidagi natijalar olindi: operatsiyadan oldingi davrda ogʻriq sindromining intensivligi asosiy guruhdagi VASH shkalasi boʻyicha bel ogʻrigʻi uchun 4,2+0,22 sm ni tashkil yetdi. Nazorat guruhida bu koʻrsatkichlar mos ravishda 4,0+0,19 sm ni tashkil yetdi. Torakolumbar umurtqa pogʻonasiidagi travmatik siqilib sinishlarida biroz aniqroq ogʻriq sindromi mavjud, garchi baholashda guruhlar oʻrtasida statistik farqlar boʻlmagan boʻlsa ham. Shu bilan birga, Osvestri indeksi asosiy guruh uchun 67,9+1,5 va nazorat guruhi uchun 61,3+3,23 edi. Bu koʻrsatkichlar orasidagi farq statistik ahamiyatga ega ($p=0.003$). Shunday qilib, VASH boʻyicha ogʻriq intensivligining oʻxshash koʻrsatkichlari bilan operatsiyadan oldin simptomlarni baholashda Osvestri koʻrsatkichi torakolumbar umurtqadagi travmatik siqilish yoriqlariga qaraganda ancha yuqori boʻlib, bu aniqroq nevrologik defitsit bilan bogʻliq.

1 oydan keyin davolash natijalarini baholashda VASH shkalasi boʻyicha ogʻriq sindromi asosiy guruhda bel ogʻrigʻi uchun 1,5+0.25 gacha kamayganligi qayd etildi. Nazorat guruhida bu qiymatlar mos ravishda 10+0.27 ni tashkil etdi. Ushbu davrda Osvestri indeksi mos ravishda 33,4+1,26 ni tashkil etdi. Keyinchalik, ogʻriq sindromining pasayishi va ikkala guruhda ham Osvestri indeksining pasayishi kuzatildi. 6 oydan keyin tahlil qilinganda, asosiy guruhdagi ogʻriq

sindromining intensivligi $1,1+0,18$, Osvestri indeksi $8,5+0,65$ ni tashkil etdi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkichlar bel og'rig'i uchun $1,9+0,16$, Osvestri indeksi $15+0,74$ ni tashkil etdi.

Va nihoyat, 1 yildan keyin jarrohlik davolash natijalarini tahlil qilganda quyidagi ma'lumotlar olindi: asosiy guruhda vas shkalasi bo'yicha ko'krak sohasidagi og'riq og'irligi $1,6+0,13$, bel og'rig'i uchun $1,9+0,15$, Osvestri ko'rsatkichi $19,4+0,6$ ni tashkil etdi. Shunga ko'ra nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichlar $1,5+0,33$; $1,6+0,19$; $16+0,53$.

Operatsiyadan keyingi davrda asosiy va nazorat guruhlaridagi bemorlarda Osvestri indeksidagi o'zgarishlar og'riq sindromi dinamikasini baholashda guruhlar o'rtasida sezilarli farq bor. Asosiy guruhdagi bemorlarda PVP amaliyotidan so'ng ikkinchi sutkasiga kelib og'riq sindromi 90-95% gacha pasaydi. Bu esa ularning erta tuzalishi va jismoniy faolligini tezda tiklanishiga olib keladi

Xulosa. Shunday qilib, VASH shkalasi va Osvestri indeksi bo'yicha og'riq ko'rsatkichlari dinamikasini qiyosiy baholashda asosiy guruhdagi bemorlar nazorat guruhidagi bemorlarga nisbatan ko'rsatkichlari musbat tomonga sezilarli darajada farq kildi. Bundan kelib chiqadiki, UPKS bilan og'riq bemorlarda (asoratlanmagan shakli) PVP amaliyoti bajarilsa, konservativ davolashga nisbatan tezda og'riq sindromi bartaraf etiladi, barqarorlik tiklanadi va sotsial hayotga erta qaytishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lebedev V.V., Krilov V.V. Neotlojnaya neyroxirurgiya: ruk-vo dlya vrachey. - M.: Meditsina, 2000. - 567 s.
2. Rudel V., Leitgeb J., Janciak I. et al. Tyajelaya cherepno-mozgovaya travma v Avstrii // Vestnik intensivnoy terapii. - 2008. - №1. - S. 41-46.
3. Yeryuxin I.A. Ekstremalnoye sostoyaniye organizma v xirurgii povrejdeniy. Teoreticheskaya koncepsiya i prakticheskiye voprosi problemi // Med. akadem. jurnal. - 2002. - T. 2, №3. - S. 25-41.
4. Salaxov E.R., Kakorina Ye.P. Travmi i otravleniya v Rossii i za rubejom // Problemi sotsialnoy gigiyeni, zdravooxraneniya i istorii meditsini. - 2004. - №2. - S. 13-20.
5. Lixterman B. Cherepno-mozgovaya travma. Chto delat? // Meditsinskaya gazeta. - 2009. - №11. - S. 4.
6. Xetagurova A.K., Galiulina O.V. Mediko-sotsialnie aspekti travmatizma v Tyumenskoy oblasti: sovremennye podxodi k sovershenstvovaniyu travmatologicheskoy pomoshi // Sestrinskoye delo. - 2008. - №8. - S. 14-18.
7. Bagnenko S.F., Yermolov A.S., Stojarov V.V. i dr. Osnovnie prinsipi diagnostiki i lecheniya tyajeloy sochetannoy travmi // Skoraya meditsinskaya pomosh. - 2008. - №3. - S. 3-7.
8. Semenova V.G. O problemax travmatologicheskoy smertnosti v Rossii (na primere Kirovskoy oblasti) // Obshestvennoye zdorove i profilaktika zabolevaniy. - 2004. - №3. - S. 3-9.

9. Smertnost ot vneshnix prichin i vozrast [Elektronniy resurs] / Rejim dostupa: <http://www.scope.ru/weekly/029/tema04.php> (data obrasheniya 16.07. 2007).
10. Sokolov V. A. Mnojestvennie i sochetannie travmi. - M.: Meditsina, 2006. - 256 s.
11. Sergeyev V. A. Sravnitelnoye kliniko-psixologicheskoye issledovaniye bolnix s otdalyonnimi posledstviyami cherepno-mozgovoy travmi, oslojnyonnimi alkogolnoy zavisimostyu: avtoref. dis d-r.med.nauk - Chelyabinsk, 2006. – 32 s.
12. Krilov V. V., Talipov A. E., Puras Yu. V. Vibor trepanatsii v xirurgii tyajeloy cherepno-mozgovoy travmi // Voprosi neyroxirurgii. - 2007. - №1. - S. 11-16.
13. Ovsyannikov D. M., Chexonatskiy A. A., Kolesov V. N., Bubashvili A. I. Sotsialnie i epidemiologicheskiye aspekti cherepno-mozgovoy travmi (obzor) // Saratovskiy nauchno-meditsinskiy jurnal. - 2012. - T.8, №3. - S. 777-785.
14. Lixterman L. B., Kravchuk A. D., Filatova M. M. Sotryaseniye golovnogo mozga: taktika lecheniya i isxodi. - M.: IP «T. M. Andreyeva», 2008. – 159 s.

SEMIZLIKDA GORMONLARNING ROLI VA ULARNI KORREKSIYALASH YO'LLARI

Avazova Nilufar Baxtiyorovna – Turon universiteti Tibbiyot fakulteti
Tibbiyot kafedrasida assistent o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada semizlik kasalligida gormonlarning roli va ularni korreksiyalash usullari o'rganildi. Tadqiqotda gormonlarning vazn nazoratidagi muhim o'rni, insulin rezistentligi, leptin va grelin gormonlarining semizlik rivojlanishidagi ta'siri tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy gormon terapiyasi usullari va ularning samaradorligi baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, gormon muvozanatini tiklash semizlik davolashda kompleks yondashuvning muhim qismidir.*

Kalit so'zlar: *semizlik, gormonlar, insulin rezistentligi, leptin, grelin, gormon terapiyasi, vazn nazorati.*

THE ROLE OF HORMONES IN OBESITY AND WAYS TO CORRECT THEM

Abstract. *This article examines the role of hormones in obesity and methods for their correction. The study analyzes the important role of hormones in weight control, insulin resistance, the influence of the hormones leptin and ghrelin in the development of obesity. The article evaluates modern methods of hormone therapy and their effectiveness. The results show that restoring hormone balance is an important part of a comprehensive approach to the treatment of obesity.*

Keywords: *obesity, hormones, insulin resistance, leptin, ghrelin, hormone therapy, weight control.*

РОЛЬ ГОРМОНОВ В ОЖИРЕНИИ И СПОСОБЫ ИХ КОРРЕКЦИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль гормонов в развитии ожирения и методы их коррекции. В исследовании анализируется важная роль гормонов в контроле веса, инсулинорезистентности, а также влияние гормонов лептина и грелина на развитие ожирения. В статье дается оценка современных методов гормональной терапии и их эффективности. Результаты показывают, что восстановление гормонального баланса является важной частью комплексного подхода к лечению ожирения.*

Ключевые слова: *ожирение, гормоны, инсулинорезистентность, лептин, грелин, гормональная терапия, контроль веса.*

KIRISH

Semizlik XXI asrning eng dolzarb tibbiy va ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 650 million dan ortiq odam semizlikdan aziyat chekadi [1]. Semizlik - bu faqat ortiqcha vazn emas, balki ko'plab fiziologik jarayonlarning buzilishiga olib keladigan murakkab kasallikdir. Zamonaviy tadqiqotlar semizlikning rivojlanishi va rivojida gormonlarning hal qiluvchi rolini isbotladi.

Gormon tizimi organizmdagi energiya muvozanati, metabolizm va to'yinganlik hissini nazorat qiluvchi murakkab mexanizmdir. Insulin, leptin, grelin, kortizol va boshqa gormonlar orasidagi muvozanatsizlik semizlikning asosiy sabablaridan biridir. Ushbu gormonlarning har biri o'ziga xos funktsiyalarni bajaradi va ularning normal ishlamay qolishi vazn ortishiga, metabolik sindromga va qandli diabetning rivojlanishiga olib keladi.

Gormonlarning semizlikdagi rolini tushunish nafaqat kasallikning patogenezi ochib beradi, balki samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqishga ham yordam beradi. Zamonaviy tibbiyotda gormon terapiyasi, farmakologik intervensiya va hayot tarzini o'zgartirish orqali gormon muvozanatini tiklash usullari faol rivojlanmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi semizlikda gormonlarning rolini to'liq tahlil qilish va ularni korreksiyalash yo'llarini ilmiy jihatdan baholashdir.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqot sistematik adabiyotlar tahlili metodologiyasiga asoslangan. Insulin rezistentligi semizlikning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Polonskaya va boshqalarning tadqiqotiga ko'ra, insulin rezistentligi 2-tip qandli diabet va semizlik o'rtasidagi asosiy bog'lovchi zveno hisoblanadi [2]. Insulin - bu qondagi glyukoza darajasini nazorat qiluvchi gormon bo'lib, u hujayralarning glyukozani qabul qilishini rag'batlantiradi. Insulin rezistentligi holatida hujayralar insulinga nisbatan sezgirligini yo'qotadi, natijada pankreas ko'proq insulin ishlab chiqarishga majbur bo'ladi.

Leptin gormoni to'yinganlik gormon deb ataladi va yog' hujayralari tomonidan ishlab chiqariladi. Friedman va boshqalarning kashfiyoti shuni ko'rsatdiki, leptin miya gipotalamusidagi retseptorlarga ta'sir qilib, ishtahani kamaytiradi va energiya sarfini oshiradi [3]. Ammo semiz odamlarda leptin rezistentligi kuzatiladi, ya'ni yuqori leptin darajasiga qaramay, miya to'yinganlik signalini qabul qilmaydi.

Grelin esa "ochlik gormoni" sifatida tanilgan va asosan oshqozon tomonidan ishlab chiqariladi. Cummings va boshqalarning tadqiqotlari shuni isbotladiki, grelin darajasi ovqatdan oldin oshadi va ovqatdan keyin kamayadi [4]. Semiz odamlarda grelining ovqatdan keyingi kamayishi sekinroq sodir bo'ladi, bu esa uzluksiz ochlik hissiga olib keladi.

Kortizol stress gormoni sifatida tanilgan va haddan tashqari ishlab chiqarilganda qorin bo'shlig'ida yog'larning to'planishiga olib keladi. Rosmond va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, surunkali stress va yuqori kortizol darajasi visseral semizlik rivojlanishiga yordam beradi [5].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Gormonlarning semizlikdagi rolini o'rganish natijasida bir nechta muhim xulosalar olindi. Birinchidan, semizlik rivojida bir nechta gormonlarning o'zaro ta'siri muhim rol o'ynaydi. Insulin rezistentligi nafaqat qandli diabetning, balki semizlikning ham asosiy sababi hisoblanadi. Kahn va boshqalarning meta-analizi shuni ko'rsatdiki, insulin sezgirliги yaxshilansa, vazn yo'qotish jarayoni 40% ga tezlashadi [6].

Leptin va grelin gormonlari orasidagi muvozanat buzilishi semizlikning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Sainsbury va boshqalarning tadqiqotlari shuni isbotladiki, leptin rezistentligi rivojlangan odamlarda vazn yo'qotish ancha qiyin kechadi [7]. Bu holda gormon terapiyasi va farmakologik intervensiya zarur bo'ladi.

Gormonlarni korreksiyalash yo'llari bir nechta yo'nalishda rivojlanmoqda. Metformin kabi insulinga sezgirlikni oshiruvchi preparatlar keng qo'llanilmoqda. Diabetes Prevention Program tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, metformin qabul qilish vazn ortishi xavfini 31% ga kamaytiradi [8]. GLP-1 agonistlari ham zamonaviy semizlik davolashda muhim o'rin tutadi. Ular insulinga sezgirlikni oshirish bilan birga ishtahani kamaytiradi va oshqozonning bo'shalishini sekinlashtiradi.

Hayot tarzini o'zgartirish gormonlarni korreksiyalashning eng tabiiy va samarali usulidir. Muntazam jismoniy mashqlar insulin sezgirligini oshiradi va leptin ishini yaxshilaydi. Stanford va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, haftada kamida 150 daqiqa o'rtacha intensivlikdagi mashqlar insulin sezgirligini 25% ga oshiradi [9]. Uyqu rejimini tartibga solish ham muhim, chunki uyqu yetishmovchiligi grelin darajasini oshiradi va leptin ishini buzadi.

Oziq-ovqat ratsioni ham gormon muvozanatiga katta ta'sir qiladi. Past glikemik indeksli mahsulotlar insulin darajasini barqaror tutadi, protein miqdorini oshirish esa leptin sezgirligini yaxshilaydi. Intervalli ro'za usuli ham gormon muvozanatini tiklashda samarali ekanligi isbotlangan [10].

Tiroid gormonlarining semizlik rivojlanishidagi roli ham katta ahamiyatga ega. Tiroid stimulyatorlovchi gormon (TSH) va tiroksin (T4) darajasidagi o'zgarishlar

metabolizmni sekinlashtiradi va vazn ortishiga yordam beradi. Gipotiroidizm holatlari semizlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tiroid gormonlarining yetishmovchiligi bazal metabolizmni 15-20% ga kamaytiradi. Zamonaviy endokrinologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, subklinik gipotiroidizm ham semizlik rivojlanish xavfini oshiradi. Tiroid gormonlarini to'g'ri korreksiyalash orqali metabolizm tezligini normallashtirib, vazn yo'qotish jarayonini tezlashtirish mumkin. Levotiroksin preparatlari bilan olib boriladigan zamestitiv terapiya nafaqat tiroid funksiyasini tiklaydi, balki umumiy energiya sarfini ham oshiradi.

Jinsiy gormonlarning semizlikdagi rolini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Estrogen va testosteron kabi gormonlar yog' taqsimotini va metabolizmni boshqarishda muhim vazifalar bajaradi. Ayollarda menopauza davridagi estrogen darajasining pasayishi visseral semizlikning rivojlanishiga olib keladi. Eraklarda testosteron yetishmovchiligi mushak massasining kamayishi va yog' to'planishining ortishiga sabab bo'ladi. Gormon-zamestitiv terapiya ba'zi hollarda semizlikni nazorat qilishda yordam beradi, ammo bunday davolash faqat ko'rsatmalar bo'yicha va tibbiy nazorat ostida amalga oshirilishi kerak. Jinsiy gormonlarning muvozanati nafaqat reproduktiv salomatlikka, balki umumiy metabolik holatga ham ta'sir qiladi.

1-jadval.

Semizlikda asosiy gormonlarning o'zgarishi va ularning ta'siri

Gormon	Normal holat	Semizlikdagi o'zgarish	Fiziologik ta'sir	Klinik ko'rinish
Insulin	5-25 mIU/ml	2-3 baravar oshadi	Rezistentlik rivojlanadi	Giperglikemiya, vazn ortishi
Leptin	5-15 ng/ml	5-10 baravar oshadi	Rezistentlik paydo bo'ladi	To'yinmaslik hissi
Grelin	200-600 pg/ml	Ovqatdan keyin kam kamayadi	Uzluksiz ochlik signali	Ortiqcha ovqatlanish
Kortizol	10-20 mcg/dl	30-50% oshadi	Visseral yog' to'planishi	Qorin atrofida semizlik
Adiponektin	5-30 mcg/ml	40-60% kamayadi	Insulin sezgirligi pasayadi	Metabolik sindrom
TSH	0.4-4.0 mIU/l	Ko'pincha oshadi	Metabolizm sekinlashadi	Vazn ortishi, charchoq

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, semizlik holatida gormonlarning aksariyati patologik o'zgarishlarga uchraydi. Eng muhimi, insulinning 2-3 baravar oshishi va leptinning 5-10 baravar ko'payishi gormon rezistentligining rivojlanishiga olib keladi. Bu

holat metabolik sindromning asosiy mexanizmini tushuntiradi. Adiponektinning sezilarli kamayishi (40-60%) esa yallig'lanish jarayonlarining kuchayishi va insulin rezistentligining qo'shimcha rivojlanishiga yordam beradi. Kortizol darajasining oshishi stress va semizlik orasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni isbotlaydi.

2-jadval.

Gormon korreksiyalash usullari va ularning samaradorligi

